O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM

METODIKALARI KAFEDRASI

ISHLAB CHIQARISHDAN AJRALGAN HOLDA TA’LIM OLISH

SHAKLIDAGI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI

MALAKA OSHIRISH KURSI UCHUN “"SAN’AT", "QURISH KONSTRUKSIYALASH VA MATEMATIKA" MARKAZLARIDA TA’LIMIY FAOLIYAT”MODULI BO‘YICHA

Ma’ruza matnlari

Andijon 2024

“Tasdiqlayman”

VPYM O‘MM direktori

_____M.Abdullayeva

“____”_____2024 yil

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM

METODIKALARI KAFEDRASI

ISHLAB CHIQARISHDAN AJRALGAN HOLDA TA’LIM OLISH

SHAKLIDAGI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI

MALAKA OSHIRISH KURSI UCHUN “"SAN’AT", "QURISH KONSTRUKSIYALASH VA MATEMATIKA" MARKAZLARIDA TA’LIMIY FAOLIYAT ""MODULI BO‘YICHA

*Ma’ruza matnlar*i

“KIRITILDI”

“Maktabgacha,boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi mudiri

_____ N.Karimova

2024- yil «____ » yanvar

“KELISHILDI”

O‘quv va metodik ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

_____ O‘.Jabborov

2024- yil «____» yanvar

Ushbu ishchi ma’ruza matni kafedraning 2024 yil 4-yanvardagi 1-sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan hamda tasdiqga tavsiya etilgan

MUNDARIJA

I.	**KIRISH**	**4**
II.	**TEXNOLOGIK XARITASI**	**5-8**
III.	**MA’RUZA MATN VA O‘QUV MATERIALLAR**	**9-126**
IV.	**O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLAR**	**127-131**
V.	**ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI**	**132**
VI.	**TARQATMA MATERIALLAR**	**133-138**
VII.	**ATAMALAR IZOHLI LUG’ATI**	**138-139**

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-son qarori, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 9-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv-uslubiy majmuasi ishlab chiqilgan.

“San’at”, “Qurish, konstruktsiyalash va matematika” markazlarida ta’limiy faoliyat modulining o‘quv-uslubiy majmuasi maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini malakasini oshirish kursining namunaviy o‘quv dasturiga asosida tuzilgan bo‘lib, u “San’at”, “Qurish, konstruktsiyalash va matematika” rivojlanish markazlarini takomillashtirish, loyihalash, unga qo‘yiladigan talablar, faoliyatlarda o‘quv-didaktik vositalardan foydalanish, o‘quv-didaktik vositalar tayyorlash bo‘yicha malakasini oshirish jarayonlari mazmuni takomillashtirilib, muntazam yangilab borishni taqozo etadi.

Modulning maqsadi: Tinglovchilarga “San’at”, “Qurish, konstruktsiyalash va matematika” markazlarida ta’limiy faoliyat oid bilimlar berish va amaliyotda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Tinglovchilarga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida guruhlarda “San’at”, “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazlarini takomillashtirish, ushbu markazlarining taxminiy jihozlanishiga qo‘yiladigan talablar, markazlarning bolalar iqtidorini namoyon bo‘lishi va o‘z mahoratini ko‘rsatishi uchun juda qulay muhitligi, unda bolalar o‘z ishlarini tahlil qilishni o‘rganishlari va bu bilan bolaning “Men”ini shakllantirish uchun imkoniyat yaratilishi haqida ma’lumot beriladi.

Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:

O’quv-uslubiy majmuasi asosida guruhlarda “San’at”, “Qurish, konstruktsiyalash va matematika” markazlarida ta’limiy faoliyatni takomillashtirish, ushbu markazlariga qo‘yiladigan talablar, markazlarning bolalar rivojlanishidagi o‘zga xos muhit ekanligi to‘g‘risida ma’lumot berish.

Tinglovchilarga bolalarni bilish sohalari kompetensiyalarini “San’at”, “Qurish, konstruktsiyalash va matematika” markazlaridagi faoliyatlar asosida shakllantirish to‘g‘risida ma’lumot berish

Tinglovchilar “San’at”, “Qurish, konstruktsiyalash va matematika” rivojlanish markazida bolalarni tayanch kompetensiyalarini faollashtirishda qo‘llaniladigan amaliy metod va uning turlari haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

Tinglovchilarga “San’at”, “Qurish, konstruktsiyalash va matematika” markazlarida ta’limiy faoliyatga oid bilimlar, maktabgacha ta’lim tashki-lotlarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘yin orqali tashkil etish haqida bilimga ega bo‘ladilar.

Tinglovchilar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida “San’at”, “Qurish, konstruktsiyalash va matematika” rivojlanish markazlarining pedagogik jarayonining mazmun, ushbu markazlarni metodik ta’minlanishi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar va uni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

“San’at” rivojlanish markazlaida amaliy ishlarni (rasm chizish, applikatsiya, loy bilan ishlash) mustaqil bajarish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar

“Qurish, konstruktsiyalash va matematika” rivojlanish markazlarida amaliy ishlarni (origami, pazl, lego) mustaqil bajarish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar

Tinglovchilar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida “San’at”, “Qurish, konstruktsiyalash va matematika” rivojlanish markazlarining pedagogik jarayonining mazmun, rivojlanish markazini metodik ta’minlanishi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar va uni amaliyotda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘ladilar.

Tinglovchilarni “San’at”, “Qurish, konstruktsiyalash va matematika” rivojlanish markazlarida rivojlanish soha kompetensiyalarini hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘ladilar.

Tinglovchilar “San’at”, “Qurish, konstruktsiyalash va matematika” rivojlanish markazlarida bolalarni tayanch kompetensiyalarini faollashtirishda didaktik, harakatli va ijodiy o‘yinlardan foydalanish hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘ladilar.

Tinglovchilarga rivojlanish markazida ta’limiy faoliyatga oid bilimlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘yin orqali tashkil etish va amaliyotda qanday tashkil etish malakasiga ega bo‘ladilar.

II. TEXNOLOGIK XARITA

Vaqt	Mavzu	Jarayon, metod	Resurs, tarqatma materiallar	Tinglovchining faoliyati
80 daqiqa	**1-Mavzu: “San’at” rivojlanish markazi ta’limiy faoliyati mazmuni (nazariy 2 soat)**			
35 daqiqa	“San’at” rivojlanish markazida pedagogik jarayon mazmuni boyitish.	Ma’ruza, Bahs munozara.	Slaydlar asosida ma’ruza. Tarqatma materiallar: tarbiyachining nomenklaturasidagi hujjatlar qayd etilgan kartochkalar	Tinglaydi, savol-javob, fikrlar bildiradilar, ma’lumotlarni yozib oladi, fikr mulohaza, juft bo‘lib ishlash
35 daqiqa	“San’at” rivojlanish markazini metodik ta’minlashda qo‘l ishlaridan foydalanish.	Ma’ruza, Aqliy hujum Juft bo‘lib ishlash	Slaydlar asosida ma’ruza shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning tamoyillari qayd etilgan kartochkalar	Taqdimot xulosasi, savol-javob Vazifani juft bo‘lib bajaradilar
10 daqiqa	Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash	Mustahkamlovchi topshiriq	Rangli ip o‘rami “O‘rgimchak to‘ri”	Har bir tinglovchi amaliy mashg‘ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan o‘z fikrini bildiradi
80 daqiqa	**2-Mavzu: “San’at” rivojlanish markazida bolalarni rasm ta’limiy faoliyatiga o‘rgatishni takomillashtirish (amaliy 2 soat)**			
35 daqiqa	Turli yosh guruhlarida bolalarni rasm chizishga o‘rgatishni takomillashtirish.	Ma’ruza, Bahs munozara, “Kalit so‘zlar”	Slaydlar, Savollar to‘plami, tarqatma materiallar	Tinglaydi, savol-javob, fikrlar bildiradilar, ma’lumotlarni yozib oladi, fikr mulohaza
35 daqiqa	Oy mavzulari bo‘yicha “San’at” markazi ta’limiy faoliyatini tashkil etish.	Ma’ruza “Aqliy hujum” texnologiyasi, Pedagog minbari	Slayd, kichik guruhlarga topshiriqlar, tarqatma	Vazifani jamoaviy bajaradilar, taqdimot xulosasi, Savol-javob
10 daqiqa	Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash	Mustahkamlovchi topshiriq	Rangli ip o‘rami “O‘rgimchak to‘ri”	Har bir tinglovchi amaliy mashg‘ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan o‘z fikrini bildiradi
80 daqiqa	**3–Mavzu: “San’at” rivojlanish markazida bolalarni noan’anaviy rasm chizishga o‘rgatishni takomillashtirish (amaliy 2 soat)**			
35 daqiqa	Turli yosh guruhlarida noan’anaviy rasm chizish usullari	Ma’ruza Suhbat Juftlikda ishlash	O‘rganish va tahlil qilish	Tinglaydi, savol-javob, tahlil qiladilar, fikrlar bildiradilar, ma’lumotlarni yozib oladi.
35 daqiqa	Maktabgacha yoshdagi bolalarni	Kichik guruhda	Flipchart qog‘ozi; Markerlar;	Har bir tinglovchi amaliy mashg‘ulot

Vaqt	Mavzu	Jarayon, metod	Resurs, tarqatma materiallar	Tinglovchining faoliyati
	barglar, sanchqi, quloq choʻplar, gupkalar, barmoqlar va boshqa vositalarda rasm chizishga oʻrgatish	ishlash	Tarqatma materiallar	davomida olgan bilimlari yuzasidan oʻz fikrini bildiradi
10 daqiqa	Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash	Kichik guruhda ishlash	Flipchart qogʻozi; Markerlar; Tarqatma materiallar	Har bir tinglovchi amaliy mashgʻulot davomida olgan bilimlari yuzasidan oʻz fikrini bildiradi
80 daqiqa	**4-Mavzu: “San’at” rivojlanish markazida bolalarni applikatsiya ishiga oʻrgatishni takomillashtirish (amaliy 2 soat)**			
35 daqiqa	Applikatsiya turlari.	Ma’ruza Suhbat Juftlikda ishlash	Slaydlar asosida ma’ruza. Juftliklarga topshiriqlar, tarqatma materiallar	Tinglovchi yangi mavzuni tinglaydi
35 daqiqa	Maktabgacha yoshdagi bolalarni yassi va hajmli applikatsiya ishiga oʻrgatish.	Kichik guruhda ishlash	Flipchart qogʻozi; Markerlar; Tarqatma materiallar, rangli qogʻoz; qaychi va yelim	Tinglovchilar berilgan topshiriqni kichik guruhda bajaradilar
10 daqiqa	Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash	Mustahkamlovchi topshiriq	Slayd, kichik guruhlarga topshiriqlar, tarqatma	Har bir tinglovchi amaliy mashgʻulot davomida olgan bilimlari yuzasidan oʻz fikrini bildiradi
80 daqiqa	**5-Mavzu: “San’at” rivojlanish markazida bolalarni plastilin va loy ishiga oʻrgatishni takomillashtirish (amaliy 2 soat)**			
35 daqiqa	Bolalarni plastilin va loy ishiga oʻrgatishni oʻziga xos xususiyatlari.	Ma’ruza Suhbat Juftlikda ishlash	Juftliklarga topshiriqlar, tarqatma materiallar	Tinglovchi yangi mavzuni tinglaydi
35 daqiqa	Oy mavzulari boʻyicha plastilin va loydan narsalar yasash.	Ma’ruza Suhbat Juftlikda ishlash	Juftliklarga topshiriqlar, tarqatma materiallar	Tinglovchi yangi mavzuni tinglaydi
10 daqiqa	Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash	Mustahkamlovchi topshiriq	Slayd, kichik guruhlarga topshiriqlar, tarqatma	Har bir tinglovchi amaliy mashgʻulot davomida olgan bilimlari yuzasidan oʻz fikrini bildiradi
80 daqiqa	**6–Mavzu: Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta’limiy faoliyatni takomillashtirish (amaliy 2 soat)**			
35 daqiqa	“Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazining	Ma’ruza Suhbat Juftlikda ishlash	Oʻrganish va tahlil qilish	Tinglaydi, savol-javob, tahlil qiladilar, fikrlar bildiradilar, ma’lumotlarni yozib

Vaqt	Mavzu	Jarayon, metod	Resurs, tarqatma materiallar	Tinglovchining faoliyati
	pedagogik jarayonining mazmuni			oladi.
35 daqiqa	“Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazini metodik ta’minlash.	Kichik guruhda ishlash	Flipchart qog‘ozi; Markerlar; Tarqatma materiallar	Har bir tinglovchi amaliy mashg‘ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan o‘z fikrini bildiradi
10 daqiqa	Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash	Mustahkamlovchi topshiriq	Slayd, kichik guruhlarga topshiriqlar, tarqatma	Har bir tinglovchi amaliy mashg‘ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan o‘z fikrini bildiradi
80 daqiqa	**7–Mavzu: “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazida bolalarni origami yasashga o‘rgatish (amaliy 2 soat)**			
35 daqiqa	Origami va uning kelib chiqish ta’rixi	Ma’ruza Suhbat Juftlikda ishlash	O‘rganish va tahlil qilish	Tinglaydi, savol-javob, tahlil qiladilar, fikrlar bildiradilar, ma’lumotlarni yozib oladi.
35 daqiqa	Oy mavzulari bo‘yicha origamida hayvonlar tasvirini yasashga o‘rgatish	Kichik guruhda ishlash	Flipchart qog‘ozi; Markerlar; Tarqatma materiallar	Har bir tinglovchi amaliy mashg‘ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan o‘z fikrini bildiradi
10 daqiqa	Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash	Mustahkamlovchi topshiriq	Slayd, kichik guruhlarga topshiriqlar, tarqatma	Har bir tinglovchi amaliy mashg‘ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan o‘z fikrini bildiradi
80 daqiqa	**8–Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni tangramm, pazl va lego rivojlantiruvchi o‘yinlar vositasida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish (amaliy 2 soat)**			
35 daqiqa	Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirishda tangramning o‘rni	Ma’ruza Suhbat Juftlikda ishlash	O‘rganish va tahlil qilish	Tinglaydi, savol-javob, tahlil qiladilar, fikrlar bildiradilar, ma’lumotlarni yozib oladi.
35 daqiqa	Pazl va lego rivojlantiruvchi o‘yinlar vositasida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish	Kichik guruhda ishlash	Flipchart qog‘ozi; Markerlar; Tarqatma materiallar	Har bir tinglovchi amaliy mashg‘ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan o‘z fikrini bildiradi
10 daqiqa	Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash	Mustahkamlovchi topshiriq	Slayd, kichik guruhlarga topshiriqlar, tarqatma	Har bir tinglovchi amaliy mashg‘ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan o‘z fikrini bildiradi

Vaqt	Mavzu	Jarayon, metod	Resurs, tarqatma materiallar	Tinglovchining faoliyati
80 daqiqa	**9–Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni sanoq cho‘plar vositasida elementar matematik tasavvurlarni shakillantirish (amaliy 2 soat)**			
35 daqiqa	Sanoq cho‘plar vositasida gometrik shakllarni hosil qilish	Ma’ruza Suhbat Juftlikda ishlash	O‘rganish va tahlil qilish	Tinglaydi, savol-javob, tahlil qiladilar, fikrlar bildiradilar, ma’lumotlarni yozib oladi.
35 daqiqa	Bolalarni son-sanoqqa o‘rgatishda sanoqcho‘plardan foydalanish	Kichik guruhda ishlash	Flipchart qog‘ozi; Markerlar; Tarqatma materiallar	Har bir tinglovchi amaliy mashg‘ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan o‘z fikrini bildiradi
10 daqiqa	Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash	Mustahkamlovchi topshiriq	Slayd, kichik guruhlarga topshiriqlar, tarqatma	Har bir tinglovchi amaliy mashg‘ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan o‘z fikrini bildiradi

III. MA’RUZA MATNI VA O‘QUV MATERIALLARI

1-Mavzu: “San’at” rivojlanish markazi ta’limiy faoliyati mazmuni. (nazariy 2 soat)

1. “San’at” rivojlanish markazining pedagogik jarayonining mazmunini boyitish
2. “San’at” rivojlanish markazini metodik ta’minlashda qo‘l ishlaridan foydalanish.

1.“San’at” rivojlanish markazining pedagogik jarayonining mazmunini boyitish

Bolada ijodiy qobiliyatni shakllantirish – maktabgacha ta’lim hamda zamon talabining dolzarb maqsad va vazifasi. Bu maqsad va vazifalarni bajarishning eng samarali usullaridan biri — tasviriy faoliyatdir. Tasviriy faoliyat maktabgacha yosh bolalarda estetik didni rivojlantirish, tevarak – atrof, borliqni bilish, o‘z his tuyg‘ulari, taasurotlarini grafik va plastik ish shakllari orqali namoyon qilishda muhim o‘rinni egallagan. Maktabgacha ta’lim tizimida «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari»va «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishda yetakchi rol o‘ynaydi. Badiiy tomondan rivojlanish bolalarni badiiy obrazni idrok etish qobiliyati va mustaqil ravishda yangi obraz(rasm, loy bilan ishlash, applikatsiya orqali) yaratishlarida markaziy o‘rinni egallaydi, qaysiki

bolalar o‘zlarining noyobligi, turli- tumanligi, egiluvchanligi, harakatchanligi bilan ajralib turadi.

“San’at” rivojlanish markazi bolalarga quvonch, hayajon va qoniqish hislarini baxsh etadi. U turli funksiyalarni bajaradi, biroq, eng avvalo, bolalarning ijodkorligi, qiziquvchanligi, tasavvuri va tashabbusiga oziq beradi.

Agar bolalarga materiallar bilan tajribalar o‘tkazish, o‘zi uchun yangi narsalarni kashf etish, g‘oyalarni sinab ko‘rish uchun vaqt, imkoniyat va erkinlik berilsa, ularda muvaffaqiyatli o‘qish va ishlash uchun poydevor shakllanadi.

«San’at» markazi, odatda, bolalar eng ko‘p ishtirok etadigan markazdir. Ular turli vositalarni sinab ko‘radilar, molbertlarda rasm soladilar, barmoq bilan musavvirlik qiladilar, loy, bo‘r parchalari, plastilin, qaychi va boshqa ko‘plab materiallar va vositalardan foydalanadilar. Bunda eng muhimi — tadqiqot jarayonining o‘zi ekanligani yodda tutish ahamiyatga molirdir.

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi bolaning «San’at» markazida turli xil materiallar asosida ijodiy tajriba orttirishiga imkoniyat yaratadi. Bolalar o‘z ijodlarining ikki me’yorli (rasm chizish va tasviriy san’at) mahsulotlarini yaratadilar. Dastur, shuningdek, bolalarga san’at asarlari bilan tanishish va ularni muhokama qilish imkoniyatini ham beradi. Faoliyatning bu turlari bolalarga o‘zlari yaxshi ko‘rgan va yoqtirgan narsalar haqida, san’at asariga qarab turib ular nimalarni his etishlari to‘g‘risida so‘zlashish imkonini yaratadi. Bunday faoliyat turlari bilan shug‘ullanish davomida bolalar madaniyat, tarix va hozirgi jamiyat haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradilar.

Bolalar, garchi ularning oxirgi mahsuloti katta yoshli kishining nazarida hech narsaga o‘xshamasa ham, o‘zlari qilayotgan ish bilan bog‘liq ravishda hayajonlanadilar. Nozik his etuvchi tarbiyachilar har bir bolaning his-tuyg‘ulariga sherik bo‘ladilar va uning kuch kuch-g‘ayratini qadrlaydilar. Ular, shuningdek, bolalar o‘zlarining rivojlanishlariga ko‘ra bir-birlaridan farq qilishini ham hisobga oladilar.

Rasm chizishning ilk bosiqichlarida bolaning mushak faoliyati aji-buji chiziqlarni yuzaga keltiradi (ikki yoshdan uch yoshgacha). Mana shu juda muhim bosqichda bola sensor-kinestetik tajriba kasb etadi. Ikki va to‘rt yoshlar oralig‘idagi davrda bola aylana, kvadratlar, uchburchaklar ilgari o‘ziga xos shakllarni chiza boshlaydi. Kunlardan bir kuni u ikki kichik doirasi bo‘lgan katta bir doirani chizishga muvaffaq bo‘ladi va quvonch bilan «Men odamning yuzini chizdim» deb aytadi.

“San’at” markazining tashkil etilishi

Bo‘yoq, qog‘oz, qaychi, bo‘rchalar, qalamlar, gazlama bo‘laklari va kesish hamda yelimlash uchun turli qiyqimlar, rangli bo‘laklar, yuviladigan markerlar, qaychilar (o‘ng va chap qo‘l uchun), kollatlar uchun materiallar, yelim, qog‘oz

(karton, gazetalar, foydalanilgan qog‘oz va jurnallar) —bularning barchasi ochiq tokchalarda, bolalarning o‘zlari olishi mumkin bo‘lgan tarzda joylashtirilishi lozim.

Musavvirlik bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ham ular kun bo‘yi ega bo‘lishlari kerak. Molbertlarga katta qog‘oz va raqamlarini (60 x 90 sm) yopishtirish va suvda aralashtirilgan qizil, ko‘k, sariq bo‘yoqlarni (akvarel yoki guash) kichik sig‘imli idishlarda qo‘yib qo‘yish. Bo‘yoq to‘kilmasligi va cho‘tkaning sopiga surkalmasligi uchun uni oz-ozdan ishlatish. U tamom bo‘lishi bilan darhol yana bo‘yoq qo‘shish.

Har bir rang uchun alohida uzun dastali cho‘tkachaga ega bo‘lish lozim. Kichik yoshli yoki tasviriy san’at bilan shug‘ullanish tajribasi kam bolalar uchun kalta dastali cho‘tkachalar talab qilinadi, chunki ularni ishlatishi osonroq. Cho‘tkachalar to‘plami bolalarga tanlab olish imkonini yaratadi va xilma-xillikni ta’minlaydi.

Molbertlar yoniga xalatlarni ilib qo‘yish kerak. Bolalarga o‘z kiyim-boshlarining ifloslanishidan xavotirlanmaslik uchun ana shu xalatlarda foydalanishni nazokat bilan eslatish lozim.

Loy ham san’at markazida har doim tayyor turishi kerak. Uni katta idishda ustiga ho‘l latta yopilgan holda saqlash mumkin. Bunda tokchalarda har xil narsalar yasash uchun bir nechta tasma va asboblar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

“Ilk qadam” dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “San’at” rivojlanish markazini jihozlardan foydalanish.

Asboblar ishlatilishiga mos bo‘lishi bilan birga estetik va gigienik talabga javob berishi kerak. Applikatsiya uchun kerakli ashyo murakkab emas; qaychi, yelim uchun mo‘yqalam, oddiy qalam, qirqim uchun quticha, lattacha, gazeta qog‘ozi.

Qaychi–uchi to‘g‘ri, katta–kichik, katta qaychi 14-20 sm, to‘g‘ri, uchi uchli va aylanaviy katta tasvirlarni qirqish uchun



Kichik qaychi: 8-10 sm mayda detallarni qirqish uchun qaychi o‘tkir bo‘lishi kerak. Stakanga qaychi uchi pastga qaragan holda qo‘yilishi, do‘stiga uzatganda ham uchini ushlagan holda uzatish kerak, qaychi ko‘ndalangida qo‘lni silkitish, o‘qtalish mumkin emas.

Ye**lim uchun mo‘yqalam.** 2-3 ta mo‘yqalamga ega bo‘lish kerak. Mo‘yqalam applikatsiyaning mazmunini katta–kichikligiga bog‘liq. Katta hajmdagi applikatsiyaga uchi enli mo‘yqalam, mayda detallarga esa, kichik mo‘yqalamdan foydalanish maqsadga muvofiq. Ish tugagandan so‘ng, mo‘yqalamni yaxshilab yuvib, artib, quritib, mo‘yini yuqoriga qilib qo‘yish kerak

Mo‘yqalam qo‘ygich- yelim ishlatishda yelimning ortiqchasi surkalib ketmasligi stolni iflos qilmasligi uchun ishlatiladi.

Qalam. Tasvir konturini chizish uchun oddiy, M va TM (yumshoq, yarim yumshoq) qalam ishlatiladi. Ular yaxshi ochilgan bo‘lishi shart. Kontur chizishda ruchka va ximiyaviy qalamni ishlatish mumkin emas.

Yelim uchun idish– yelim kichik idishchalarga solib bo‘ladi, plastmassa idishlar, sopol taqsimchalar tanlanadi. Ishlatib bo‘lingandan so‘ng tezda yuvib qo‘yish kerak.

Bolalar applikatsiya mashg‘ulotlarida qimmatli mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallaydilar. Ular ozoda, batartib yopishtirishga, o‘z ish joylarini toza saqlashga o‘rganadilar va murakkab asbob hisoblangan qaychi bilan ishlashga o‘rganadilar. Bularning barchasi bolalarning maktabdagi qo‘l mehnati darsiga tayyorlaydi. Bolalar yengil va mayda qog‘oz shakllari bilan ishlashlari natijasida, o‘z harakatlarini tezligini to‘xtatib turishga o‘rganadilar. Mashg‘ulot jarayonida ular oz bo‘lsada-qiyinchilikni yengadilar, bu esa bolalarda harakterining irodaviy xususiyatini chidam, sabr kabilarni tarbiyalaydi.

2.“San’at” rivojlanish markazini metodik ta’minlashda qo‘l ishlaridan foydalanish.

Ko‘rgazmali metod va o‘rgatish usullari. Kuzatish metodi tasviriy faoliyatga o‘rgatish tizimining umumiy asosini tashkil qiladi. Chunki, u atrof-muhitni o‘rganishda, bilish hamda uni aks ettirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bolalarda qanchalik kuzatish, atrof-olam ko‘rinishi bilan aloqa o‘rnatish, umumiylik va yakkalikni ajratish malakasi rivojlangan bo‘lsa, shuncha bolalar

ijodiy qobiliyatining rivojlanishi bog‘liq bo‘ladi. Lekin kuzatishning o‘zi ko‘rganni tasvirlab berishga to‘la imkon bermaydi. Bolalarni tasvirlashning muhim usullariga, turli tasvirlash materiallaridan foydalanish yo‘llariga o‘rgatish zarur. Ko‘rgazmali metod va o‘rgatish usullariga naturadan, rasm reproduksiyalaridan, namunadan, boshqa ko‘rgazmali qo‘llanmalardan foydalanish, alohida predmetlarni ko‘rib chiqish, tarbiyachi tomonidan tasvirlash usullarini ko‘rsatib berish, bolalarning bajargan ishlarini mashg‘ulot yakunida ko‘rsatish, ularni baholash kiradi.

Naturadan foydalanish. Tasviriy san’atda naturadan foydalanish deganda, kuzatish asosida predmet yoki ko‘rinishni tasvirlash tushuniladi. Naturadan foydalanib ishlanganda chizayotgan kishining ko‘ziga nisbatan naturaning qay holatda turganini hisobga olgan holda ma’lum bir nuqtai nazardan turib, predmet ko‘rinishi tasvirlanadi. Bu naturadan olib tasvirlash xususiyati mashg‘ulot mobaynida o‘zgacha idrokning rivojlanishiga ko‘mak beradi. Bunda asosiysi bolaning idroki bo‘lib, tekislikda tasvirlangan predmet (rasm, applikatsiya) faqat bir tomondan idrok qilinadi; loydan buyum yasaganda va qurish-yasashda bolalarda naturani o‘girib qurish hamda hajm-shaklni turli xil burilishda tahlil qilish imkoni bo‘lishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda naturadan foydalanishning ayrim xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz. Natura xotira ishini yengillashtiradi, negaki tasvirlash jarayoni idrok bilan birlashadi, predmetning shaklini, tuzilishini, rangini to‘g‘ri tushunib, yetkazib bera olishga yordam beradi. 4-5 yoshdagi maktabgacha ta’lim bolalarining qobiliyatlaridan qat’iy nazar, maktab ta’lim oluvchisi yoki rassomning natura bilan ishlashiga nisbatan qaraganda, bolalarning tasvirlangan ob’ektni tahlil qilishlari, shu natura bilan ishlashlarining o‘ziga xos farqi bor. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar uchun sodda shaklli, aniq chizmali bo‘lishi kerak. Masalan: bolalar mashinani yon tomonidan, qo‘g‘irchoqni oldidan chizadilar va bunda hajmini yetkazib berolmaydilar. Agar guruhda bolalar soni ko‘p bo‘lsa, barchasiga teng ko‘rinishi uchun 2-3 ta bir xil predmet qo‘yiladi. Tarbiyachi naturani bolalar bilan birgalikda qismlarga ajratib ko‘rib chiqadi, bunda u tahlil jarayonini osonlashtirib, o‘z so‘zlari, harakatlari bilan yo‘naltiradi. Bu jarayoni ma’lum bir idrok madaniyatini, rivojlangan analitik fikr yuritishni talab qiladi. Bunday ko‘nikmalar bolalarda 5-6 yoshda rivojlana boshlaydi. Bu yoshda bolalar tasvirlayotgan ishlarini naturaga nisbatan taqqoslashga urinadilar. Masalan: katta guruhda naturadagi archa shoxlarini tasvirlayotganda, bolalar shoxni fazoda joylashtiradilar (vertikal yoki qiya holatda) va shoxdagi shoxchalarning sonini, o‘lchamlarini chap va o‘ng tomondan, to‘q yoki och rang bilan chizadilar. Natura sifatida tirik qushlar, hayvonlardan foydalanish mumkin emas. Ularning harakatlari, tovushlari bolalarni rasm chizishdan chalg‘itadi, bolalarning predmetni kerakli holatda idrok

qilishlariga, diqqatlarini bir nuqtaga qaratishga halaqit beradi. Shunday qilib, o‘rgatish metodi sifatida naturadan foydalanish tasvirlashning butun jarayonini o‘z ichiga mujassamlashtiradi:

predmetining birlamchi tahlili;

tasvirni naturaga nisbatan taqqoslash;

natijaning shaklini, holatini, rangini taqqoslash;

natijadagi rasm va naturani taqqoslash yo‘li bilan baholash.

Faoliyatda predmetlarni ko‘rib chiqish. Kichik va o‘rta guruhlarda ko‘pincha mashg‘ulot boshida alohida predmetlar ko‘rsatiladi. Bolalar diqqatini topshiriqqa qaratish va tasavvurlarini jonlantirish maqsadida bolalarga koptok, lenta (tasma), belkurak va shu kabilar ko‘rsatiladi. Faoliyatning qolgan vaqti mobaynida esa, bolalar o‘z tasavvurlari asosida chizadilar. Ular rasmlarini ko‘rgan predmetlariga nisbatan taqqoslay olmaydilar va predmetlarni idrok qilishlariga qaytib murojat qilmaydilar. Katta guruhda ham predmetlarni ko‘rib chiqish uchun imkon bo‘ladi. Masalan: ―Uch ayiq‖ ertagi mavzusi bo‘yicha rasm chizishdan yoki buyum yasashdan avval, tarbiyachi bolalarga o‘yinchoq ayiqni ko‘rib chiqishni, predmet shaklining asosiy xususiyatlarini va ayrim qismlarning proporsiya nisbatlarini aniqlashni, so‘ng predmetning burilishiga nisbatan shu ayrim qismlarning o‘zgarishini kuzatishni taklif qiladi. Bolalar rasm chizishda ertakning qaysi epizodini tanlasalar, ayiqni ham shu epizodga nisbatan mos holatda tasvirlaydilar.

Namunadan foydalanish. Namunadan foydalanish ko‘proq o‘rgatish usuliga taalluqlidir. Bolalarning umumiy estetik didlarini oshirish uchun chiroyli predmetlarni tomosha qildirish kerak. Masalan: gilamlar, vazalar, kashtachilik va hokazo. Dekorativ rasm chizish mashg‘ulotlarida bolalar ko‘rgan predmetlarini aks ettirib, ulardagi naqshlarni qayta chizibgina qolmay, balki mustaqil ravishda naqshlarni aks ettirib, yorqin rang va shakllarni moslashtirib chizishni ham o‘rganadilar. Shuning uchun boshlang‘ich bosqichda bolalar namunadan naqsh elementlarini chizib oladilar, keyinchalik elementlarni o‘rnini va rangini o‘zgartirib boradilar. Bolalar ma’lum bir malakaga ega bo‘lganlaridan keyin, bir necha xil namunalarni bolalar ixtiyoriga ko‘rsatish mumkin. Ba’zi mashg‘ulotlarda tarbiyachi namunani qo‘yadi va bolalar ko‘rib chiqib, tanishib, tarbiyachining ko‘rsatmasisiz mustaqil ravishda ishlaydilar. Predmetli rasm chizish yoki buyum yasashda namuna ko‘chirib olish uchun emas, balki tasvirlanayotgan predmet haqidagi tasavvurni aniqlash uchun qo‘yiladi.

Rasmlardan foydalanish. Rasmlar asosan bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini aniqlash uchun va tasviriy usullar, vositalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. Pedagog va psixologlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, 2 yoshdagi bolalar rasmni predmet tasviri sifatida tushunib yetadilar. Lekin rasmdagi

qahramonlarning o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ya’ni harakatlarni tushunish kechroq, 4-5 yoshlarda yuzaga keladi. Masalan: 2 yoshli bola rasmdagi hayvonlarni «turibdi» deydi, 4-5 yoshligisi esa «gapiryapti», «yuryapti», «kelyapti» va hokazo deydi. Bolalarning kuzatishlari ko‘pincha qisqa muddatli bo‘ladi (masalan: shahar sharoitida hayvonlarni kuzatish).

Shuning uchun rasmlardan foydalanish qayta idrok qilishga va keyingi tasvir uchun xarakterli bo‘lgan eng asosiysini aniqlashga yordam beradi. Rasmlar ana shunday sharoitlarda kerak bo‘ladi: kerakli predmet qo‘l ostida yo‘q paytida, yoki bo‘lmasa tekislikda tasvirlashning ayrim usullari bilan tanishtirish uchun xizmat qiladi. Masalan: tarbiyachi bolalarga uzoqlashgan predmetni tushuntirish uchun rasmni ko‘rsatadi. Hayotda bolalar shu uzoqdagi predmetlarni bir chiziqda joylashgan deb idrok qilsalar, rasmda tarbiyachi perdmetlarni uzoqlashganini ko‘rsatib, tushuntirib beradi, 6 yoshdan boshlab shu maqsad bilan rasmdan foydalanish mumkin. Rasmni ko‘ra turib, bola yerni bir chiziq bilan emas, balki keng yer bo‘lagi bilan chizishni, uzoqlashayotgan predmetlar yuqoriroqda, yaqindagilari pastroqda va qog‘oz chetiga joylashishini tushunib yetadi. Rasm Faoliyat davomida bolalar oldida qoldirilsa, bolalar tushunib yetmay nusxa ko‘chirishga o‘rganib qoladilar. Bu yoshda esa, bolalar nusxa ko‘chirish bilan emas, balki ijod bilan rasm chizishlari kerak. Ba’zida faoliyat davomida bolalarga ayrim qismlarni aniqlab olish uchun rasmni ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Keyin esa rasm olib qo‘yiladi, chunki bolalar nusxa ko‘chira boshlaydilar.

Tarbiyachi tomonidan ishlash usulini ko‘rsatib berish. Maktabgacha ta’lim tashkilotda ta’lim jarayonida bolalar o‘rganishi kerak bo‘lgan tasvirlash ko‘nikma va malakalarni o‘lchamini aniqlab beradi. Keng bo‘lmagan doiradagi malakalarni o‘lchamini aniqlab beradi. Keng bo‘lmagan doiradagi malakaga ega bo‘lgan bola turli xil predmetlarni tasvirlay oladi. Masalan, uyni chizish uchun to‘g‘ri to‘rtburchak shaklini chizishni bilish, ya’ni chiziqlarni to‘g‘ri burchak ostida birlashtirishni bilish kerak. Ana shu chizish usullari mashina, poezd va boshqa to‘g‘ri to‘rtburchakli predmetlarni chizishda qo‘llaniladi. Tarbiyachi tasvirlash vositalarini ko‘rsatib berishi ko‘rgazmali amaliy usul bo‘lib, bu usul bolalarni kerakli shaklni aniq tajriba asosida ongli ravishda chizishga o‘rgatadi. Ko‘rsatma 2 xil turda bo‘ladi:

imo-ishora bilan ko‘rsatish;

chizish usuli bilan ko‘rsatish.

Har ikkala turda ham ko‘rsatma og‘zaki tushuntirish yo‘li bilan olib boriladi. Imo-ishora bilan predmetning qog‘ozda joylashishi tushuntiriladi. Qo‘lning yoki qalamchaning qog‘oz bo‘ylab harakatni, hatto 3- 4 yoshli bolalar uchun yetarli bo‘ladi. Imo-ishora orqali bola xotirasidagi qiyin bo‘lmagan predmetning asosiy shaklini yoki uning alohida qismlarini eslaydi. Bolalar biror predmet yoki hodisani

tarbiyachining qaysi harakat ishorasi orqali idrok qilgan bo‘lsalar, xuddi shu harakat-ishorani tarbiyachi mashg‘ulotda qaytarsa, bolalar ko‘rganlari bilan chizmoqchi bo‘lganlari o‘rtasida aloqadorlikni ongli ravishda sezadilar. Masalan: uy qurilishini bolalar kuzatayotganlarida tarbiyachi qurilayotgan uyning korpus chiziqlarini tepaga qarab qurilayotganligini harakatlari bilan ko‘rsatadi, xuddi shu harakatlarni mashg‘ulot boshida qaytarar ekan, bolalar xotirasidagi ko‘rganlarini qayta esga tushiradi. Ishora bilan bola xotirasidagi predmet shaklini eslashga, hamda chizish mobaynida bolaning qo‘l harakatlarining yo‘nalishi aniqlanadi. Bolaning yoshi qancha kichik bo‘lsa, uni chizishga o‘rgatishda shunchalik qo‘l harakatlarini ishorasini ko‘rsatish muhim rol o‘ynaydi. Kichik guruhdagi bolaning harakatlari yaxshi rivojlanmagan bo‘lsa va bola o‘z harakatlarini boshqara olmasa, tarbiyachi bolaning qo‘lini ushlab, birgalikda harakat bilan chizadi. Bunday ish usuli shu harakatlarni bolaning o‘zi his qilishi uchun qo‘llaniladi. Agarda predmetning shakli murakkab bo‘lmasa, ishora bilan butun predmetni chizish mumkin. Masalan: koptok, kitob yoki olma shaklining qismlarini, archa shoxining joylashishi, qush bo‘ynining qiyaligi. Tarbiyachining ko‘rsatma berishi mashg‘ulotda qanday topshiriq berilishiga bog‘liq. Faoliyatda predmet shaklini to‘g‘ri harakatlari bilan chizib ko‘rsatadi. Bu asosan kichik guruhda o‘tkaziladi. Masalan: bolalarga yumaloq shakldagi predmetlarni chizishni o‘rgatish uchun tarbiyachi koptok yoki olmani, o‘z harakatlarini tushuntirgan holda chizib ko‘rsatadi.

Agar predmetni tasvirlayotganda uning qismlarini aniq ketma- ketlikda chizish kerak bo‘lsa, tarbiyachi predmetni boshidan yakuniga qadar chizib ko‘rsatadi. Faqat bunda bolalarning diqqatini jalb qilish uchun tarbiyachi bolalarga ―Endi nimani chizish kerak?‖ degan savolni beradi. Katta guruhdagi bolalar ko‘pincha qisman ko‘rsatmalar berish o‘rinli bo‘ladi. Bolalar hali chizishni bilmaydigan predmetning biror qismini yoki alohida elementini chizishda ko‘rsatmalar beriladi. Masalan, 4-5 yoshli bolalar daraxtning tanasini uchburchak shaklida, keng asos bilan chizadilar. Bu ko‘pincha tarbiyachining og‘zaki tushuntirishidan kelib chiqadigan kamchilikdir. ―Daraxtning tanasini yuqori qismida tor, quyi qismida esa keng bo‘ladi‖. Og‘zaki aytib berish bilan birga qo‘l harakatlari bilan chizib ko‘rsatish lozim. Katta guruhda esa, ―Chiroyli uy‖ mavzusida bolalar rasm chizayotganlarida, tarbiyachi doskada uyning oyna-eshiklari turli xil shaklda bo‘lishini ko‘rsatib beradi. Bunday ko‘rsatma bolaning rasmini umumiy chizmada hech qanchalik chegaralamaydi. Malakalarni mustahkamlash uchun qaytarilayotgan mashqlarda, so‘ng ulardan mustaqil ravishda foydalanishda ko‘rsatma faqatgina individual ravishda, ma’lum bir ko‘nikmaga ega bo‘lmagan bolalarga beriladi. Doimiy ravishda ko‘rsatma berish bolalarning passivlashishiga, hamda fikrlash jarayonlarini tormozlanishiga olib

keladi. Chunki bolalar tarbiyachining koʻrsatmasini va yordamini kutib, oʻrganib qoladilar. Tarbiyachining koʻrsatmasi yangi texnik usullarni tushuntirishdagina kerak.

Bolalar ishlarini tahlil qilish. Bolalar oʻzlari bajargan yoki doʻstlari bajargan ishni mustaqil ravishda tahlil qilib, baho berishlari 5 yoshga borib toʻla shakllanadi. Kichik guruhdagi bolalar oʻz harakatlarini va ularning natijalarini nazorat qila olmaydilar, shuning uchun ular oʻz ishlarini bajarayotgan vaqtda mamnun boʻlgan boʻlsalar, ularning natijasidan ham mamnun boʻlishi uchun tarbiyachidan maqtov eshitishni kutadilar. Kichik guruhda tarbiyachi bolalarning ishlarini baholayotganda tahlil qilmaydi, balki 4-5 yaxshi bajarilgan ishlarni bolalarga koʻrsatadi. Shu bilan birga qolgan bolalar ishlarini ham maqtaydi chunki maqtov bolalarning ushbu faoliyatga nisbatan qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi. Rasmlarni koʻrsatishning maqsadi esa, bolalarning oʻz ishlarini natijasiga jalb qilishdir. Oʻrta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalarning ishlarini koʻrsatadi va kamchiliklarini aytib oʻtadi. Bolalar kamchiliklarini qanchalik koʻra bilsalar, shunchalik keyingi rasmlarini ongli ravishda chizib boradilar. Faoliyat yakunida tarbiyachi bolalar ishlaridan birini olib, ijobiy tomonlarini koʻrsatadi. Masalan: ―Ranglarini yaxshi tanlaganini-och rang bilan toʻq rang yonma-yonyaxshi koʻrinishi, chiziqlarning ozoda va aniq chizilganligini‖ va hokazo. Agarda kamchiliklar koʻpchilik bolalarda uchrasa, shu kamchilikni bartaraf qilish uchun bolalarga savol beradi va diqqatini qaratadi. Agarda bir bolaning kamchiligi boʻlsa, u holda yakkama-yakka tushuntirish munosibdir, chunki jamoa oldida birgina bolaning ishini tahlil qilish, faqatgina shu bolaning oʻzi uchungina tushunarli boʻladi. Katta guruhda tahlilga barcha bolalarni jalb qilmoq zarur. Baʼzida esa, tarbiyachining oʻzi baho beradi. Masalan: yaxshi chizmaydigan bolaning ishidagi kamchiliklarni boshqa bolalar aytishlarini tarbiyachi oldindan bila turib, oʻzi avval shu bola bajargan ishining ijobiy tomonlarini aytib oʻtadi. Vaqtni tejash maqsadida tarbiyachi 5-6 ta bolaning ishini olib, tahlil qiladi, faqat har faoliyatda bir xil bolalarning ishlarini olib baholash yaramaydi. Chunki doimiy maqtov asosida oʻsha bolalarda haddan tashqari ishonch, boshqalardan ajralib turish rivojlanadi. Oʻta qobiliyatli bolalar bilan ularning layoqatlarini hisobga olgan holda, alohida ish olib boriladi. Baʼzida tarbiyachi tahlil qilish uchun bajarilgan ishlarni bolalarning oʻzlariga topshiradi. Bunda barcha bolalarning ishlari stolga yoyiladi yoki stendga mahkamlanadi va bolalar oʻzlari eng yaxshi bajarilgan ishlarini tanlaydilar. Soʻng tarbiyachi tahlil qiladi. Koʻproq bolalarga (6 yoshda) oʻz ishini naturaga nisbatan oʻzi baholashga imkon berish kerak. Chunki bola oʻz ishiga, hamda doʻstlarining ishlariga tanqidiy tomondan baho berishga oʻrganadi

Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash.

Nazorat savollari

1. Kamalak ranglarini ketma-ketlikda sanab bering?
2. Tasviriy faoliyatda rasm chizishning qanday turlari bor?
3. Predmetli rasm deganda nimani tushunasiz?
4. Tasviriy faoliyat turlarini ayting.
5. Loy ishlari qaysi guruhdan boshlanadi.

2-Mavzu: “San’at” rivojlanish markazida bolalarni rasm ta’limiy faoliyatiga o‘rgatishni takomillashtirish (amaliy 2 soat)

REJA:

1. Turli yosh guruhlarida bolalarni rasm chizishga o‘rgatishni takomillashtirish
2. Oy mavzulari bo‘yicha “San’at” markazi ta’limiy faoliyatini tashkil etish

1.Turli yosh guruhlarida bolalarni rasm chizishga o‘rgatishni takomillashtirish

Bolada ijodiy qobiliyatni shakllantirish – maktabgacha ta’lim hamda zamon talabining dolzarb maqsad va vazifasi. Bu maqsad va vazifalarni bajarishning eng samarali usullaridan biri — tasviriy faoliyatdir. Tasviriy faoliyat maktabgacha yosh bolalarda estetik didni rivojlantirish, tevarak – atrof, borliqni bilish, o‘z his tuyg‘ulari, taasurotlarini grafik va plastik ish shakllari orqali namoyon qilishda muhim o‘rinni egallagan. Maktabgacha ta’lim tizimida «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari»va «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishda yetakchi rol o‘ynaydi. Badiiy tomondan rivojlanish bolalarni badiiy obrazni idrok etish qobiliyati va mustaqil ravishda yangi obraz(rasm, loy bilan ishlash, applikatsiya orqali) yaratishlarida markaziy o‘rinni egallaydi, qaysiki bolalar o‘zlarining noyobligi, turli- tumanligi, egiluvchanligi, harakatchanligi bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta’lim tizimida rasm chizish katta ahamiyatga ega. Rasm chizish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolada kuzatuvchanlik, estetik idrok, badiiy did va ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. “San’at” rivojlanish markazi bolalarga quvonch, hayajon va qoniqish hislarini baxsh etadi. U turli funksiyalarni bajaradi, biroq, eng avvalo, bolalarning ijodkorligi, qiziquvchanligi, tasavvuri va tashabbusiga oziq beradi.Agar bolalarga materiallar bilan tajribalar o‘tkazish, o‘zi uchun yangi narsalarni kashf etish, g‘oyalarni sinab ko‘rish uchun vaqt, imkoniyat va erkinlik berilsa, ularda muvaffaqiyatli o‘qish va ishlash uchun poydevor shakllanadi. Pedagog har bir bolada uning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi, bolalarda badiiy ijodiy tasavvur asosida ijodkorlikni, estetik ongni shakllantirishida tasviriy faoliyat yaxshi vositadir.

Bolalarga rangli qalamlar, qog‘oz, mo‘yqalam, rangli qog‘ozlar, akvarel bo‘yoqlari ko‘rsatiladi. Dastlabki mashg‘ulotda bolalarga rangli qalamlar va ular bilan ishlash usullari haqida tushuncha beriladi. Qalamda to‘g‘ri, og‘ma, qiya, uzuq chiziqlar chizish usullari ko‘rsatiladi.

"Yomg‘irning yog‘ishi" Bu rasmni chizdirishdan maqsad bolalarga qiya ko‘rinish-dagi uzuq-uzuq chiziqlarni chizishni o‘rgatishdir. Buning uchun bolalar qalamni mana bunday ushlab, chiziqlar chizishlari kerak bo‘ladi (Chiziqlarni chizish tartiblari amaliy ravishda ko‘rsatiladi). Mana bu ko‘rgazmali qurol esa bolalarga to‘g‘ri chiziqlar chizish tartibini ko‘rsatishda yordam beradi. (Kattalar ishlagan surat ko‘rsatiladi).

"**Rangli ipchalar chizamiz"** Bu rasm bolalarga ancha uzun bo‘lgan chiziqlarni tepadan pastga qarata chizishni o‘rgatishda juda qo‘l keladi. Bunda ham karton qog‘oziga to‘g‘ri chiziq tarzida tikib chiqilgan iplardan foydalaniladi. Bolalarga ip sirtidan barmoqlarini yurgizib, uning qanchalik to‘g‘ri chiziq ekanligini sinab ko‘rish taklif etiladi. So‘ng, qalamda to‘g‘ri chiziqlarni chizish tartibi ko‘rsatiladi. Karton qog‘ozidan tayyorlangan ko‘rgazmali qurol namoyish etiladi.

"Rangli qalamchalarni chizamiz" Bu rasmni chizish jarayonida bolalar tepadan pastga qarata to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazishni o‘rganadilar. Bu rasmni ishlashda akvarel bo‘yog‘idan foydalanish usullari bolalarga amaliy ravishda ko‘rsatiladi. Bolalar bilan qalamlarni diqqat bilan ko‘rib chiqamiz. So‘ng, uning tasvirini ishlash tartibini amaliy tarzda ko‘rsatamiz. Bu rasmlarni ishlashda to‘rt xil rang tusidagi guash bo‘yog‘idan foydalangan ma’qul. (Rangli guashda ishlangan qalamchalar rasmi ko‘rsatiladi).

"Yo‘l — yo‘l ko‘rinishdagi gilamcha" Bu topshi-riqni bajarish jarayonida bolalar chapdan o‘ngga qarata chiziqlar o‘tkazishni o‘rganadilar. Bunda mo‘yqalamning mo‘yna qismini qog‘oz yuzasiga bosib izini tushirish orqali yo‘g‘on va ingichka chiziqlar o‘tkazish yuzasidan tajribalar hosil qilinadi. Bolalarga mashg‘ulot jarayonida mo‘yqalamni suvda yuvib turish kerakligi ham eslatib turiladi.

"Kuzgi barglarning uchishi" Bu topshiriqni bajarish jarayonida bolalarga mo‘yqalam bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri barglar rasmini tasvirlash o‘rgatiladi.Bunda bolalar sariq, qizg‘ish, och yashil ranglar yordamida havoda uchib yurgan barglar tasvirini mo‘yqalamning butun mo‘yna qismini bosish orqali tushiradilar. Bir burchagida daraxt shoxchasi tasvirlangan qog‘oz sirtida uchib yurgan barglarning rasmlarini chizish amaliy ravishda ko‘rsatiladi.

"Rangli iplarni o‘raymiz" Bolalar to‘g‘ri chiziqlarni chizishdan tashqari dumaloq ko‘rinishdagi halqachalarni chizish bilan ham shug‘ullanishlari kerak.Bunda rangli qalamlarni aylanma harakatlantirish orqali rangli iplar o‘ramini

chizdirish kerak.Shuningdek, bolalar halqachalarni chizishdan tashqari iplarni koptoksimon qilib o‘rash kerakligi haqida ham tushunchaga ega bo‘ladilar. Bu rasmni chizish jarayoni ham amaliy ravishda ko‘rsatiladi.

"Teshikkulcha" Bu rasmni chizdirishdan maqsadbolalarga doira ko‘rinishidagi narsalarni tasvirlashni o‘rgatishdir. Bunda bolalar dastlab bitta halqa chizib oladilar va uning o‘rtasidan kichikroq ikkinchi halqacha rasmini chizadilar. Natijada ikki chiziqli teshikkulcha rasmi tayyor bo‘ladi. Endi ana shu chiziqlar orasini bo‘yab chiqish mumkin. Teshikkulcha rasmini chizish tartibi amaliy ravishda ko‘rsatiladi.

"Olmalar katta va kichik bo‘ladi" Bolalar dumaloq ko‘rinishdagi narsalarning rasmlarini chizishni o‘rganganlaridan so‘ng, olmaning katta va kichik ko‘rinishlarini tasvirlashga o‘tamiz. Bunda bolalar o‘zlari o‘rganganlari yordamida qiziqarliroq bo‘lgan narsalarni tasvirlashni o‘rganadilar. Bolalarga katta va kichik olmalarning rasmlarini chizish tartibi amaliy ravishda ko‘rsatiladi.

"Manzara rasmini chizamiz" Bolalar to‘g‘ri va qiya chiziqlarni chizishni o‘zlashtirib bo‘lganlaridan so‘ng, ikkita qalam yordamida yo‘l, haydalgan yerlar rasmini ham chizishni o‘rganadilar. Bunda ikkita qalam bir qo‘l bilan ushlanadi va qog‘oz sirtida yurgiziladi.

Bo‘yoqlar bilan rasm chizish imkoniyatiga bolalar birinchi haftadan boshlab har kuni ega bo‘lishlari zarur. Birdaniga uchta asosiy rangni berish mumkin, ammo ba’zilar ularni bitta-bittadan, orada bir-ikki kunni o‘tkazgan holda qizil bo‘yoqni, keyin ko‘k va so‘ngra sariq bo‘yoqni berish mumkin. Keyinchalik bolalar boshqa ranglarni hosil qilishi uchun ana shu uchta rangdan foydalanishlari mumkin. Undan ham keyinroq yil davomida oq choyshabga xos tusni hosil qilish uchun oq bo‘yoqni xam qo‘shimcha qilish mumkin.Vaqt o‘tishi bilan ayrim yangi elementlarni kiritish mumkin (masalan, bolalarga qog‘ozdan qirqib yasalgan doiralarda rasm chizishni taklif etish). Xilma-xillik bo‘lishi uchun quyidagilar yordamida rasm chizib ko‘rish mumkin:

kichik cho‘tkachalar bilan;

eski tish cho‘tkalari bilan;

pulverizatorlar bilan;

Bolalarning ijodga va tajriba o‘tkazishga qiziqishida deyarli hamma narsa motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi. Ayrim bolalar tabiatan juda topqir bo‘ladilar, ayni paytda boshqalar o‘z-o‘zini ijodiy namoyon etishi jarayonida biroz noqulay sezadilar. Tarbiyachilar bolalarning san’atga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishi uchun ularga ko‘plab predmetlar, g‘oyalar va omillarni taqdim etadilar.

2.Oy mavzulari bo‘yicha “San’at” markazi ta’limiy faoliyatini tashkil etish

Tarbiyachi quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

-bolalar koʻrishlari va u xaqda suhbatlashishlari uchun guruhga sanat asarini olib kelishi;

-xonaga mashhur san’at asarlarining nusxalarini qoʻyib qoʻyishi;

-bolalar kitoblarida berilgan san’at asarlarini muhokama qilishi;

-bolalar kitoblarida berilgan mazmunli rasmlarni muhokama qilishi;

-buyum, narsalarni muhokama qilish mumkin.

“San’at” markazi bolalarning san’at bilan shugʻullanishiga boʻlgan qiziqishlarini qoʻllab quvvatlash uchun nima qilish “kerak” va nimalarni qilish “mumkin emas”ligini bilish lozim. “San’at” markazi bolalarning san’at bilan shugʻullanishiga boʻlgan qiziqishlarini qoʻllab quvvatlash uchun nima qilish kerak:

-Har bir bolani uning bemalol ishlashi va boshqa bolalar unga xalaqit bermasligi uchun yetarli maydon bilan ta’minlash.

-Ranglarning tanlab olinishini, bir nechta bolalar bir-birlaridan mustaqil ravishda ishlay olishlari uchun yetarli miqdorda materiallar boʻlishini va tanlab olinadigan predmetlarning xilma-xilligini ta’minlash.

-Yakka yondashuvga muhtoj boʻlgan bola bilan yonma-yon oʻtirish. Unga muntazam ravishda oʻz e’tiboringiz va qiziqishingizni bildirish.

-Ish paytida barcha bolalarga e’tibor berish va ularning kuch-gʻayratlarini ma’qullashingizni koʻrsating (tabassum qilish, yelkasiga qoqib qoʻyish, rang, chiziq yoki gazlama kombinatsiyasi xususida izoh berish.

Bolaga "Sen zoʻr ishlading" deyish ham mumkin, biroq bu soʻzlar samimiy boʻlishi lozim).Bolalarning ishlarini adolatli va haqqoniy tahlil qilish. Esda tuting, sizning qoʻl harakatlaringiz va soʻzlash ohangingiz aytayotgan soʻzlaringazga mos boʻlmasligi mumkin. Shu sababli, agar bir narsa haqida u chiroyli, deb oʻylamayotgan boʻlsangiz, bu fikrni aytmang.

“Ilk qadam” dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “San’at” rivojlanish markaziga qoʻyiladigan talablar.

Eng avvalo bolaning salomatligini saqlash omillari: toza havo, toza joy, normal harorat va yorugʻlik bilan ta’minlanadigan xona.

Markazdagi barcha jihoz va qoʻllanmalar bolaning boʻyi yetadigan balandlikda boʻlishi hamda bola ulardan bemalol foydalana oladigan boʻlishi kerak.

Bolalar oʻrtasida hamkorlik va muloqotni ragʻbatlantirish (kichik guruhlar, juft boʻlib va oʻyin oʻynashlariga sharoit yaratilgan boʻlishi kerak.)

Bolalarda tashkilotga tegishlilik, xavfsizlik va erkinlik hissini shakllantirish

Markazda bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan qismlarga boʻlish va u yerda bola uchun kerakli va qiziqarli ashyolar, jihozlar, oʻyinchoqlar, konstruksiyalar, belgilar, rasmli-sxemalar, soʻzlar va h.k boʻlishi shart

Mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to‘siq bo‘lmaydigan qilib joylashtirilgan bo‘lishi, bola o‘ziga tegishli mebelni bemalol harakatlantira olishi shart.

Markazdagi rivojlanish muhit tarbiyachilarga ham, bolalarga ham qulay bo‘lishi kerak.

Bolaga erkin tanlash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash(Bo‘yoq bilan ishlash, applikatsiya,loy,tuzli xamir)

O‘z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish.

Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash.

Nazorat savollari

1. Asosiy ranglarini ketma-ketlikda sanab bering?
2. Natyurmort so‘zining ma’nosi?
3. Badiiy rasm deganda nimani tushunasiz?
4. Tasviriy san’at turlarini ayting.
5. Aplikatsiya qaysi guruhdan boshlanadi.

3–Mavzu: “San’at” rivojlanish markazida bolalarni noananaviy rasm chizishga o‘rgatishni takomillashtirish. (amaliy 2 soat)

Reja:

1. Turli yosh guruhlarida noananaviy rasm chizish usullari.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni barglar, sanchqi, quloq cho‘plar, gupkalar, barmoqlar va boshqa vositalarda rasm chizishga o‘rgatish

1.Turli yosh guruhlarida noananaviy rasm chizish usullari.

Bolalikda oddiy, asosiy rasm chizish unchalik qiziq emas. Yosh rassomlar o‘zgacha narsa yaratmoqchi. Bolaga noan’anaviy chizish texnikasini ko‘rsatish ancha qiziqarli.Ko‘plab noan’anaviy chizish texnikasi mavjud. Ularning g‘ayrioddiyligi shundaki, ular bolalarga kerakli natijaga tezda erishishga imkon beradi. An’anaviy bo‘lmagan rasm — bu an’anaga tayanmasdan chizish san’ati. Bolaga noan’anaviy chizish texnikalar bilan rasm chizish estetik tarbiyaning eng muhim masalasidir.Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng qiziqarlilaridan biridir: u chuqur hayajonga solidi. Bu qulaylik muhitini yaratadigan noan’anaviy chizish texnikasi,ochiqlik, erkinlik, bolalarning tashabbuskorligini, mustaqilligini rivojlantirishga hissa qo‘shish,faoliyatga hissiy ijobiy munosabatni shakllantiradi. Noan’anaviy materiallar va usullardan foydalangan holda tasviriy faoliyat bolalarda mayda qo‘l motorikasini,ijodiy rivojlanish, estetik did va nafosat tarbiyasini,o‘z ishini baholash va badiiy ijodiy qobiliyatni shakllantiradi

Bolada ijodiy qobiliyatni shakllantirish – maktabgacha ta’lim hamda zamon talabining dolzarb maqsad va vazifasi. Bu maqsad va vazifalarni bajarishning

eng samarali usullaridan biri — tasviriy faoliyatdir. Tasviriy faoliyat maktabgacha yosh bolalarda estetik didni rivojlantirish, tevarak – atrof, borliqni bilish, o‘z his tuyg‘ulari, taasurotlarini grafik va plastik ish shakllari orqali namoyon qilishda muhim o‘rinni egallagan. Maktabgacha ta’lim tizimida «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishda yetakchi rol o‘ynaydi. 6-7 yoshli bolalarni “Uy hayvonlari” mavzusida rasm chizishga o‘rgatishda trafaretlardan tayyorlash (trafaret) tasvirlashni tashkil etish pedagogik faoliyatini sifatli va samarali o‘tishini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa kelgusida o‘sib kelayotgan yosh avlodni ekologik ta’limini shakllantirishga Hamda badiiy–ijodiy qobiliyatlarni bo‘lgan mehrini yanada yuksaltiradi. Trafaretlar rangli yoki A-4 formatidagi qog‘ozda tartib bilan berilgan faoliyat tezisi va jarayon uchun foto-rasmlar to‘plamidan iborat tarqatmalar kerakli kartochkalar bilan to‘ldiriladi . Rasmlar to‘plamini saqlash uchun A-4 o‘lchamdagi fayl jildi, kartonli yig‘ma jildga solinadi. “Uy hayvonlari” shakli kesiladi va rang bilan belgilanadi



5-7 yoshli bolalarni "Minoralar" mavzusida rangli albom (rasmlar to‘plam) faoliyati bilan yaqindan tanishishga yordam beradi.Rasmlar to‘plami “San’at” rivojlanish markazida 5-7 yoshli bolalarni "Minoralar" mavzusida rasm chizishga o‘rgatish (rasmlar to‘plam)-bu to‘plam bolalarda "Minoralar" tuzilishi, shakli, foydasi haqida ma’lumot beradi .Bolalar har bir minorani rasm asosida ajratadilar.

Rasm: Registon maydoni

Maqsad: bolalar suratni qog‘ozning bor hajmiga joylashtirib chiza oladilar, akvarel bo‘yog‘i va mo‘yqalamdan foydalanishni biladilar, mo‘yqalamning uchi bilan vertikal va turli yo‘nalishda erkin harakatlantirish malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: suv uchun stakan, mo‘yqalam, buyoq, sochiqcha, qog‘oz, AKT

Faoliyatning borishi:

1. Registon maydonining suratlarini tomosha qilish (AKT yordamida)
2. Rasm chizish tartibini kuzatish.
3. Bolalarning ijodiy faoliyati.
4. Bolalar ishlarining ko‘rgazmasi.
5. Faoliyatni yakunlash.

Qo’shimcha qism: sharq arxitekturasi albomini tomosha qilish.

E’tiborga molik jihati: suratni qog‘ozning bor hajmiga joylashtirishga rioya etish.




1
2
3
4
5
6



Tarelkachani milliy naqsh bilan bezash.

Maqsad: bolalar qaychi bilan to‘g‘ri ishlaydilar, qog‘ozdan naqsh qirqa oladilar, turli xildagi kompazitsiyalarni tuzadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: namuna, qurish yasash markazida tayyorlangan tarelkochalar, milliy naqsh tasviri tushirilgan rasmlar, oq va rangli qog‘ozlar, qaychi, yelim, flomasterlar, salfetkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar milliy naqsh tasviri tushirilgan rasmlarni tomosha qilishadi. O‘z tarelkalari uchun naqsh tanlashadi.
2. Ishni bolalar tomonidan bajarilishi.
3. Bolalar bir- birlariga ishlarini ko‘rsatishadi.

Qo‘shimcha: o‘zining naqshini o‘ylab topish va qog‘ozda tasvirlash.

E’tiborga molik jihati: bolalaning ijodiy taffakurini rivojlanishi, ketma — ketlik.

Choynak

Maqsad: bolalar qisimlarni tasvirlagan holda loydan yasaydilar, yog‘och qalam yordamida zarur elementlarni chizadiar, loy ish usullarini qo‘llaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: loy (plastilin), ishning bajarilish karta-sxemasi.

Faoliyatning borishi:

1. Ishning bajarilish bosqichlarini ko‘rib chiqish.
2. Materialni tanlash (bir xil rang yoki uyg‘un ranglar, bola tanlashiga qarab).
3. Ishning bolalar tomonidan bajarilishi.

Qo‘shimcha :ko‘shimcha ravishda piyola yasash, choy servisini yig‘ish.

E’tiborga molik jihati: texnik malakalarining shakllanishi va loy (plastilin) bilan ishlay olishi.



2.Maktabgacha yoshdagi bolalarni barglar, sanchqi, quloq cho‘plar, gupkalar, barmoqlar va boshqa vositalarda rasm chizishga o‘rgatish

Monotip qog‘oz varag‘iga rangli dog‘ni yarmiga buklanganda bosib chiqarish yoki palitradagi rangli dog‘larga varaq qo‘yish orqali olinadi.Monotip — bu grafik

texnika. Yunon tilidan tarjima qilingan "monotip" — bitta nashr degan ma’noni anglatadi. Chizma avval tekis va silliq yuzaga qo‘llaniladi, so‘ngra boshqa yuzaga bosiladi. Qanchadan-qancha bosma nashrlar chiqarmaylik, har safar u yangi, noyob nashr bo‘ladi. Monotip — san’atning eng keng tarqalgan turlaridan biri. Ushbu texnikaning yana bir nomi aquatype. Unda yaratilgan asarlar nafis ko‘rinadi, silliq, yumshoq rang o‘tishlari va turli xil shakllarga ega. G‘ayrioddiy texnika shundan iboratki, uni yakunlash uchun siz o‘zingizning fantaziyalaringizni silliq qog‘ozda tasvirlashingiz kerak, so‘ngra chizilgan rasmni ikkinchi varaqda chop etishingiz kerak. Har bir yangi nashrda asar boshqacha ko‘rinishga ega bo‘ladi va yosh rassomlar buni qadrlashadi.

Barmoqografiya. Barmoq uchlarini bo‘yash ko‘pincha chaqaloqlar uchun mashg‘ulot sifatida qaraladi. Haqiqatan ham, kırıntılar bo‘yoqni surtishni yaxshi ko‘radilar. Ammo bu chizish texnikasi katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ham mos keladi.

Kaft bilan chizish.Hayotning ettinchi yilidagi bolalar uchun faqat o‘z qo‘llari bilan chizish qiziq bo‘lmasligi mumkin. Tayyorlov guruhidagi ideal vazifa — bu kaft iziga asoslangan rasmni o‘ylab topish va uni syujet tarkibiga kiritish.Barmoqlarni bo‘yash terapevtik ta’sirga ega. Barmoqlarni qog‘ozga tegizish, chiziqlar va nuqtalarni chizish tinchlantiruvchi harakatlardir.

Erkin nafas — bu juda mashhur noan’anaviy chizish texnikasi. Ushbu texnikada rasm chizish uchun siz varaqni suyuq bo‘yoq bilan to‘ldirishingiz kerak va rasmni turli yo‘nalishlarda puflash uchun naychadan foydalaning. Somon sifatida siz sharbat tayoqchasi yoki qalam qutisidan foydalanishingiz mumkin. Nafas yordamida siz ham ma’lum narsalarni, ham shunchaki chiroyli naqshlarni chizishingiz mumkin.Suyuq bo‘yoqlar ho‘l yoki quruq qog‘ozga erkin quyiladi, puflash yordamida quyiladi.Ilgari qog‘ozga qo‘llaniladigan suyuq bo‘yoqda erkin puflash (Blotografiya) turli yo‘nalishlarda puflanishi mumkin. O‘z-o‘zidan shakllarni olish uchun bola har qanday somon(tayyoqcha, naycha)dan foydalanishi mumkin, masalan, sharikli qalamning bo‘sh tanasi.So‘nggi yillarda puflash yordamida rasm chizish misli ko‘rilmagan mashhurlikka erishmoqda. Axir, ushbu chizish texnikasi tufayli ijodiy tasavvur jadal rivojlanmoqda. Oddiy dog‘dan biror tasvirni, narsalarni o‘rganish mumkindek tuyuladimi? Darhaqiqat, tasodifiy qilingan bo‘yoq tasviri joyi noyob, takrorlanmaydigan shakl va o‘lchamga ega. Ozgina tasavvurni qo‘llasangiz, unda odatiy puflash yordamida ob’ektning konturi berilishi yoki qiziqarli tasvirni yaratish mumkin.

Sovun pufakchalari bilan chizish ijodiy tasavvurni yaxshilaydi, bir-biriga o‘xshamaydigan narsalar orasidagi o‘xshashlikni ko‘rishga yordam beradi. Ushbu uslub har qanday uy-ro‘zg‘or buyumlari mo‘’jizalar yaratishi mumkinligiga yorqin misoldir. Idishga bir oz shampun va suv quying va boladan shampunni

somon(naycha) orqali puflashni so‘rang. Sovun pufakchasini chizish juda estetik va qiziqarli texnikadir. Ko‘pikli sovun sizga hajmli va qiziqarli bezak yasashga imkon beradi.

Grattaj - qalam yoki o‘tkir asbob bilan siyoh bilan to‘ldirilgan qog‘oz yoki kartonni chizish orqali rasm chizish usuli. Texnikaning yana bir nomi — mumlash. Chizish texnikasi yordamida bajarilgan ishlar chizmaning oq chiziqlari va qora fonning kontrasti bilan ajralib turadi va yog‘och yoki linogravyuraga o‘xshaydi. Grattaj — bu usul biz o‘rganib qolgan gravyuraga o‘xshaydi. Fransuzcha grater so‘zi tirnamoq degan ma’noni anglatadi. U qoplamaning yuqori qatlamini chizish orqali amalga oshiriladi. Uni qalin guash yordamida tasvirni tayyorlanish mumkin. Qalin qog‘oz varag‘ini sham bilan ishqalang yoki mumli qalam bilan soya qiling va bir necha qatlamli bo‘yoq bilan yoping. Quritgandan so‘ng, tish pastasi bilan naqshni chizish bilan ishlashga o‘ting. Ushbu usul qo‘llarning nozik motorli ko‘nikmalarini va qo‘l barmoq motorikasini rivojlantiradi.

Frottaj — Ushbu texnikaning nomi frantsuzcha "frottage" (ishqalanish) so‘zidan kelib chiqqan. Ushbu texnikada chizish uchun sizga tekis relef ob’ektida joylashgan qog‘oz varag‘i kerak bo‘ladi. Keyin, qog‘oz yuzasida, o‘tkir bo‘lmagan rangli yoki oddiy qalam bilan lyuklashni boshlashingiz kerak. Natijada asosiy to‘qimalarga taqlid qiluvchi taassurot paydo bo‘ladi. Frottaj — bu juda qiziqarli va juda oson texnika. Uni bajarish uchun sizga tekis relef ob’ekti kerak bo‘ladi, masalan, tanga. Uni qog‘oz varag‘i ostiga qo‘ying va qalam bilan ustidan chizing. Natijada, siz ob’ektdan o‘tkazilgan naqsh olasiz. Texnikada tangalardan tashqari, tomirli barglar, naqshli mahsulotlar va boshqa ko‘p narsalar qo‘llaniladi. Shunchaki tasavvuringizni ishga soling!

Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash.
Nazorat savollari

1. Noan’anaviy rasm –monotop, grattaj, barmoq bilan chizish haqida aytib bering?
2. Animalistik janrni ma’nosi?
3. Badiiy rasm deganda nimani tushunasiz?
4. Suv bo‘yoq turlarini ayting?.
5. Aplikatsiya qaysi guruhdan boshlanadi.

4-Mavzu: “San’at” rivojlanish markazida bolalarni applikatsiya ishiga o‘rgatishni takomillashtirish (amaliy 2 soat)

1. Applikatsiya turlari.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni yassi va hajmli applikatsiya ishiga o‘rgatish.

1. Applikatsiya turlari.

Applikatsiya faoliyati bolalarning har tomonlama oʻsishida katta ahamiyatga ega. U bolalardagi xayolni, fantaziyani uygʻotadi, ijodinit tugʻdiradi, kuzatuvchanligini faollashtiradi, diqqat va tasavvurini, irodasini tarbiyalaydi. Qoʻl malakasini rivojlantiradi, shaklni sezishni, moʻljallay olish, rang sezish hissini rivojlantiradi.Olimlar fikricha, insonlar eng kuchli rang sezishda 1300 xil rangni ajrata oladilar. Rang sezishni oʻstirish orqali bolalarda estetik tarbiya qobiliyati tarbiyalanadi. Qirqish texnologiyasini egallagan holda qogʻozdan predmetli, mazmunli, dekorativ applikatsiya, quritilgan oʻsimlikdan, somondan applikatsiya kabi ishlarni bajaradilar.

Applikatsiya (lotincha: *applicatio* — yopishtirish) — gazlama, qogʻoz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, qogʻoz boʻlaklarini tikish yoki yopishtirish yoʻli bilan naqsh ishlash, bezash. Shu usulda yasalgan gul, tasvir ham Applikatsiya deb ataladi. Applikatsiya tasviriy faoliyatning bir turi. Applikatsiyada ishlatiladigan ashyo oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. Qogʻoz, somon, quritilgan oʻsimlik oʻramga joylashtirilib, turli xil yelim bilan yelimlanadi. Mato, charm, jun, paxmoq kabilarga esa tiqiladi. Applikatsiya bir xil rangli yoki koʻp rangli boʻladi. Bir xil applikatsiya grafik tus bersa, koʻp ranglisi esa goʻzallik baxsh etadi. Unda ham, bunda ham badiiylik boʻladi. Applikatsiyada chamalash va buyumning hajmiy tasviri xarakterli boʻladi. Applikatsiya oʻziga xosligi katta doirachalardan iborat.

Rang applikatsiyani ifodalash darajasini oshiruvchi vositadir. Shuning uchun applikatsiya ishida ranglarning uygʻunlashuviga mos tushishi xayoliy va dekorativ kompozitsiyaning ifodaliligi garmoniyasini izlab topishdir. Applikatsiya bolalarda qogʻozda kompozitsion uquvni bilishga sharoit yaratadi. Bola tayyorlagan applikatsiya ishi estetik talabga javob berishi kerak. Applikatsiya predmetning umumiy, tipik va individual belgisini koʻra olishga oʻrgatadi, ularning oʻzaro bogʻliqligi, butun, qismlar, rita, simmetiik chamalash rivojlanadi, predmetning shaklini, rangini bosqichma-bosqich koʻrsatish malakasini koʻrsata oladi. Applikatsiya badiiy ishlarni oddiy va mos vosita orqali, real asosni saqlagan holda amalga oshiruvchi faoliyatdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bezatish ishlarida ham bolalar applikatsiya ishlarining oʻrni katta.

Applikatsiya ishini bajarishda ishlatiladigan kerakli asbob uskunalar. Asboblar ishlatilishiga mos boʻlishi bilan birga, estetik talabga javob berishi kerak. Ayrim kerakli ashyoni «pape-mame» usulida qaychi qoʻyish uchun qalamdon yasash, moʻyqalam qoʻygichni esa qalin kartondan yasash mumkin. Applikatsiya uchun kerakli ashyo murakkab emas; qaychi, yelim uchun moʻyqalam, oddiy qalam, qiyqim uchun quticha, lattacha, gazeta qogʻozi.

Qaychi — uchi to‘g‘ri, katta-kichik bo‘lib, katta qaychi — 14-20 sm, to‘g‘ri, uchi uchli va aylanaviy katta tasvirlarni qirqish uchun ishlatiladi. **Kichik qaychi** - 8-10 sm, mayda detallarni qirqish uchun qaychi o‘tkir bo‘lishi kerak. Stakanga qaychi uchi pastga qaratilgan holda qo‘yilishi, boshqa odamga uzatganda ham uchini ushlagan holda uzatish kerak, qaychi ko‘ndalang turganda qo‘lni silkitish, o‘qtalish mumkin emas. Unda ko‘rsatish sifatida foydalanish mumkin emas.

Yelim uchun mo‘yqalam. Masalan, 2-3 ta mo‘yqalamga ega bo‘lish kerak. Mo‘yqalam applikatsiya mazmunining katta-kichikligiga bog‘liq. Katta hajmdagi applikatsiyaga uchi enli mo‘yqalam, mayda detallarga esa, kichik mo‘yqalamdan foydalanish maqsadga muvofiq. Ish tugagandan so‘ng, mo‘yqalamni yaxshilab yuvib, artib, quritib, mo‘yining tuzilishini saqlash uchun mo‘yini yuqoriga qilib qo‘yish kerak.

Mo‘yqalam qo‘ygich — yelim ishlatishda yelimning ortiqchasi surkalib ketmasligi, stolni iflos qilmasligi uchun ishlatiladi.

Qalam, masalan, tasvir konturini chizish uchun oddiy, M va TM (yumshoq, yarim yumshoq) qalam ishlatiladi. Ular yaxshi ochilgan bo‘lishi lozim. Kontur chizishda ruchka va kimyoviy qalamni ishlatish, mumkin emas.

Yelim uchun plastmassa idishlar, sopol taqsimchalar tanlanadi. Ishlatib bo‘lingandan so‘ng tezda yuvib qo‘yish kerak.

Applikatsiya mavzuli yoki qirqilgan dekorativ shakllarni asosiy fonda, turli predmetlar yordamida badiiy bezash uchun ishlatiladigan xalq amaliy san’atining birturi. Applikatsiyaning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Applikatsiya faoliyati bolaning tasviriy malakalarini shakllantirishga va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi. Applikatsiya o‘z ichiga xayolni, tasvirni, go‘zallikni ko‘ra olish qobiliyatlarini oladi. Applikatsiya faoliyatlaridan olgan malakalarini bolalar boshqa faoliyatda ham qo‘llashlari mumkin. Applikatsiya faoliyatlarini to‘laqonli o‘tkazish uchun material va jihozlarni oldindan tayyorlab qo‘yish muhimdir. Applikatsiyani o‘rgatish, material bilan tanishish, turli shakllarni qirqa olish malakalarini egallash, ularni ma’lum tartibda joylashtirish, obraz va sujetga mos ravishda yopishtirishni talab qiladi. Applikatsi¬yani o‘rgatish bolalarning qabul qilish jarayonini o‘stirishga asoslanadi. Shakl, hajm, rang, predmetning o‘zaro munosabatlari haqidagi taassurotlarni boyitish, bolalarni mashg‘ulot vaqtida fikrlash va (taassurot) tasavvurni ishlatishga yordam beradi. Ammo har bir yosh guruhlarda applikatsiya mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan ta’limiy usullar o‘ziga xos xususiyatga egadir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan applikatsiya faoliyatlari bolalarda sezish qobiliyatlarining rivojlanishiga ta’sir etib, ularni estetik jihatdan tarbiyalashga va ijodiy faolligini shakllantirishga, shuningdek, mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga va ularda xarakterning irodaviy xususiyatlarini

vujudga kelishiga yordam beradi. Applikatsiya faoliyatlari jarayonida bola rang va uning jilosi (ottenkasi) bilan tanishadi, mashq qiladi, shakl va predmetning tuzilishini bilishga o‘rganadi. Ritm va simmetriya haqidagi tushunchalari kengayib borib, qog‘oz varag‘ida mo‘ljallay olishga o‘rganadi. Bolalar applikatsiya faoliyatida rang va uning uygunlashuvi bilan juda ko‘p marta mashq qiladilar, shuning uchun ular ko‘plab rang va uning uyg‘unlashuvini tezda esda saqlab qoladilar va bir-biridan ajrata oladilar.

«Rangni sezish — estetik sezishning, umuman eng ommabop shakli bo‘lib hisoblanadi». Buning uchun uni rivojlantirish natijasida biz bolalarning estetik tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatamiz. Ular shu asosda shaklning go‘zalligini, ritm va simmetriyani bilishga, sezishga o‘rganadilar. Bolalar ritm va simmetriyaning qoidasini bilib olishlari natijasida ular shaklning tartibli joylashishidan xursand bo‘ladilar va aksincha, tartib-qoidaning buzilishi bolani asabiylashtirib yuboradi. Bolalar bu holatni xunuk, tartibsiz, buzuq sifatida tasavvur etadilar. Applikatsiya faoliyatlarida bolalar ko‘pincha geometrik shakllar bilan munosabatda bo‘ladilar natijada ular tevarak-atrofdagi predmetlarda geometrik shakllarning abstrakt ko‘rinishini ko‘ra olishga o‘rganadilar. Murakkab tuzilgan shakllarning tuzilishini yaxshiroq tushunishiga, ularni to‘g‘ri tahlil va sintez qilishga o‘rganadilar. Bolalar geometrik shakllar bilan tanishishlari jarayonida hali o‘zlariga tanish bo‘lmagan figuralarning no mini to‘g‘ri aniqlashga o‘rganadilar. Masalan, bolalar shaklning burchaklarini sanab, uning 3 ta yoki 4 taligini bilib oladilar va natijada uchburchak va to‘rtburchak, keyinchalik ularning o‘zlari mustaqil ko‘pburchak kabi shakllarning nomini bilib oladilar. Applikatsiya faoliyatlarida bolalarning kattalik va fazoni mo‘ljallash bo‘yicha olgan tasavvurlari va qog‘oz betini to‘g‘ri mo‘ljallay olish kabi o‘quvlari rivojlanadi. Bolalar shaklni yopishtirishda yelimsiz aloqa qilishlari natijasida, shaklni mantiqiy va ritmik holida joylashtirishga o‘rganishlari asosida o‘rtasida, o‘ngda, chapda, yuqorida, pastda, orqada, qarama-qarshi tomonda, atrofida kabi so‘zlar bilan tanishib oladilar.

Bolalar applikatsiya faoliyatlarida juda ko‘p qimmatli mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallaydilar. Ular ozoda, batartib yopishtirishga, o‘z ish joylarini toza saqlashga va murakkab asbob hisoblangan qaychi bilan ishlashga o‘rganadilar. Bularning barchasi bolalarning maktabdagi texnologiya darsiga tayyorlaydi. Bolalar yengil va mayda qog‘oz shakllari bilan ishlashlari natijasida, o‘z harakatlarining tezligini to‘xtatib turishga o‘rganadilar. Faoliyatlari jarayonida ular oz bo‘lsa-da, qiyinchilikni yengadilar, bu esa bolalar xarakterida irodalilik xususiyatini, chidam, sabr kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni yassi va hajmli applikatsiya ishiga o‘rgatish.

Kichik guruhlarda applikatsiya qilishga o‘rgatish. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida applikatsiya faoliyatlari kichik guruhdan boshlab olib boriladi. Bu guruhda “San’at” rivojlanish matkazida bolalarga pedagoglar tomonidan tayyor qilib berilgan shakllarni qog‘ozga to‘g‘ri, turli xil joylashtirib terib chiqish va yopishtirish o‘rgatiladi. Bu guruhda asosiy vazifa — bolalarga yelimlash usullarini o‘rgatish hisoblanadi. Kattalar uchun oddiy hisoblangan bu malaka, qator harakatlarni ketma-ket bajarishdan iborat bo‘ladi, ya’ni mo‘yqalamni to‘g‘ri ushlab, unga ozgina yelim olish, shaklning teskarisi bilan qo‘yib, yelimni butun shaklga tekis qilib surtib chiqish, chap qo‘lining barmog‘i bilan shaklni tutib turish, so‘ng mo‘yqalamga ehtiyotkorlik bilan qo‘yib, shaklni sekin rang tomonini o‘girib, qog‘oz varag‘ining kerak joyiga qo‘yish va salfetka yordamida sekin bosish, chekkalaridan chiqib ketgan ortiqcha yelimni sekingina artib olish. Bu yoshdagi bolalarga ana shu harakatlarni egallab olish, albatta oson emas. Eng sodda shakl-kvadrat va doira uning uchun shu shakllardan ishni boshlash lozim. Yil davomida bolalar shu shakllarning nomini to‘g‘ri aytishni egallab olishlari lozim. Lekin butun yil davomida o‘tkaziladigan applikatsiya faoliyatlarida faqat shu shakllar bilan kifoyalanib qolish bo‘lmaydi. Bu guruhda bolalarda dastlab bir, keyin 2-3 qismdan tuzilgan predmetlarni (qo‘ziqorin, bayroqcha, qorbobo, uy) yopishtirishga o‘rganadilar. Shuningdek, yil oxiriga borib, bolalar olti-yetti xil rangning qizil, ko‘k, sariq, yashil, jigarrangni to‘g‘ri aytib berishlari lozim. Bu guruh bolalariga qaychi berilmaydi, chunki bolalarning qo‘l harakati yetarli taraqqiy etmagan va hali qurish nazorati yetarli bo‘lmaganligi sababli bolalar qo‘lidagi qaychi xavf tug‘dirishi mumkin.Kichik guruhda bolalarni aplikatsiya qilishga o‘rgatishida ish uchun beriladigan materiallar va mashg‘ulotni tashkil etish ahamiyatga egadir. Materialning rangi bolalarning diqqatini tortib, ularni chalg‘itadi. Shuning uchun dastlabki mashg‘ulotlarda material alohida paketlarda, tushuntirilib bo‘lgandan so‘ng tarqatiladi. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo‘lganidan so‘ng material tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda kesmaga terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlarning qo‘yib chiqilganini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga yelim ishlatish uchun beriladi. Bu guruhda tarbiyachi bolalar bilan naturani kuzatishni namuna bilan birgalikda olib borish kerak. namunani ko‘rsatish jarayonida tarbiyachi shaklning rangini aniq atash va barmog‘i bilan uni ko‘rsatib, shu shaklning xususiyatlarini bolaga aniq ko‘rsatib beradi. Tarbiyachi tomonidan ishni bajarilishini ko‘rsatib berilishi, bolalarda turli malaka va uquvning vujudga kelishida muhimdir. Shuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham boshidan ko‘rsatib boradi. Qanday shaklni oldi, qanday ushlab turib, yelim surtdi va boshqalar. Tarbiyachi o‘zining har bir harakatini so‘z bilan birgalikda olib boradi.Bolalarda sensor madaniyat oshadi, qo‘l bilan tahlil qilish qobiliyati o‘sadi va badiiy didlari shakllanadi.

O‘rta guruhda applikatsiya faoliyatlariga o‘rgatish. Bola hayotining 5-yiliga kelib, ham psixologik, ham jismoniy tomondan o‘sadi. Bu esa bolaning applikatsiya bo‘yicha bajaradigan ishining sifat jihatidan o‘zgarishiga olib keladi. Bolalar tuzilish jihatdan ancha murakkab bo‘lgan predmetlarni tasvirlashga o‘rganadilar. O‘rta guruh bolalari kichik guruhga nisbatan malaka va ko‘nikmalarni ancha egallagan bo‘ladilar. Bu guruh bolalari 2-3 qismli emas, balki 4-5 qismdan iborat predmetlarni tuzishga o‘rganadilar. Dastlab bu guruhga qaychi bilan ishlash kiritiladi. Bolalar qaychini to‘g‘ri ushlashga, uning richagini yopishga va ochish to‘g‘ri qirqim olishga o‘rganadilar. Buning uchun oldin eskiz, keyin esa enli yoki keng qog‘oz tasmalar qirqishga o‘rganadilar. Bu guruhda bolalar yelimlash malakasini egallashni davom ettiradilar. Bola hayotining 5-yilida doira, kvadratdan tashqari, uchburchak, oval, uzun to‘g‘ri to‘rtburchakni biladi. Trapetsiya shaklini esa, kichik guruhda bo‘lgani kabi, obrazli tasvirida davom etadi. Masalan, tom, qayiqcha, kichik guruhga yana qo‘shimcha havo rang, pushti, kulrangni sezishga va to‘g‘ri aytishga o‘rganadilar. Ular qog‘oz varag‘ida tez va osonlik bilan mo‘ljal qilishga o‘rganadilar. Ular orqada, ketma-ket, teng masofada va boshqa fazoviy tushunchalarni egallaydilar. Bolalar to‘g‘ri kesmalar qirqishdan tashqari, aylanaviy shakllar qirqishga o‘rganadilar. Ular kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchakning burchaklarini dumaloqlashga o‘rganadilar. Ana shu qirqib olingan aylanaviy shakllardan qo‘ziqorin, minorcha, qorbobo kabi predmetlarni hosil qilishga o‘rganadilar. Yopishtiriladigan detallar soni ham ko‘payadi, masalan, uychaning tasvirida faqat devorni emas, balki eshik va derazalarni ham tasvirlaydilar. Shakl va rang bilan ishlash ham rivojlanadi: to‘rtburchak, kvadrat, doira, uchburchak, pushti rang, kulrang, havo rang va boshqalar. Bu guruhda qog‘oz varag‘ida to‘g‘ri mo‘ljallashni o‘rganadilar va orasida, chekkada, bir xil masofada va boshqa shu kabi tushunchalar bilan tanishib boradilar. O‘rta guruhda tarbiyachi o‘zining asosiy diqqatini bolalarning qaychi bilan ishlashiga qaratadi. Yil davomida tarbiyachi bolalarni qirqishning turli usullari bilan tanishtiradi. Tarbiyachi qaychini va qog‘ozni to‘g‘ri ushlashga o‘rgatib boradi. Yopishtirish malakasi esa mustahkamlanib boradi. Bu guruhda asosiy vazifa bolalarning qirqish texnikasini egallab olishiga qaratilgandir. Bu guruhda tarbiyachi bolalarni predmetli-dekorativ, mazmunli applikatsiyaga o‘rgatib boradir. Sodda predmetlardan murakkab predmetlarning tasviriga o‘rgatiladi. Tarbiyachi bolalarni qaychi bilan ishlashga, uni to‘g‘ri ushlashga o‘rgatib boradi. Bolalar albatta qaychi bilan ishlashni darhol o‘zlashtira olmaydi. Shuning uchun tarbiyachi qaychi bilan ishlashga o‘rgatishda dastlab enli, ensiz kesmalar qirqishga o‘rgatib, mashqlantiradi, har bir applikatsiya mashg‘ulotlarining mavzu va mazmuni turlicha bo‘lishi lozim. Masalan, dastlabki faoliyatlarida tarbiyachi bolalarga «do‘kon» uchun chipta, cheklar qirqishni taklif etadi. Yoki, masalan, qirqilgan

kesmalardan uycha, daraxt, panjara, narvon kabi predmetlarning oddiy koʻrinishini tasvir etishi mumkin. Bu esa bolalarni mashgʻulotga qiziqishini oshiradi va faoliyatlarining bir xil tarzda boʻlishining oldini oladi. Bir-ikkita faoliyatlarini oʻtkazgach, keyingi faoliyatlarini bolalarning ijodiy faolligini oʻstirish uchun tavsiya etish mumkin. Masalan, bolalar oʻzlari qirqib olgan rangli kesmachalardan turli xil predmedlarning koʻrinishini tasvirlaydilar. Masalan, yulduzlar, bayroqchalar, gullar. Keyingi applikatsiya faoliyatlarida bolalar toʻrtburchak, kvadratning diagonali boʻyicha, trapetsiya va uchburchak hosil qilishga oʻrgatiladi. Sharf, sochiqni kvadrat va uchburchaklar bilan bezaydilar, shuningdek, kvadrat bilan gilamni, dastroʻmolchani, doira bilan taxsimchani bezaydilar. Tayyor siluetlar ham berish mumkin. Bolalar oval va doira shaklni hosil qilib qirqishga ancha qiynaladilar. Ular doiraviy shakldagi predmetlardan: tursa yiqilmas qoʻgʻirchoq, meva-sabzavotlar, piramida va boshqalarni qirqib yopishtiradilar. Oʻquv yili davomida bolalarga mazmunli applikatsiya ishlarini ham taklif etishi mumkin. Masalan, boʻgʻirsoq yoʻldan dumalab ketyapti, oʻtloqdagi joʻjalar, qoʻziqorinlar va hokazo. Bu guruhda bolalarni jamoa boʻlib ishlashga oʻrgatamiz. Masalan, katta gilam yoki sabzavot mevalardan tashkil topgan vitrinani yoki havoda, osmonda samolyotlarni tasvirlashlari mumkin. Bundan tashqari, bolalar oʻz xohishlari boʻyicha xilma-xil applikatsiya ishlarini bajaradilar. Masalan, Onam uchun sovgʻa, tayyor siluetni naqshlar bilan bezatish mumkin: fartuk, qoʻlqop, shapkani qirqib yopishtirish yoki bezatish mumkin. Tarbiyachi bu guruhda ham xilma-xil metod va usullardan foydalanadi. Muhim boʻlgan metodlardan biri - informatsion-retseptiv hisoblanadi. Bu metod tasviri lozim boʻlgan predmetni har tomonlama koʻrib chiqish va tahlilni oʻz ichiga oladi. Tarbiyachi bu guruhda koʻproq bolalarning oʻzlariga tasvirlanayotgan predmet haqida gapirib berish, uning sifati, belgisini aniq aytib berishga, tasviriy yoʻllarini mustaqil bilishga oʻrgatib boradi. Bolalar predmetning tasvirini tuzish orqali, oʻsha predmet shaklini qirqishga, uning tuzilishining toʻgʻri tasviriga, qismlarning kattaligini toʻgʻri berishga oʻrganib boradilar. Bu guruhda qirqish birinchi marta kiritiladi. Shuning uchun eng muhimi, diqqat-eʼtibor qaychini ushlashga, qirqish usullarini koʻrsatishga bogʻliq boʻladi. Dastlabki mashgʻulotlarda tarbiyachi qaychi bilan qanday ishlash kerakligini koʻrsatib beradi (qanday ochib yopishni, qaerdan ushlashni koʻrsatib beradi). Qogʻoz qirqishni bolalarga namoyish qilish orqali qaychining qanday qilib harakat qilishini koʻrsatadi. Bolalarga kvadratlardan doiraviy shakllar qirqishni, ularning faqat burchaklarini qirqish kerakligini koʻrsatish kerak va qogʻozni qoʻlda biroz harakat qildirish kerakligini namoyish qilib beradi. Bu usulda bolalarga oq qogʻoz, soʻng rangli qogʻoz berish tavsiya etiladi. Tarbiyachi tanish boʻlgan qirqish usullarini birorta bolani chaqirib, bolalar uchun namoyish qilib berishni taklif etish mumkin. Har bir harakatni tarbiyachi

so‘z bilan tushuntirib borishi kerak. Agarda murakkab applikatsiyani tuzish kerak bo‘lsa, tarbiyachi flanigrafdan o‘sha narsani illustrativ rasmlarni ko‘rib chiqishni taklif etish mumkin. Masalan, qo‘ziqorin, uning oyoqchasi va shapkachasi bor, oyoqchasi pastda, shapkasi yuqorida joylashgan. So‘ng tarbiyachi bolalarga savollar beradi, obrazli so‘zlardan foydalanadi, qo‘l bilan shakl ko‘rinishini tasvirlovchi harakatlarni bajarishlari mumkin. Shuningdek, tarbiyachi namuna ko‘rsatishda foydalanadi. Namuna, shuningdek, predmetning o‘zi ham topilmagan taqdirda foydalanish mumkin. Faoliyatlarida eng muhim metodlardan biri yopishtirishni ko‘rsatish va tushuntirish hisoblanadi. Yopishtirish jarayonini hamnia bolalarga ko‘rinadigan qilib, namoyish qilish lozim. Buning uchun doska yoki molbertdan foydalanish mumkin. Shuningdek, yopishtirish jarayonida ketma-ketlikni bolalar yaxshilab o‘zlashtirib olishsa, uni bolalarning o‘zlariga taklif etish mumkin yoki ko‘rsatish o‘rniga, faqatgina og‘zaki tushuntirish bilan kifoyalanib qolish mumkin. Bu yoshdagi bolalar bilan ishlashda o‘yin usulidan keng foydalanish mumkin va lozim. Chunki bu usul bolalarni mashg‘ulotga nisbatan qiziqishni uyg‘otib, ularni faollashtiradi. Bu yoshdagi bolalar bilan ishlashda individual ishlash, muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachi bir bolaga yopishtirishni ko‘rsatsa, ikkinchisiga nimani davom ettirish kerakligini tushuntirib beradi. Bolalar ishini ko‘rib chiqish ham muhim metod va usullardan biri bo‘lib hisoblanadi. Tarbiyachi bolalar ishini ko‘rib chiqish va tahlil qilish faqatgina barcha bolalarning ishini maqtash lozim. Keyingi faoliyatlarda tarbiyachi bolalar ishini tahlil qilishda ishning ozoda bajarilganligi, rangning to‘g‘ri tanlanganligi va qog‘ozda to‘g‘ri joylashtirilganligini hisobga olib, tahlil qiladi va bolalarni ham shunga o‘rgatib boradi. O‘rta guruhda bolalar tayyor shakllardan applikatsiya tuzish bilan birga o‘zlari ham mustaqil qirqib yopishtiradilar. Naturani tahlil qilishda bolalarning diqqati faqatgina rang va shaklga tortilmay, balki qismlarning o‘lchami va soniga ham tortiladi. Masalan, tursa yig‘ilmas qo‘g‘irchoq sharchalardan katta, o‘rtacha va ikki shardan iboratligini aniqlaydilar. Murakkab topshiriqlarni bajarish jarayonida ularga material alohida beriladi. Masalan, uyni yopishtirish. Uning devor, torn va oynaga mos bo‘lgan razmerdagi rangli qog‘ozlar beriladi. Bu guruhda naturani ko‘rib chiqish namuna bilan birga olib borilishi shart emas. Namuna tahlilining o‘zi yetarli bo‘ladi. Namuna qurib chiqishda tarbiyachi bolalarning diqqatini uni yaxshilab qurib chiqishga tortib, quyidagi savollarni beradi: predmet qanday shakllardan tuzilgan? Bu qanday shakl? Rangi qanday? va boshqalar.Tarbiyachi predmetning qismlarini yoki naqsh elementlarini yopishtirish tartibini ko‘rsatib beradi. Bu guruhda tarbiyachi faqatgina ma’lum qismini ko‘rsatib berishdan ham foydalanadi. Masalan, uyni yopishtirishda uning tomini qirqishni ko‘rsatib beradi xolos, qolganini bolalarning o‘zlari bajaradilar. Bu guruhda alohida ahamiyat qaychi bilan ishlashga beriladi. Tarbiyachi bolalarga

qaychi bilan ishlash texnikasini ko‘rsatib, tushuntiradi. Qo‘lrri qaychining richagini qanday harakatlantirishini o‘rgatadi. Qaychi bilan dastlabki mashqlarni, yaxshisi 8-10 bola bilan o‘tkazgan ma’qul, chunki ularni kuzatish va o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish imkoniyati ko‘proq bo‘ladi. Faoliyatlarining oxirida tarbiyachi bolalar bilan birgalikda bajarilgan applikatsiyani ko‘rib chiqadi: predmetga o‘xshaydimi, shakllar toza yopishtirilganmi? Tarbiyachi bolalarning tahliliga yakun yasab, yaxshi ishlarga bolalarning diqqatini jalb etadi.

Katta guruhda applikatsiya faoliyatlariga o‘rgatish. Katta guruhlarda ko‘pincha faoliyatlarining ma’lum bir qismini ikki va undan ortiq bolalar bilan birga ishlaydiganjamoa ishi sifatida tashkil etish lozim. Bolalar birgalikda oldinda turgan vazifani muhokama qiladilar, ish tartibini rejalashtiradilar, bir-birlariga yordam ko‘rsatadilar. Applikatsiya faoliyatlari shartsiz ravishda bolalarda ijodiy qobiliyatlarning o‘sishga ta’sir ko‘rsatadi. Bola hayotining 6-yilida kuzatishlar, o‘yin sensor tarbiyaning ta’siri ostida bolalarda predmetning rangi, shakli, kattaligi va boshqa sifatlari to‘g‘risida bilim va tasavvurlari shakllana boradi. Bu yoshga kelib bolalarda tasviriy uquvi va texnik usullari mavjud bo‘ladi, qo‘l muskullari rivojlangan bo‘lib, qaychi bilan qiladigan harakatlari ancha aniq va ishonchli bo‘ladi, bu esa o‘z-o‘zidan applikatsiyaga o‘rgatishning ancha murakkab vazifalarini hal etishni taqozo etadi. Applikatsiya faoliyatlari jarayonida predmet to‘g‘risida xilma-xil ma’lumotlar berib boriladi. Bolalar xilma-xil shakllarni atashga, kvadrat, to‘rtburchakni bir-biridan farq qilishga, ularning asosiy belgilarini to‘g‘ri atashga o‘rgatib boriladi. Shuningdek, bolalarga oval, doira, uchburchakni to‘g‘ri ajratishni farq qilishni o‘rgatadi. Shunday qilib, bolalar faqat shakllar bilan emas, balki ranglar bilan tanishib boradilar. Masalan, och, to‘q, yorqin ranglar va boshqalar. Bular orqali bolalar rangni sezishga, uni tanlay bilishga o‘rganib boradilar. Applikatsiya jarayonida figuralarni bir-biri bilan taqqoslashga o‘rganadilar, baland-past, keng-tor, ya’ni qalin-ingichka kabi tushunchalarni egallab, tushunib boradilar. Shuningdek, qog‘oz varag‘ini mo‘ljallay bilish bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar, tepada, pastda, o‘rtasida kabi ketma-ket tushunchalarni egallashga harakat qiladilar. Bu ish bolalarni qaychi bilan qirqish usullariga o‘rgatib borish bilan davom ettiriladi. Bu bilan o‘rgatib borish davom ettiriladi, bolalar o‘rta guruhda egallagan qirqish usullarini takrorlab, mustahkamlaydilar va yangi qirqish usullarini egallaydilar. Bular quyidagilar: qog‘ozniikki buklab, birxil shakllar qirqish usuli, simmetrik shakllarini ham bir necha marta buklab (garmoshka qilib taxlab) qixqishga o‘rganadilar. Masalan, gullar, barglar va hokazo. Bu guruhda tarbiyachi bolalarning diqqatini doimo ishning sifatiga qaratib boradi. Chunki qirqish va yopishtirishning sifati butun bir ishning yoki applikatsiyaning sifatiga ta’sir etadi. O‘quv yilining boshida bolalar bilan doiraviy shakllarni qirqish ustida ishlanadi, chunki bolalar bu usulni o‘rta

guruhda yetarli darajada egallamagan bo‘ladilar. Bolalar predmetlarni qismlarga bo‘lib, qirqib yopishtirishni o‘rgangach, ularning qirqishning ratsional usuli, ya’ni garmoshka usulida qog‘ozni buklab qirqishni o‘rganadilar. Ammo yilning boshida dumaloq shakldagi predmetlarni qirqishni mustahkamlashga tarbiyachi quyidagi mavzularda ishlar berishi mumkin. Masalan, kuzgi barglar, sabzavot, mevalar, qo‘ziqorinlar va hokazo. O‘quv yili davomida bolalar predmetli applikatsiya ishlarini bajaradilar. Masalan, samolyot, raketa, mashina, trolleybus va hokazo. Qog‘ozni garmoshka usulida buklab, qirqishga turli xil predmetlarni taklif qilish mumkin. Masalan, bargli shoxcha, gullar, archa o‘yinchoqlari. Shuningdek, dekorativ applikatsiya bo‘yicha ham shar, sochiq, kvadrat, gilam, doira, tarelka va shuningdek, tayyorsiluetlarni, zontik, choynak, fartuk kabilarni bezatishni taklif etish mumkin. Bolalarni simmetrik figuralarni qirqishga o‘rgatishda tarbiyachi simmetrik tuzilishga ega bo‘lgan predmetlarni taklif etadi. Masalan, guidon, nok, kapalak, masxaraboz va hokazo.Bolalar predmetli dekorativ applikatsiyadan tashqari, mazmunli applikatsiyani ham bajaradilar. Masalan, quyonning bo‘g‘irsoq bilan uchrashuvi, qor bosgan uycha, qiz bayroq ushlab turibdi va hokazo. Katta guruhda bolalar o‘z ixtiyorlari bilan ham applikatsiya ishlarini bajaradilar. Bolalar olgan bilim, malakalari asosida o‘zlari mustaqil applikatsiya ishlarini bajaradilar. Applikatsiya faoliyatlarida bolalar jamoa ishlarni bajaradilar. Gullar va afsonaviy qushlar tasvirlangan gilam, sevimli o‘yinchoqlari va boshqalar. Katta guruhda ham applikatsiya faoliyatlarida tasvirlash kerak bo‘lgan predmetlarni tahlil qilishga katta o‘rin ajratiladi va unda bolalarni savollar bilan faollashtirilsa, katta guruhlarda esa bolalarning mustaqilligini qo‘proq ta’minlaydi. Tahlil jarayonida bolalar predmetning shakliga, rangiga, turli xil xususiyatlariga e’tibor berishi lozim. Xalq amaliy san’ati asarlarini ko‘rib, tahlil qilishga, bolalarga ranglar garmoniyasining go‘zalligini sezishga, ko‘pincha kompozitsiyaning mazmundorligini ochishga o‘rgatiladi. Bu guruhda namunadan, ayrim hollarda, ya’ni ishning yakunini namoyish qilishda foydalanish mumkin. Har bir qirqish usullarini ko‘rsatib berish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Tarbiyachi ko‘proq bolalarning o‘zlarini faollashtirib, bolalarning o‘zlarini mustaqil ravishda qirqish yo‘llari, yopishtirish tartibini qidirib topishga undaydi. Agarda yangi qirqish yo‘llari kiritiladigan bo‘lsa, tarbiyachining o‘zi qirqish yo‘llarini ko‘rsatib beradi. Masalan, qat-qat usulida qirqish, ayniqsa, simmetrik figuralarni qirqishda bolalar ancha qiynaladilar. Shuningdek, tarbiyachi ayrim predmetning qog‘ozdagi tasviridan foydalanish mumkin (qo‘l harakatlari bilan yurgizib chiqishi mumkin). Dastlab tarbiyachining «predmetning yarmi» deb tushuntirishi asosida bolalar usulni tushunib yetadilar. Bu guruhda bolalar qog‘ozni qo‘l bilan yirtib, mayda bo‘lakchalardan foydalanib, tasvirini hosil qilishga o‘rganadilar. Tarbiyachi bolalarni mustaqil, ijodiy ishlashga o‘rgatib, mazmundor applikatsiya yaratishga,

tayyorlov guruhga o‘tgach ularning applikatsiya bo‘limi ancha murakkablashadi. Ular qirqimning yangi, ya’ni bir necha marta buklangan qog‘ozdan qirqish va siluet qirqish usullarini egallay boshlaydilar. Bu bilan bu guruh bolalarini turli xil shakllarda dekorativ naqsh chizishga va bir necha qismdan tuzilgan predmetlarni tuzishga hamda mazmunli applikatsiya tuzishga, predmetlarni joylashtirishga o‘rganadilar. Shu bilan birga, rang spektrining barcha ranglaridan foydalanishga o‘rgatiladi.

Siluet qirqish — eng murakkab usullardan biridir. Siluet qirqish jarayonida bola doimo predmetning obrazini xotirasida tutib turishga va uning konstruktsiyasi va proportsiyasini kuzatib turishga, qo‘l harakatini hosil qilinayotgan shaklning yo‘nalishiga moslashtirishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun bolalarni siluet qirqishga o‘rgatishni sodda shakllardan, masalan, baliqlar, sabzavot, mevalardanboshlash lozim. Katta guruhda bolalarni applikatsiya qilishga o‘rgatishda quyidagi vazifalar turadi: bolalarni to‘g‘ri harakat bo‘ylab qirqish, dumaloq shakllarni va ikkiga buklangan qog‘ozni qirqishga o‘igatiladi. Bir nechta qismdan tuzilgan predmetlarni hosil qilishga, geometrik va simmetrik shakllardan chiroyli dekorativ naqsh tuzishga o‘rganadilar. Demak, bu guruhda asosiy vazifa qirqishning xilma-xil usullarini egallashdan iborat ekan. Oldin bu guruhda ham o‘rta guruhdagi kabi mavzularda, faqat detallar soni ko‘paytirilib, qorbobo, boshida qalpog‘i yoki qo‘lida xaltasi bilan, samolyot esa qanotlarida yulduzi bilan va qorboboning yuz qismidagi mayda detallarni: burun, ko‘z va boshqalar yasalardi. Bu guruhda bolalar ba’zi shakllarni ikkiga buklangan qog‘ozdan, shoxlarni barglari bilan yasashgan. Bu usullarning ishlatilishi vaqtni ancha tejaydi va chiroyli mazmun yoki kompozitsiya tayyorlash mumkin. Qog‘ozni ikkiga buklab qirqish, bir-biriga simmetrik shakllarni qirqishni osonlashtiradi. Bu usuldan foydalanib, bolalar vaza, barglar, sabzavot va mevalar shaklini qirqadilar. Katta guruhda bolalar shakllarni qog‘ozning uchini qo‘li bilan tekislab, barmoqlarda qirqishga o‘rganadilar. Katta guruh bolalarining ishlaydigan ish mazmuni shu bolalarda qirqishning ko‘nikma va malakasini rivojlantirishdir. Dekorativ applikatsiya ishlarida esa bu guruhda faqatgina tayyor geometrik shakllar berilmay, balki xilma-xil o‘simlik shakllaridan barg gullar va boshqalarning elementlari kiritiladi. Tayyorlov guruhga o‘tgach, ularning applikatsiya bo‘limi ancha murakkablashadi, ular qirqishning yangi usullarini egallay boshlaydilar. Bu usullarga bir necha marta buklangan qog‘ozdan qirqish va siluet qirqish kiradi. Shu bilan birga, bu guruh bolalari turli xil shakllarda dekorativ naqsh tuzishga va bir necha qismdan tuzilgan predmetlarni tuzishga hamda mazmunli applikatsiya tuzish va predmetlarni joylashtirishga o‘rganadilar. Shu bilan birga, spektorlarning barcha ranglaridan foydalanishga o‘rganadilar. Yuqorida siluet qirqish eng murakkab usullaridan biri ekanligi aytildi. Siluet qirqish jarayonida bola doimo predmetning

obrazini xotirasida tutib turishga va uning konstruktsiyasi va proportsiyasini kuzatib turishga, qo‘l harakati hosil qilayotgan shaklning yo‘nalishiga moslashishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun bolalarni siluet qirqishga o‘rgatishni sodda shakllaridan (baliqlar, sabzavot va mevalar) dan boshlash lozim. Katta guruh bolalarini applikatsiya qilishga o‘rgatishda qirqimning turli usullarini egallash muhim ahamiyatga egadir. Bolalarning tasavvuriga asoslangan holda tarbiyachi bolalar bilan naturani, uning qismlari, tuzilishini tahlil qilib, alohida qismlarga ajratib ko‘rsatadi. Namunada, agar bolalar predmetni birinchi marta tasvirlayotgan bo‘lishsa, foydalanish mumkin. Uni tahlil qilishni bolalarning o‘ziga topshirish mumkin bo‘ladi. Agar bolalar o‘zlariga tanish predmetni bir necha detallari bilan tasvirlayotgan bo‘lishsa, namuna o‘rnini natura bilan almashtirish mumkin bo‘ladi. Masalan, oddiy uyni emas, afsonaviy uyni yoki bayramga bezatilgan uyni katta va tayyorlov guruhlarida bir necha namunalardan foydalanib, ko‘rsatish tavsiya etiladi. Chunki bu narsa bolalarning ijodiy faolligini tarbiyalaydi. Katta guruhda jamoa bo‘lib applikatsiyalar bajariladi. Masalan, «Akvariumdagi baliqlar», «O‘tloqdagi gullar», «Ko‘chadagi uy va mashinalap» kabi. Har bir bola ishning qaysidir qismini bajaradi. Keyin har bir qism umumiy fonga birlashtiriladi. Tarbiyachi ishni bolalarning xohishiga qarab taqsimlaydi. Ba’zi jamoa ishlarini bajarishda bolalar 4- 5 ta bo‘lib, guruhchalarga birlashishadi.

Tayyorlov guruhida applikatsiya qilishga o‘rgatish. Tayyorlov guruh bolalari bilan dasturda mazmunli applikatsiyalarni berish ko‘zda tutiladi. Ular ko‘cha, akvarium kabi mavzularda, shuningdek, «Bo‘g‘irsoq» kabi ertaklarga illustratsiyalar bajarishlari mumkin. Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruhida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqshlar tuzishda ularga turli o‘lcham va rangdagi tayyor shakllar beriladi va bu guruhda ham katta guruhdagi kabi qog‘ozni qo‘l bilan yirtish usulidan foydalanish davom etadi. Tayyorlov guruh bolalari bilan dasturda mazmunli applikatsiyalarni bajarish ko‘zda tutilgan. Ular «Ko‘cha», «Akvarium» kabi mavzularda, shuningdek, «Bo‘g‘irsoq» kabi ertaklarga illustratsiyalar bajarishlari mumkin. Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruhida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqshlar tuzishda turli o‘lcham va rangdagi tayyor shakllar beriladi. Va bu guruhda ham katta guruhdagi kabi qog‘ozni qo‘l bilan yirtish usulidan foydalanishi davom ettiriladi. Ikkinchi kichik guruhda bolalarni appilikatsiya qilishga o‘rgatishga ish uchun beriladigan materiallar va mashg‘ulotni tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Materialning rangi bolalarning diqqatini o‘ziga tortib, ularni chalg‘itadi. Shuning uchun dastlab mashg‘ulotlarda material alohida paketlarda, tushuntirilib bo‘lgandan so‘ng tarqatiladi. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo‘lgandan so‘ng material tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda qog‘oz varag‘iga terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlarning

yig‘ilganligini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga yelim (kley) ishlatish uchun ruxsat beriladi. Bu guruhda tarbiyachi bolalar bilan naturani kuzatish namuna bilan birgalikda olib borilishi kerak. Namunani ko‘rayotgan jarayonda tarbiyachi shaklning rangini aniq atashi va barmog‘i bilan uni ko‘rsatib, shu shaklning xususiyatlarini bolaga aniq ko‘rsatib berishi lozim. Tarbiyachi tomonidan ishning bajarilishini ko‘rsatib berilishi bolalarda turli malaka va uquvning vujudga kelishida muhimdir. Shuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham boshidan ko‘rsatib beradi. Qanday shaklni oldi, qanday qilib quyib, yelim surtdi va boshqalar. Tarbiyachi o‘zining har bir harakatini so‘z bilan birgalikda olib boradi. Tayyorlov guruhida ishning dastur materialiga **siluet qirqish** usuli kiritiladi. Shuning uchun o‘rgatish usullarining xarakteri bir muncha o‘zgaradi. Naturani tahlil qilishda tarbiyachi barmoq harakati orqali ularning diqqatini predmetning konturiga tortadi. Bunda harakatni qirqish qaysi qismdan boshlanadigan bo‘lsa, o‘sha qismdan boshlash lozim. Bu guruhda bolalar endi predmet konturiga, qandaydir detal qirqishga o‘rganadilar, masalan, tipratikanni ignalari bilan. Albatta, bolalarga bu qiyin. Shuning uchun bu ishda ikki bosqichdan foydalaniladi. Oldin tayyorlangan qog‘ozdan umumiy kontur qirqiladi. So‘ngra uning detallari, masalan, oyog‘i yoki suzgichlari qirqiladi. Ba’zi vaqtlarda siluet qirqish oldindan chizilgan kontur asosida qirqiladi. Bu narsa ko‘proq murakkab o‘simlik elementlaridan dekorativ shakllar tuzishda qo‘llaniladi. Bu guruhda qog‘ozni ikkiga buklab, qirqishning murakkabroq usuli bilan tanishtiriladi. Masalan, archa, odam, hayvon shakllari. Yana bu guruhda qirqishning murakkab usuli — qog‘ozni bir necha marta buklash orqali qirqishga o‘rgatish usuli o‘rgatiladi. Bu usul salfetka, qor parchalari hosil qilishda qo‘llaniladi. Tarbiyachi bolalarga qog‘ozni qanday buklash kerakligini, qirqish yo‘llarini ko‘rsatib beradi. Bu usuldan bolalar keyin dekorativ applikatsiya faoliyatlarida foydalanadilar. Bu guruhda hali mazmunli applikatsiya qilish davom ettiriladi. Bunda bolalarni shakllarni to‘g‘ri joylashtirib, yopishtirishga o‘rgatadilar. Oldin umumiy fon, keyin uzoqdan joylashgan, o‘rtada va oldinda joylashgan predmetlar yopishtiriladi. Tayyorlov guruhida applikatsiya jamoa ishi sifatida berilishi mumkin. Masalan, «Egri va to‘g‘ri» ertagida bolalar to‘rttadan bo‘lib, har bir guruh shu ertakdan ma’lum bir ko‘rinishni bajarishlari mumkin. Bolalar shu ko‘rinish elementlarini qirqib, joylashtirib qurganlaridan so‘ng uni qanday ketma-ketlikda yopishtirish kerakligini aniqlaydilar. Biri yelim surtadi, ikkinchisi uni joylashtiradi, uchinchisi latta bilan mahkam yopishtiradi. Bu ish bolalarni o‘rtoqlik, jamoatchilik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hamma guruhlarida ixtiyoriy applikatsiya faoliyatlari o‘tkaziladi. Lekin o‘rta guruh bolalariga o‘ylagan mazmunlari asosida tayyor shakllar beriladi. Katta guruhlarda bolalar o‘zlari o‘ylagan mazmunlari asosida qirqadilar. 6-7 yoshdagi bolalar oldindan qiladigan ishlari mazmunining

eskizini oddiy qalam bilan chizib olishlari, keyin esa shu eskizning detallarini applikatsiya qilishlari mumkin.

Applikatsiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlarida koʻrgazmali qurollar, turli oʻyinlar uchun qoʻllanmalar, oʻyinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar va hakozalarni bezashda ishlatiladi.Applikatsiya bilan shugʻullanish bolalarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishda katta yordam beradi tasavvurni boyitadi, kuzatuvchanlik va diqqatni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, chamalash va rangni sezishni oʻstiradi.Applikatsiya ishini bajarishda asosiy etibor uning umumiy koʻrinishiga qaratilishi kerak. Yaxshi oʻylangan kompozitsiya, yahni tasvirlash lozim boʻlgan narsalarni joylashtirish applikatsiyaning muvaffaqiyatining garovidir.Tasvirlash lozim boʻlgan narsalar yordamida figura va narsalarning holati aniqlanadi, tasvirlangan hodisalarning uygʻunligiga erishiladi. Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qogʻozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak.Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, yahni fonga joylashtiriladi va oʻylangan tasvir hosil qilinadi, agarda bu tasvir mahqul boʻlmasa detallar boshqacha joylashtiriladi. Detallarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning oʻrnini qalam bilan belgilab qoʻyiladi. Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl – kvadratni olib, uning almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib koʻramiz. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya oʻqini oʻtkazish va elementlarni shunga koʻra joylashtirish lozim.Applikatsiya moʻljallangan tasvir va elementlar miqdori qogʻozni tanlashni belgilaydi. Tasvir ustida ishlanganda asosiy ehtibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning oʻlchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi. Tasvir hajmiga koʻra eng katta element asosiy tematik element boʻlishi kerak.

Mozaika monumental dekorativ sahnat turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qoʻllaniladigan materialiga koʻra ham, naqoʻ va rasmlariga koʻra ham oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan. Oʻrta Osiyo madrasalari, machitlar, hukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika hozirgi kunda monumental sahnatga aylangan. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va halq amaliy sahnati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna, sapol plitalaridan ofdalaniladi. Loasda rangli koʻzgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qoʻshilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.Mozaika bu rasm sathida ayrim-ayrim parchalar (qogʻoz, oyna, sapo, gul tojibarglari, tuxum poʻsti va shu kabilar) qoʻyib chiqishdir:

1.Tuxum po‘stidan mozaika ishlarini bajarish uchun yuvib qo‘ritilgan tuxum po‘sti mo‘yqalam yordamida akvarel bo‘yoqlari bilan kerakli ranglarga bo‘yaladi.

2. Bo‘yoq qurigandan keyin tuxum po‘stini tanlangan rasmga ko‘ra mayda va yirik bo‘laklarga bo‘linadi

3.Tuxum po‘stidan mozaika qilishda shunday tasvirni tanlash kerakki ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo‘lmasligi kerak.

4. Kontur qora qog‘oz orqali o‘tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.

5. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. U yerga tuxum po‘sti terib siqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham shu tartibda davom ettiriladi.

6.Ortiqcha yelim toza latta bilan artib tozalanadi, po‘st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo‘yiladi.Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi.Keyinroq konturlar ancha murakkablashadi.Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug‘lari, danak, baliq tangalari, chig‘anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil mozaika ishlarini bajarish mumkin.

Rasm va applikatsiya. "Men va mening oilam".

Maqsad: bolalar oilalari haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirish va oila a’zolarini tasvirlab berish malakasiga ega bo‘ladilar. Bajarilayotgan ishda rasm chizish va applikatsiya kabi ikkita ijod turini uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar. Ish jarayonida tatibli bo‘lishga o‘rganadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: oilaviy fotosuratlar to‘plami, AKT vositalari, qog‘oz, buyoqlar, qaychi, yelim, qalamlar.

Faoliyatning borishi:

1. "Men va mening oilam" mavzusidagi rasmlarni ko‘rib chiqish.
2. O‘z oilaviy an’analari haqida gapirib berish.
3. Ishlash texnologiyasini tanlash (applikatsiya bilan rasm chizish).
4. Bolalar ishlari va ularni rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: bolalar ishlari ko‘rgazmasini tashkil etish.

E’tiborga molik jihati: ozoda ishlay olish malakalari va **h**ayot xavfsizligiga rioya qilish.

Applikatsiya: Qushlar

Maqsad: bolalarda mayda qo‘l motorikalari rivojlanadi, qog‘ozni buklash usulidan foydalanib shakl berish malakalari oshadi, jamoa bilan kompozitsiya tuzishni o‘rganadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: oq qog‘oz, rangli qog‘oz, qaychi, yelim, salfetkalar, tayyor namuna, “Qushlar uchib ketmoqda” mavzusidagi rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va rasmlar asosida suhbat.
2. Jihozlarni taqsimlash, rejalashtirish.
3. Bolalar ijodi.
4. Applikatsiya ko‘rgazmasi.

Qo’shimcha: “Ramka” yasashni taklif etish, kompozitsiyani ramkaga solish.

E’tiborga molik jihati: gigiena va hayot muhofazasi qoidalariga rioya qilish.



Applikatsiya:Kasblar kitobchasi

Maqsad: kasblar to‘g‘risidagi tasavvurlarga ega bo‘ladilar, ayrim kasblarning asosiy vazifasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: rangli qog‘oz, karton, kasblar to‘g‘risida rasm va tabriknomalar, yelim, qalam, qaychi, salfetka; kitobchani jamlash namunasi.

Faoliyatning borishi:

1.Namuna bo‘yicha kitobchani yasash

2.Jurnallardan kasblar to‘g‘risidagi rasmlarni tanlab va ularni qirqib olish.

3.Kitob varaqlarini kasblar to‘g‘risidagi rasmlar bilan to‘ldirish va kasblar nomini har bir rasm tagigabosma harflarda yozib chiqish.

4.Kitob muqovasini bezash.

Qo‘shimcha: o‘z kitoblari bilan bir-birlarini tanishtirish.

E’tiborga molik jihat:ishga ijodiy yondasha olish, batartib ishlay olish va ish joyini tartibga keltirish.

Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash.

Nazorat savollari

1. Applikatsiyada qirqishning qanday turlari bor?
2. Applikatsiyada qanday resurslardan foydalaniladi?
3. Badiiy rasm deganda nimani tushunasiz?
4. Applikatsiya turlarini ayting turlarini ayting?.
5. Aplikatsiya qaysi guruhdan boshlanadi.

5-Mavzu: “San’at” rivojlanish markazida bolalarni plastilin va loy ishiga o‘rgatishni takomillashtirish (amaliy 2 soat)

Reja:

1. Bolalarni plastilin va loy ishiga o‘rgatishni o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Oy mavzulari bo‘yicha plastilin va loydan narsalar yasash

1.Bolalarni plastilin va loy ishiga o‘rgatishni o‘ziga xos xususiyatlari

Tasviriy faoliyatning har xil turlari bolaning badiiy didini shakllantiradi.Agar rasm va applikatsiya chiziqlarning aniqligi hamda ranglarning yorqinligi orqali bolalarni estetik tarbiyalashga ta’sir ko‘rsatsa, o‘yinchoqlar yasashda predmetning hajmli shakli, yumshoqligi va ritmi birinchi o‘ringa chiqadi. Mana shu uchta komponentning barchasi real fazoda mavjud bo‘lib, bolada predmetlar plastik shaklining go‘zalligini, qismlarining nisbatlarini tez idrok etish va bilib olish ko‘nikmasini shakllantiradi, ularda tevarak-atrofdagi voqelikka diqqate’tibor va qiziqishni rivojlantiradi.

Loy va plastilindan o‘yinchoqlar yasash faoliyatning bir turi sifatida rasm chizish yoki applikatsiya tuzishga qaraganda bolalarni fazoda mo‘ljal olishga, qator matematik tushunchalarni o‘zlashtirishga tezroq o‘rgatadi. Chunonchi, kichik guruhda bolalar to‘siq uchun ustunchalar yasashadi, bola ularni bir joydan ikkinchi joyga olib qo‘yadi, qator qilib teradi, ulardan uycha atrofiga devor yasaydi, nechta ustuncha yasaganini sanab chiqadi va hokazo. Katta yoshli bog‘cha bolalari odam figurasini yasashda uning a’zolarini qaerga iriktirish to‘g‘risida o‘ylaydilar. Bunda ular figura qismlarini bir-biri bilan va butun figura bilan bevosita solishtirib, taqqoslab ko‘radilar, ularning kattakichikligini, o‘lchamlarini (uzunligini, qalinligini) aniqlaydilar. Xolbuki, rasm chizilgan vaqtda bu ishlarni faqat ko‘z bilan chamalab amalga oshirish mumkin.Loy va plastilindan o‘yinchoqlar yasashning yana bir xususiyati uning turli o‘yinlar bilan uzviy bog‘liqligidir. Bajarilgan figuraning hajmliligi bolalarni shu o‘yinchoq yordamida turli o‘yin harakatlariga rag‘batlantiradi.Kichkintoylar o‘zlari yasagan buyumlarni mashgulot jarayonidayoq darhol is ga solib turli o‘yinlarni boshlab yuboradilar. Bolalar yoshiga xos bu xususiyat anchagina mavzularni o‘yin bilan bog‘lab o‘tkazish imkonini beradi.

Predmetli o‘yinchoqlar yasash. Predmetli o‘yinchoqlar yasashda ayrim predmetlarni tasvirlash bola uchun, masalan, rasm chizishga nisbatan ancha oson tuyuladi, chunki o‘yinchoq yasayotgan bola real hajm bilan ishlaydi va shartli ifoda vositalarini qo‘llamaydi. Bolalar odam va jonivorlar figuralarini qiziqib yasaydilar. Shuningdek, ular plastik shakldan ko‘ra konstruktiv predmetlarni ifodalashni tezroq o‘zlashtiradilar. Tadqiqotlar ta’lim natijasida bolalarga odam va jonivorlar tasvirini dastlab konstruktiv, keyin plastik usulda ifodalash usulini nisbatan to‘g‘ri ifodalashni o‘rgatish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Loy va plastilindan syujetli o‘yinchoqlar yasash, bog‘chaning faqat katta va tayyorlov guruhlarida amalga oshiriladi. Chunki bola predmetlar to‘g‘risida ko‘p narsalarni bilishi hamda tasvirlashning turli usullaridan foydalana olishi kerak.

Dekorativ plastinkani ishlash orqali bolalar asboblardan foydalanishni, o‘yinchoq yasashning har xil usullarini, eng muhimi bo‘shliqni chiroyli dekoratsiyalar bilan to‘ldirishni o‘rganadilar. Ba’zi elementlarni naycha, kvadrat, uchburchak va boshqa shakldagi maxsus qalam bilan bajarish mumkin

Bolaga o‘yinchoqlar yasashni o‘rgatishda loy asosiy material bo‘lishi kerak. Chunki u plastik, bir tusli, chiroyli material sifatida bolaga predmetlar shaklining yaxlitligini tushunish imkonini beradi. Bola loyning bitta zuvalasidan juda ko‘p o‘yinchoqlar va bir necha o‘yinchoqlardan iborat kompozitsiyalar tayyorlashi mumkinki, bu ishni plastilin bilan bajarib bo‘lmaydi. Loy plastilinga qaraganda yana bir afzallikka ega; loydan yasalgan buyumlarga keyin mufel pechida yana ishlov berish yoki yaxshi quritilgandan so‘ng guashga tuxum sarig‘ini qo‘shib bo‘yash mumkin. Uyinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy narsalar yasashda asosiy material hisoblanadi.Chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan materialda chet predmetlar, tosh, qum va shu kabilar bo‘lmasligi kerak. Chunki ish qo‘lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tayyorlash kerak, topilgan matni narsalar yasashga yaroqli yoki yo‘qligini oldindan tekshirish kerak. Loy shirali va shirasiz bo‘ladi. Shirasiz loy tarkibida qum ko‘p bo‘lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo‘ladi.Loy va plastilin ham turli narsalar yasash uchun juda qulay bo‘lib, ayrim xususiyatlariga ko‘ra, bir-biridan ajralib turadi. Masalan plastilin rang-barangligi va doimo ishga tayyor holda ekanligi bilan ajralib turadi. Lekin asosiy kamchilik shundaki, plastilin issiqda tez erib ketadi va o‘zining qayishqoqlik xususiyatini yo‘qotadi. Bundan tashqari plastilindan ishlangan haykalchalarni ochiq joyda saqlash juda qiyin. Undan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniladi.

Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo‘ladigan usullar.

1.Yumoloqlik – bu parcha loydan shar yasash, unga olcha, olma kabilar shaklini berishdir.

2.Bir bo‘lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi.

3.Shar yasash, so‘ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.

4.Yassilash – sharikdan yassi non yasaladi, qulning holati doimo o‘zgarib turadi.

5.Chuzish – sharikning bir qismi chuziladi.

6.Surish (yamash) buyumning ayrim qismlarini o‘zaro biriktirish.

Loy va plastillin bilan ishlash mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishda ish joyini bekamu-ko‘st jihozlanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Shuni kayd etish lozimki, Uzbekiston issik iklim sharoitida narsalar yasash buyicha amaliy mashgulotlarni loydan bajargan ma’kul, chunki plastilindan yasalgan narsaar issikda uz shaklini tez yukotadi.

Kichik guruhda loy ishi. Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida loy ishlari kichik guruhdan boshlanadi. Bu guruhda bolalarning loy ishlari boshqa guruhlardan ajralib turadi, ya’ni o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Bolalar tasvirlovchi shakllar noaniq bo‘ladi, chunki bu yoshda bolalar qo‘l harakati rivojlanmagan, qo‘l muskullari hali o‘smagan, shuningdek, ishlarni kuzatib, nazorat qilib borish xususiyatlari hali rivojlanmagan bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar uchun loy bilan ishlashda eng muhimi, loyning xususiyatlari bilan tanishishdir, ya’ni loy yumshoq, yopishqoq va hokazo. Shu sababli bolalar bu guruhda loyning xususiyatlari bilan o‘yinlar o‘ynab, tanishib boradilar. Shuning uchun bu davr tasvirlashgacha bo‘lgan davr, deb ataladi. Bu davr quyidagi harakatlar bilan xarakterlanadi: bolalar loyni bir necha bo‘lakka bo‘ladilar, birini ikkinchisining ustiga joylashtiradilar, taxtacha ustida aylantirib, uni taxta ustida yapaloqlashadi, ammo bu harakatlarni hech qanday maqsadsiz bajaradilar. Bolalar asta-sekin tarbiyachining rahbarligi ostida loyni ikki kaft orasida doiraviy, uzunasiga harakatlantirib, sodda, yakka predmetlarni yasashga o‘rganib boradilar. Masalan, olma, tayoqchalar, halqachalar, qo‘ziqorinlar. Yangi dasturda bu guruhda ko‘proq takroriy mashg‘ulotlar rejalashtirilib, asosiy maqsad bolalarni oddiy texnik usullarni yaxshilab egallashlariga qaratilgandir. Ammo tarbiyachi takroriy faoliyatlarni uyushtirganda, bitta dastur mazmuni asosida xilma-xil variantda faoliyatlar uyushtirish lozim. Masalan, qalam yoki tayoqchalar, shu bilan birgalikda, tarbiyachi qator tarbiyaviy xususiyatlarni ham bolalarda tarbiyalab boradi. Masalan, bolalarni birga jamoa bo‘lib ishlash, loy bilan toza ishlash, ishlayotganda yenglarini shimarib ishlash, ishlab bo‘lgach qo‘llarini yaxshilab yuvish va hokazo. Faoliyatlarning muvaffaqiyatli o‘tishi faoliyatlarda tarbiyachining foydalanadigan metod va usullariga bog‘liqdir. Bu guruhda tarbiyachi ko‘proq informatsion-retseptiv va reproduktiv metodlardan foydalanadi. Bolalar bilan birgalikda turli xil o‘zlariga tanish predmetlarni ko‘rib chiqadilar. Bolalar shu predmetlarni qo‘li bilan ushlab, uning kattaligini va boshqalarni payqashi mumkin. Shuningdek, bolalar bilan bir necha qismli predmetlarni ham ko‘rib chiqadilar. Tarbiyachi dastavval bolalarning diqqatini o‘sha predmetning yirik qismlariga, uning mayda qismlariga, shakliga, rangiga jalb etadi. Dastlabki faoliyatlarda tarbiyachi tasvirlashning texnik usullarini ko‘rsatib, tushuntirib beradi. Shuningdek, tarbiyachi bolalarni loydan narsalar yasashda ko‘proq o‘yin usullaridan foydalanadi. Bu guruhda loy mashg‘ulotlari predmetli xarakterga ega

bo‘ladi, ya’ni bolalar alohida, yakka predmetlarni yasaydilar, bu guruhda bolalar ishiga yoki faoliyatiga baho berish ham muhim usullardan hisoblanadi. Tarbiyachi albatta bolalarning, ishni qanday bajarganlarini aytib o‘tishi lozim. Birinchi kichik guruhda loy faoliyatlari haftada bir marta o‘tkaziladi. Masalan, pechene, non va barmoq bilan yoki alohida tayyorlangan tayoqchalar bilan, ya’ni turli xil shakllar — kvadrat, doira, chuqurcha hosil qilib, uni bezatadilar.Bu predmetlarni kuzatib chiqishda tarbiyachi oldin o‘sha predmetni qismlarga va har bir qismning shakliga, tuzilishiga, shu bilan birga, qismlarning katta-kichikligiga diqqatni tortadi. Dastlabki faoliyatlarda tarbiyachi predmetni loydan yasab berishni ko‘rsatib, tushuntirib beradi. Tushuntirish aniq va tushunarli bo‘lishi lozim yoki u predmetni yasashdan oldin, yasashning texnik usullarini havoda mashq qildirishi mumkin. Ko‘rsatib, tushuntirib berish 3-4 daqiqadan oshmasligi kerak. Agar yasashning texnik usuli bolalarga tanish bo‘lsa, ularning mustaqilligini o‘stirish maqsadida bolalarning o‘ziga taklif etilishi mumkin.Bolalar halqacha va tayoqchasimon predmetlarni yasashni o‘zlashtirib olishgach, dumaloq shakldagi predmetlarni yasashga o‘rgana boshlaydilar, ya’ni loy bo‘lagini qo‘l kaftlari orasida dumaloq yoki aylanaviy harakat qilishga o‘rgatiladi. Masalan, shar, olma, apelsin, olcha, koptok. Bolalar disksimon predmetlarni yasashga o‘rganadilar, ya’ni oldin loyni ikki kaft orasida sharsimon shaklga kiritib, so‘ng ikki kafti orasida yapaloqlaydilar.

O‘rta guruhda loydan buyum yasashga o‘rgatish. O‘rta guruhda bolalar rivojlanishi jihatdan quyi guruhdan farqlanadi. Bolalar hayotining 5-yilida fiziologik, ya’ni ham jismoniy jihatdan, ham psixologik jihatdan rivojlanadi. Ular predmetlar tuzilishidagi xususiyatlarni ajrata oladigan, tarbiyachining tushuntirib, ko‘rsatib berishini tinglay oladigan bo‘lishadi, lekin yasagan ishlari quyi guruhdan katta farq qilmaydi. Bolalar hali o‘z ishlarida proportsiyaga rloya qilmaydi, qismlarini mahkam birlashtirmaydi, predmet shaklini aniq tasvirlaydilar, chunki bolalar hali tasvirining hamma usullarini egallamagan va predmet haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmaydi. Tarbiyachi bu guruhda ham bolalarda loy mashg‘ulotiga nisbatan qiziqish uyg‘otish, qo‘l harakatlarining koordinatsiyasini tarbiyalash, faolligini o‘stirish bo‘yicha ish olib borishini davom ettiradi. Bolalarni predmet shakli to‘g‘risidagi tasavvurlarini yana ham chuqurlashtirish, uning detallarini to‘g‘ri tasvirlash ustida ish olib boradi. Masalan, odamning boshi dumaloq, uning yuzida ko‘zi, burni, og‘zi bor va boshqalar. Bu guruhda quyi guruhga nisbatan predmetni, uning tuzilishini aniqroq tasavvur yoki idrok etishga, simmetriyaga rloya qilish proportsiyaning to‘g‘ri tasviri kabi sifatlarni o‘stirishga kattaroq va ko‘proq ahamiyat beriladi. Shu bilan birgalikda, bu guruhda tarbiyachi loy bilan ishlash usullari va xillarini o‘zlari mustaqil ravishda qo‘llay olishi ustida ko‘proq ish olib boradi. Loy bilan ishlashning texnik usullaridan foydalanishga nisbatan ham talab ortadi: bolalar barmoq bilan, uning uchlari bilan ishlashga, qismlarni

mustahkam yopishtirishga, yopishtirgan qismlarni, mayda qismlarni chimdib chiqarishga va hokazo. Bolalar loy bo‘lagini aylanaviy va uzunasiga harakat qildirishadi, barmoq uchi bilan chimdib chiqazadilar, ya’ni I yarim yillikda bolalar, asosan, takror ishlaydilar. II yarim yillikda bolalar butun loy bo‘lagidan sabzavot-mevalar, shuningdek, bir necha qismdan tuzilgan figuralar yasashga o‘rganadilar. Ular qo‘g‘irchoq, mushuk, quyon, o‘yinchoq ayiq, qorbobo yasaydilar.Ikkinchi kichik guruhda ikkita shardan yasagan bo‘lishsa, o‘rta guruhda esa katta-kichik uchta shardan, shuningdek, qo‘l va boshqa detallarni ham qo‘shib yasaydilar. Bolalarni loy bo‘lagining mayda qismlarini cho‘zib chiqarishga, barmoq bilan chuqurcha hosil qilishga, buklashga, biriktirilgan qismini mahkam qilib yopishtirishga o‘rganadilar. Chimdib chiqarish bilan bolalar jo‘ja, qushlarni yasashni o‘rganadilar. Shu jarayonda bolalar predmetlarni, ularning qismlarini, shakllarining kattaligi jihatdan taqqoslashga o‘rganadilar. Masalan, baliqni loy yasashdan oldin tanasini oval shakliga keltirib oladilar, so‘ng baliqning bir tomonini salgina cho‘zib va dumaloqlab, baliqning boshini, qarama-qarshi tomonini ko‘proq cho‘zib chiqarib, yapaloqlab, uning dumini yasaydilar, suzgichlarini chimdib chiqaradilar. Shuningdek, bolalar loy bo‘lagini bir necha bo‘lakka bo‘lishga o‘rganadilar. Masalan, qush yasashda yuqoridagilardan tashqari, idishlar yasashga o‘rganadilar. Ular idishlarni yakka usulda, ya’ni yumaloqsimon va silindrsimon shakllarni barmoq bilan bosib, chuqurcha hosil qilish, bandini esa alohida loy bo‘lagidan yoki asosiy loy bo‘lagidan cho‘zib chiqarib yasash mumkin. Bolalar olgan bilim va malakalarini o‘stirib, mustahkamlaydilar. Bolalar bu kvartalda butun yil davomida o‘rgangan predmetlarini yasaydilar, shu bilan birga, tarbiyachi bolalarni tipratikan, sichqon, meva solingan idishcha, qo‘ziqorin solingan savatcha kabilarni ham loydan yasashga o‘rgatib boradi. Butun yil davomida olib boriladigan faoliyatlar asosan predmetli mavzu asosida olib boriladi va bu faoliyatlar jarayonida bolalar boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishga, mustaqil ishlashga, o‘z ishlarini yangi detallar bilan boyitib borishga o‘rganadilar.uqorida aytib o‘tilgan loy bilan ishlash dasturini bolalar o‘zlashtirishlari uchun tarbiyachi turli xil metod va usullardan foydalanadi. Tarbiyachi guruhda yoki sayrda tevarak-atrofda predmetlarni kuzatishni taklif etadi. Kuzatish va predmetni ko‘rib chiqish vaqtida bolalar dekoratsiya, predmetning asosiy shakliga, uning qismlariga, tuzilishiga, bir-biriga nisbatan proportsiyasiga jalb etadi. Masalan, shuni kuzatishda uning tanasi boshining shakliga, dumining tekisligiga, boshi, gavdasiga tik joylashganligiga va boshqalarga jalb etadi. Shu bilan birga, tarbiyachi bolalarning diqqatini predmet va hayvon, parrandalarning harakati natijasida gavda holatlari ham o‘zgarib turishini tushuntirib beradi. Bu guruhda tarbiyachi predmetni kuzatishi va ko‘rib chiqish vaqtida uni qo‘l barmoqlarining harakati bilan ko‘rsatib beradi va bolalardan ham

shuni qat’iy talab qilishlari kerak, bu sensor tarbiyaga ta’sir ko‘rsatadi.Bu guruhda yuqoridagi usullardan tashqari tarbiyachi ko‘rsatib, tushuntirib berish usulidan foydalanadi. Bu guruhda kuzatish, ko‘rsatish qisman yoki to‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, mashg‘ulot boshqa kuzatishdan tashqari predmet yoki o‘yinchoqlarni tarbiyachi tomonidan yasalgan kichik haykaltaroshlik asarlaridan foydalanish mumkin. Shu bilan birgalikda, tarbiyachi mashg‘ulot jarayonida o‘yin usulidan ham foydalanishi mumkin. Masalan, qo‘g‘irchoq uchun shirinliklar va boshqalar.Bolalarni faoliyatlar jarayonida qiziqishlarini saralash maqsadida tarbiyachi faoliyatlar jarayonida yoki faoliyatlargacha loy ishiga mos keluvchi she’r, topishmoq, qisqa ertaklar o‘qib berishi mumkin. Yasalayotgan ishni yana ham obrazli qilish uchun stekdan foydalanish mumkin. Masalan, quyonning ko‘zini yasashda. Bu guruhda bolalar ixtiyoriy loy ishlarini ham o‘rganadilar. Bunda tarbiyachi savollar bilan bolalar yasaydigan mavzularni aniqlay oladi, ularni yasash usullarini eslab oladilar. So‘ng bolalarning o‘zlari ishga kirishadilar. Bolalarning mustaqil ishlari jarayonida tarbiyachi bolalarga maslahatlar, ko‘rsatmalar bilan yordamlashib boradi.

Katta guruhda loydan buyum yasashga o‘rgatish. Bola hayotining 6-yilida uning tevarak-atrof haqidagi bilimlari, turmush tajribasi kengaya boradi. Uning qo‘l muskullari mustahkamlanib, taraqqiy etadi. U qo‘l barmoqlari bilan nozik harakatlarni bajara oladigan bo‘ladi. Uning psixikasida ham sifat o‘zgarishi yuz beradi. Xotirasi o‘sadi, barqaror bo‘ladi, diqqat ham tobora barqaror bo‘lib boradi. Bolalar oldin predmetni yasashda uning qismlarini va qismlarning shakli, xususiyatlarini aniq tasavvur eta oladilar. Shu bilan birgalikda, katta guruhda bolalar predmetlarni ko‘proq harakatda tasvirlashga harakat qiladilar. Bu guruhda bolalarni loy ishlariga o‘rgatishda quyidagi vazifalar turadi: predmet shaklini, proportsiyasini, uning tuzilishini, xarakterli detallarini va harakatini tasvir etish va boshqalar. Bu guruhda dekorativ Loy ishlari davom ettiriladi. Bolalar idishlar yasab, so‘ng uni bo‘yaydilar, dekorativ plastinkalar yasab, ularni bezaydilar. Bu guruhda bolalar sujet, mazmun asosida ishlaydilar. Texnik usullar ham bu guruhda murakkablashadi. O‘rta guruhda qismlardan yasashsa, katta guruhga kelib, butun bir loy bo‘lagidan yasaydilar. Shu bilan birga, stek bilan ishlashga ham keng imkoniyat va o‘rin ajratiladi. Bu kvartalda bolalar dastavval o‘zlariga tanish bo‘lgan sodda predmetlarni yasaydilar. Ular loy bilan ishlashning ikki usuli: konstruktorlik va haykaltaroshlik usullaridan foydalanib, turli xil meva va sabzavotlar yasaydilar. Bodring, lavlagi, sabzi, olmaning ikki xil navi. Bolalar shu ikki usulda odam figurasini va hayvonlarni yasaydilar. Bu ishlarning mazmuni asosan o‘yinchoqlardan olinadi. Masalan, Dimkovo qo‘g‘irchog‘i. Shu asosida bolalar asta-sekin ishlashga o‘tadilar. Tarbiyachi bolalarni predmetning sifatlarini loydan tasvirlashga o‘rgatib boradi. Masalan, uzun, qisqa, ingichka, kalta,

shuningdek, predmetlarni vertikal, tik holatini o‘rgatadilar, qismlarni mahkam biriktirishga, birlashtirilgan qismlarni silliqlashga o‘rganadilar. Bolalar asta-sekin o‘z ishlariga mazmun berishni keng tatbiq etadilar, asosan, bir butun loy bo‘lagidan haykaltaroshlik usulida predmetlar yasaydilar. Masalan, mushuk, kuchuk, quyon va boshqalar. Ikkinchi yarim yillikda butun bir loy bo‘lagidan idishlar yasaydilar, so‘ng ularni lentasimon usul bilan bezaydilar.Bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari kengayadi, loy ishi bo‘yicha bilim, malakani egallashgan bo‘ladi, ishlash jarayoni yana ham sifatli bo‘ladi. Bolalar harakatdagi odam yoki hayvonlar figurasi mavzusida turli xil loy ishlarini bajaradilar. Masalan, raqsga tushayotgan petrushka, «Ikki qizg‘anchiq ayiq» ertagi asosida va boshqalar. Idishlar yasashda yangi usulni qo‘llaydilar. Bu idishning tagi disk ko‘rinishida bo‘lib, devori esa yassilangan loy bo‘lagidan iborat bo‘ladi. Bolalar o‘zlariga tanish texnik usullar yordamida turli narsalarni yasaydilar. Masalan, xo‘roz, tovuq, o‘rdak, jo‘ja va boshqalarni yasab, parrandalar shakli mazmunida ishlaydilar. Bu kvartalda bolalar ko‘proq natura asosida, ixtiyoriy loy ishlarini bajaradilar. Katta guruhda tarbiyachi loy mashg‘ulotini uyushtirgan-da ko‘p metod va usullarni qo‘llaydi. Bu guruhda ham tarbiyachi dastavval predmetni yoki naturani kuzatib, uning shaklini, qismlarini, proportsiyasini ko‘rib chiqadilar. Bu guruhda ham bolalar predmetni barmoq harakatlari bilan ko‘rib chiqishlari mumkin. Agarda bolalar yasash usulini bilishsa, unda mustaqil yasaydilar, agarda bilishmasa, unda tarbiyachi qisman ko‘rsatib berishi mumkin. Shuningdek, tarbiyachi bu guruhda ham bolalar bilan ko‘proq kuzatishlar olib boradi, badiiy adabiyotdan foydalanadi, rasm, haykaltaroshlik asarlari ustida kuzatishlar olib boradi. Savol-javoblar uyushtiradi, ko‘rsatmalar, maslahatlar beradi, bola juda qiynalsa, alohida loy bo‘lagida yasash usulini ko‘rsatib beradi, topishmoqlardan keng foydalanadi. Bolalar ishini tahlil qilish ham muhim usullardan hisoblanadi. Bolalar bilan tahlil, suhbat sifatida uyushtiriladi. Bolalar har biri chiqib, ishning qandayligini, yasash usuli to‘g‘ri tanlanganmi, shakl to‘g‘ri berilganmi, qismlari, ularning proportsiyasi to‘g‘ri berilganmi, shular haqida so‘zlashadi. Tahlilni har xil shaklda uyushtirish mumkin: bolalar o‘z joyida o‘tirib, bir bolani doskaga chiqarib, ishning sifatini tahlil qilishlari ham mumkin. Bunda o‘yin usulidan ham foydalanish mumkin.

Maktabga tayyorlov guruhida loydan buyum yasashga o‘rgatish. Tayyorlov guruh bolalarining loy ishlari xilma-xil va qiziqarlidir. Bunga sabab bola ham jismoniy, ham fiziologik rivojlangan bo‘ladi. Bolalar predmetlar shaklining aniq tasviri, proportsiyasini to‘g‘ri berishga o‘rganadilar. Bu guruh katta guruhga nisbatan bir bo‘lak loydan cho‘zib chiqarish usuli orqali ko‘proq ishlaydilar. Shuningdek, stekdan keng foydalanadilar, bu bilan har xil operatsiyalar bajaradilar. Tayyorlov guruhida loy ishlarini o‘rgatish dasturi xilma-xil va murakkabdir. Bolalar predmetlarning shakllarini ko‘rib, his qilib, idrok etishga

o‘rganadilar. Bu guruhda bolalar mustaqil ravishda tasvirlashning texnik usullaridan keng va erkin foydalana olishlari kerak. Shuningdek, bolalar tasvirlashning haykaltaroshlik usulidan keng foydalanadilar.

2.Oy mavzulari bo‘yicha plastilin va loydan narsalar yasash

Tarbiyachi bolalarning ijodiy faolligini o‘stirib, ularga mustaqil ishlash uchun keng sharoit yaratib berib, bolalarni mustaqil mavzu topib, tasvir.usullarini ham mustaqil o‘ylab topishga o‘rgatib boradi. Tarbiyachi bolalarga xarakterli shakldagi predmetlarni loydan yasashni taklif etadi. Masalan, sabzavot, mevalar. Agar katta guruhda turli sabzavot va mevalarni loydan yasashga o‘rgatilsa, tayyorlov guruhida ancha murakkab vazifa topshiriladi. Masalan, turli xil shakldagi bir xil guruhga kiruvchi predmetlarni, olmaning ikki navi — krem va antonovka va bodringning bir necha navlarini. Bu kvartalda bolalar o‘yinchoqni, haykaltaroshlik usullari asosida harakatdagi predmedlarni loydan yasashga o‘rganadilar. Masalan, bo‘ynini cho‘zib qichqirayotgan xo‘roz, koptok o‘ynayotgan mushukcha va boshqalar. Bundan tashqari, bolalar bu kvartalda tasavvurlari asosida turli hayvonlarni yasaydilar. Shuningdek, bolalar odam figurasini yasashda davom etadilar.

Masalan, asosan, Dimkova qo‘g‘irchog‘i. Dimkova qo‘g‘irchoqlarini yangi texnik usul asosida yasaydilar, ya’ni boshi va koftalari alohida loy bo‘lagidan, yubkasini esa, alohida, boshqa loy bo‘lagidan, loyni yassilab konussimon shakl asosida yasashadi. Bolalar o‘z tasavvurlari asosida mavzu bo‘yicha «Qiz bola yoki bola bayroqcha ko‘tarib ketyapti», «Bola maktabga ketyapti» kabi ishlarni yasaydilar. Bolalar yalmog‘iz kampir, chipollino va boshqa ertak qahramonlarini yasaydilar. Bunday ishlarni bajarish esa bolalarda ijodiy faollikni, mustaqillikni, tasvir etishning yangi vositalarini o‘ylab topishga yordam beradi. Bolalar bu kvartalda butun bir loy bo‘lagidan yasash ustida izlanadilar va dekorativ loy bo‘yicha keng imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Masalan, asosan, xalq o‘yinchoqlari, idishlar, dekorativ plastinkalar yasaydilar. Tayyorlov guruhida bolalar idishlarni yangi usulda yasaydilar. Bu usul idishlarni halqachalar hosil qilib yasash va stek yordamida loyni olib tashlash usulidir. Masalan, halqachalar yasalib, ustma-ust qo‘yilib, bir-biriga mustahkam o‘rnatilib, so‘ng ichki va tashqi tomonidan ulangan qismlari tekislanib, silliqlanib chiqiladi. Loyni stek bilan o‘yib olib tashlash

usulida, chap qo‘l bilan silindrsimon, sharsimon-shakllardan o‘sha predmet ushlanib, o‘ng qo‘ida stek bilan ichki qismidan loy olib tashlanadi. Masalan, halqachalar usulida krujka, tog‘oracha, gullar uchun vaza, chashka, ikkinchi usul bilan kuvshin, ko‘zachalar, xumlar, ya’ni dumaloq va silindrsimon predmetlar yasash mumkin. Bolalar jamoa loy ishlariga o‘rganadilar. Masalan, parrandalik fermasi, hayvonot bog‘i. Bular jarayonida bolalar bilan tasviriy va texnik vazifalar ham o‘tilishi shu bilan birga, tarbiyaviy xarakterdagi vazifa ham ko‘proq hal etiladi, chunki jamoa loy yashlari bilan shug‘ullanganda, ularga yaxshi imkoniyat yaratib beriladn. Shuningdek, bolalar tasavvurlari asosida, naturaga qarab loy ishlarini bajaradilar. Bolalar loy bo‘yicha olgan bilim-malakalari asosida ishlab, o‘yinda foydalanish uchun turli xil predmet larni yasaydilar.



Masalan, vazalar, turli xil idishlar plastinkalar va boshqalar. Bu tayyorlov guruhida predmetli, mazmunli dekorativ, loy ishlarining turlari uyushtiriladi. Bularning barchasi ixtiyoriy ravishda ham uyushtirilishi mumkin. Bu guruhda tarbiyachi mashg‘ulotlar uyushtirganda, bolalar bilan birgalikda kuzatish va predmetlarni ko‘rib chiqish usulidan keng foydalanadi. Kuzatish va ko‘rib chiqish jarayonida tarbiyachi bolalar diqqatini predmetning shakliga, xarakterli xususiyatiga, holatiga tortadi. Kuzatish, ko‘rib chiqish vaqtida tarbiyachi bolalarga savollar bilan murojaat qiladi. Shuningdek, bolalarga turli xil illustrativ kitobchalar, rasmlar ko‘rsatib, birgalikda ko‘rib chiqish mumkin. Odam figurasining tasviri ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun tarbiyachi bolalar bilan birgalikda turli xil qo‘g‘irchoqlarni (sanitarka, kosmonavtni) ko‘rib chiqadilar. Sayr vaqtida kuzatishlar uyushtiriladi. Predmetlarning harakat vaqtidagi vaziyatiga, holatiga bolalar diqqatini tortadi. o‘yinchoqni ko‘rib chiqish vaqtida bolalar diqqatini harakatning plastikligiga, uning qaysi usul bilan yasalganligiga jalb etadi. Shuningdek, hali o‘yinchoqlar bilan yangidan tanishtirish maqsadida bolalar bilan «O‘yinchoqlar do‘koni» degan didaktik o‘yin uyushtiriladi.

O‘yinchoqning xususiyati haqida suhbat qiladi. Idishlarni yasashda tarbiyachi bolalar diqqatini idishning shakliga qaratadi, qanday usullardan foydalanib yasash mumkinligi haqida so‘raladi. Xalq amaliy-dekorativ san’at muzeyiga olib borishi mumkin. Bolalarga predmetli yoki mazmunli loy ishlarini o‘rgatishda, shuningdek, badiiy adabiyotdan keng foydalanadi. Shunday asarlarni tanlab o‘qib berish kerakki, bolalar eshitib, o‘zlari tasvirlamoqchi bo‘lgan qahramonlarini ko‘z o‘ngida aniq gavdalantira olsin. O‘qib berib bo‘lgach, bolalar bilan birga qaysi personajni yasashlari haqida suhbatlashib oladilar. Bu guruhda ham o‘yin usullaridan foydalanadi.

Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash.

Nazorat savollari

1. Plastilin tarkibini bilasizmi?
2. Uy sharoitida plastilin tayyorlashni bilasizmi?
3. Plastilin bilan ishlash mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan metodlar qanday?
4. Tuzli hamr qanday tayyorlanadi?
5. Chinni hamr qanday tayyorlanadi.

6–Mavzu: Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta’limiy faoliyatni takomillashtirish. (amaliy 2 soat)

Reja:

1. “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazining pedagogik jarayonining mazmuni.
2. “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazini metodik ta’minlash.

1. “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazining pedagogik jarayonining mazmuni.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog‘lom va bilimli, yetuk kadrlar bo‘lib voyaga yetishida maktabgacha ta’lim tarbiyasi juda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda fan — texnika nihoyatda jadal rivojlanayotgan davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, intellektual rivojlanishlariga katta ahamiyat berishimiz kerak bo‘ladi. Bolalarning elementar matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, matematik topshiriqlar, ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiriladi.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish natijasida bolalarda:

- son va sanoq haqida bilimlar berilib, birinchi va ikkinchi o‘nlik ichida miqdoriy munosabatlar haqida tushunchalar hosil qilinadi.
- geometrik shakllar va predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlar shakllantiriladi;
- fazoviy munosabatlarni tushunish va fazoda mo‘ljal olish ko‘nikmasi hosil qilinadi;
- vaqt haqida tasavvurlar shakllantiriladi;
- miqdor (kattalik) haqida tasavvurlar hosil qilinadi;

Faoliyatlar davomida bolalar mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarib, turli interfaol usullar yordamida topshiriqlarni yechib, o‘yinlarni o‘ynab, ijod qilgan holda yangi matematik tushunchalarni o‘rganib, bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab boradilar Bolada matematik tushunchalarni shakllantirishda muammoli ta’lim katta ahamiyatga egadir. Muammoli ta’lim — bu didaktik tizim bo‘lib, pedagog (tarbiyachi)larni muammoli xarakterdagi savollarni yechishga jalb qilishni nazarda tutadi. Psixologlar fikrlash muammoli vaziyatdagi savoldan boshlanadi, deb hisoblaydilar. Shuning uchun muammoli vaziyat muammoli ta’limning asosini tashkil qiladi, muammoni yechish uchun sharoit yaratadi. Vaziyat— bu ilmiy bahs-munozara orqali tushunchalarni tartibga solish uchun zaruriyatga chaqiruvchi jarayondir. Muammoli jarayon — o‘zining yechilishi

uchun izlanishni talab qiladigan anglangan qiyinchilikdir. Berilgan savol qiyinchilik yaratsa va javob berishda pedagog (tarbiyachi)dan yangi bilim va fikriy faollik talab qilinsa, o‘shanda muammoli vaziyat yaratiladi. Muammoli vaziyatda pedagog (tarbiyachi)lar e’tibori savollarning yechilishiga to‘liq yo‘naltiriladi, pedagog (tarbiyachi)larning fikrlashi moyil qilinadi (to‘g‘rilanadi). Muammoni yechishda ushbu moyillik aniq maqsadga aylanadi. Bola tomonidan asosiy bilim, tushuncha, og‘zaki, masala yechish uslublari chuqur va mustahkam o‘zlashtirilgandagina, muammoli ta’lim foydali bo‘lishi mumkin.

Pedagog tarbiyachilar quyidagi savollarni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishlari mumkin:

1. Masalani yechish jarayonidagi bola fikrlash psixologiyasining xususiyatlarini qanday o‘rganish mumkin?

2. Ushbu o‘rganishlardan foydalangan holda masalani yechishga o‘rgatish uslubi haqidagi nazariyani qanday tuzish mumkin?

Bolada matematik tushunchalarni rivojlantirish uchun uning shaxs xususiyatlarini bilish muhimdir.Pedagog faoliyatni tashkil qilishda

quyidagilarni bilish kerak:

a) bilim darajasi, ya’ni bolaning ijodiy faoliyati qanday tushunchalarga asoslanib bajariladi;

b) ijodiy ishlashning qanday shakllanganligi;

d) bolalarda uchraydigan o‘ziga xos qiyinchiliklar;

ye) bolaning shaxsiy xususiyatlari.

Ta’lim berish psixologik-pedagogik adabiyotda o‘quv jarayonining shunday tashkili tushuniladiki, ta’lim va tarbiya berish uslub va vositalarining tanlanishida bolaning shaxsiy psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi. Ta’limni individuallashtirish bilim va ko‘nikmalarning har bir bola tomonidan ongli, mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlashga, uning aqliy kuchi va bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga, bilimni mustaqil topa bilishini shakllantirishga hamda bu bilimni turli amaliy va o‘rgatuvchi masalalarni yechishda ijodiy ishlata bilishni o‘rgatishga qaratilgan. Qurilish-konstruksiyalash va matematika markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo‘lib, bolalar ulardan o‘z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar:misol uchun ko‘rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, o‘z tasavvuridagi uylar, ko‘priklar, yo‘llar, ferma va do‘konlar, maktab va bog‘cha shu kabilar. Qurilish bilan mashg‘ul bo‘lgan bolalar bu yerda juda ko‘p narsalarni o‘zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi. Bu markazda boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig‘ishi va bo‘laklarga ajratishi mumkin bo‘lgan narsalar bo‘lishi lozim. Bu yerda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha

tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o‘yinlar ham bo‘lishi kerak. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o‘rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xoxish-istagiga ko‘ra ko‘plab turli narsalarni – o‘yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo‘laklarini qo‘shib qo‘yish mumkin.

Markazdagi faoliyat orqali bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarish orqali ham qurish yasash, ham matematika bilan shug‘ullanish imkoniga ega.

Bolalar orasidagi suhbatlar tinglansa, ularning muloqotida “Menga katta g‘ishtni ber”, “Menga qizil kerak”, “O‘ng tomoningdagi meniki”, “Men yasagan uycha ikki qavatli”, “Seniki kichkina, meniki esa katta”, “men yasagan mashinaning rangi oq”, “Mana senga kuk lego”, “Mening mashinamga 10 ta odam sig‘adi”, “Nima uchun buzilib ketdi?, chunki sen tagiga ko‘p g‘isht qo‘ymading, tagi kichikgina bo‘lib qoldi”va boshqa jumlalarni eshitasiz. Demak bolalar muloqotida ayirish, qo‘shish, kattalikni bilish, taqqoslash kabi matematik iboralar ishlatiladi va ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.O‘z ishlarini tahlil qilishni o‘rganadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning to‘laqonli rivojlanishi uchun rivojlantiruvchi – predmetli o‘yin muhiti va kattalarning ular bilan mazmunan boy muloqoti yagonaligi zarur omil bo‘lib hisoblanadi. Rivojlantiruvchi predmetli o‘yin muhiti – maktabgacha yoshdagi bolani jismonan, ma’nan, shuningdek, intellektual rivojlantirish mazmunini modellashtirish vazifasini bajaruvchi atrof–muhitdagi narsalar tizimidir.Mamlakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, barcha sohalardagi rivojlanishlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham tub o‘zgarishlarga erishishni taqozo etmoqda. Rivojlantiruvchi predmetli muhit bolaning aqliy fikrlash, boshlang‘ich tashabbuskorligini o‘stirish, o‘zlashtirgan bilimlarini amalda qo‘llashga faol xarakat qilishidagi asosiy vositadir.Bola amal qiladigan predmetli muhit undagi bilim va ko‘nikmani amaliyotda qo‘llash uchun bitmas-tuganmas axborot manbai bo‘lishi, bola ehtiyojini qondiruvchi, uni mantiqan fikrlashga, mustaqil ravishda yangilik yaratishga undovchi, boladagi malakani yanada takomillashtiruvchi manbaga aylanishi zarur. Rivojlantiruvchi muhit maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini, is’tedodlarini namoyish eta oladigan madaniy-ma’rifiy markaz sifatida shakllanmog‘i kerak. Bolaning muntazam tarzda foydali va qiziqarli mashg‘ulot bilan band bo‘lishini ta’minlaydigan muhitni yaratish uchun jamoadan yuksak ijodkorlik bilan mehnat qilish talab etiladi. Bolalikning predmetli muhiti yosh, navqiron avlodning shakllanuvi uchun zarur bo‘lgan barcha axborot va ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bola rivojlanishining predmetli muhiti bola va uning shaxsi to‘laqonli rivojlanishini ta’minlovchi yaxlit bir tizim bo‘lib, unda bola

xozirgi zamon talablari darajasida jismoniy, estetik, aqliy, ijtimoiy tarzda to‘liq rivojlanadi. Rivojlantiruvchi predmetli muhit bolalar shaxsini, kobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish uchungina xizmat qilib qolmay, bolalarni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, mustaqil izlanishga, o‘z kuchiga ishonishlariga, yangiliklarga intilishlariga, yaratuvchanlikka undaydi.

2. “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazini metodik ta’minlash

Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markaziga qo‘yiladigan talablar :

1. Eng avvalo bolaning salomatligini saqlash omillari: toza havo, toza joy, normal harorat va yorug‘lik bilan ta’minlanadigan xonalar.

2. Har bir markazning bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joyda bo‘lishini ta’minlash.

3. Markazlarda bolalarning harakat, tajriba, va kashf qilishlarini rag‘batlantirish, buning uchun zarur shar-sharoitlar yaratish. Masalan jihozlarning yetarli bo‘lishi, kichik tadqiqot va tajribalar uchun ham

4. Markazlardagi barcha jihoz va qo‘llanmalar bolaning bo‘yi yetadigan balandlikda bo‘lishi hamda bola ulardan bemalol foydalana oladigan bo‘lishi kerak.

5. Bolalar o‘rtasida hamkorlik va muloqotni rag‘batlantirish (kichik guruhlar, juft bo‘lib va o‘yin o‘ynashlariga sharoit yaratilgan bo‘lishi kerak.)

6. Bolalarda tashkilotga tegishlilik, xavfsizlik va erkinlik hissini shakllantirish

7.Markazlarda bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan qismlarga bo‘lish va u yerda bola uchun kerakli va qiziqarli ashyolar, jihozlar, o‘yinchoqlar, konstruksiyalar, belgilar, raqamlar, so‘zlar va h.k bo‘lishi shart

8. Mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to‘siq bo‘lmaydigan qilib joylashtirilgan bo‘lishi, bola o‘ziga tegishli mebelni bemalol harakatlantira olishi shart.

9. Markazlardagi rivojlanish muhit tarbiyachilarga ham, bolalarga ham qulay bo‘lishi kerak.

10. Bolaga erkin tanlash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash.

11. O‘z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish.

12. Kundalik qilinadigan ishlarni biror jadvalda bola ko‘ra oladigan va tushunadigan holatda ilib qo‘yish. Buni so‘zlar va ramzlar bilan tasvirlash.

“Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazida asosan bolalar faoliyati–amaliy faoliyat bo‘lib, ular qurish-yasash faoliyati bilan bir vaqtda matematik tasavvurlarini ham shakillantirib boradilar. Bu esa bolalarda aqliy,

axloqiy, estetik va mexnat tarbiyasi yanada shakllanib boradi, hamda ularda tevarak-atrofdagi predmetlarni tahlil qilish koʻnikmasi, mustaqil fikrlash, badiiy did, shaxsning irodaviy sifatlaridan (maqsadga intilish, qat'iylik va hokazo…) tarkib topa boshlaydi, bularni barchasi bolalarni maktabda oʻqishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotda bolalarni qurilish materiallari yordamida oʻyin va mashgʻulotlar oʻtkazishning ahamiyati katta. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotda qurilish materiallari yordamida oʻtkaziladigan oʻyin va mashgʻulotlar katta oʻrin egallaydi. Bolalarning qurilish oʻyinlari rollarga boʻlinib, oʻynaladigan oʻyinlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Qurilish oʻyinlarida ham bolalar tevarak atrofdagi narsalarni, kattalarning faoliyatlarini aks ettiradilar.

Qurilish oʻyinlarining mazmuni bolalarning oʻzlari yaratadilar. Bolalar koʻpincha kattalarning qurilishdagi faoliyatlariga taqlid qilib, «Quruvchi ishchi» rolini bajaradilar. Bolalarning qurilish oʻyinlari qiziqarli ijodiy faoliyatdir. Ular oʻz oʻyinlarida qurilishlarni transport harakati, kattalarning mexnati haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar. Bunday oʻyinlar bolalarda tashabbuskorlikni uygʻotishga, ularni fikr yuritish va harakat faoliyatlarini faollashtirishga keng imkon yaratadi.

Mavzu yuzasidan tinglovchilarning bilimlari mustahkamlash

Nazorat savollari

1. Maktabgacha yoshdagi bola matematik tasavvurlari qanday shakllantiriladi?
2. Markaz faoliyatini tashkil etishda qanday ta'lim texnologiyalaridan foydalanasiz?
3. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan origami qay tarzda amalga oshiriladi?
4. Bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirishda sanoqchoʻplarning ahamiyati nima.
5. Intelektual bilish malakalari nechinchi kichik soxa

7–Mavzu: “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazida bolalarni origami yasashga o‘rgatish. (amaliy 2 soat)

Reja:

1. Origami va uning kelib chiqish ta’rixi
2. Oy mavzulari bo‘yicha origamida hayvonlar tasvirini yasashga o‘rgatish

1. Origami va uning kelib chiqish ta’rixi

Origami — bu ajoyib san’at! Qog‘oz varag‘ini chiroyli tarzda katlay olish qobiliyati qadimgi davrlarda paydo bo‘lgan. An’anaga ko‘ra, qadimgi Xitoy bu san’at va hunarmandchilikning vatani hisoblanadi. Ehtimol, bu xulosaning asosiy sababi uning bevosita Xitoyda ixtiro qilinganligidir. Kelajakda origami Yaponiyada katta rivojlanishga erishdi. Ushbu san’at 9-asr boshlarida Yaponiya madaniyatidagi asosiy san’atlardan biriga aylandi. Shunday qilib, masalan, samuraylar tez-tez sovg‘alarni almashtirdilar, ular omad timsoli sifatida maxsus qog‘oz lentalar bilan bezatilgan — ularni kiying. Origami, shuningdek, Shinto to‘ylarini bezash va tantanali hamrohlik qilish uchun ishlatilgan. Shuningdek, Xitoy, Ispaniya, Germaniya va Koreyada origami san’atining avtonom rivojlanishi haqida unutmang. Evropa an’analarining rivojlanishi juda kam hujjatlashtirilgan, ammo qog‘oz Ispaniyada 11-asrda paydo bo‘lganligi ma’lum. Germaniyada origami 15-asrdan boshlab rivojlana boshladi. Va allaqachon 19-asrda, Fridrix Fyobelning topshirilishi bilan qog‘ozni katlama san’ati kuchli sifatli sakrashni amalga oshirdi. Ushbu nemis o‘qituvchisi maktablar va bolalar bog‘chalarida origami san’atini o‘rgatish orqali bolalarda qo‘l motorli ko‘nikmalarini rivojlantirishni taklif qildi. Endi origami xalqaro san’at bo‘lib, dunyodagi eng keng tarqalgan san’atlardan biridir. U 60-yillarda yaponiyalik origami ustasi Yoshizavaning ramzlar tizimi nashr etilgandan keyin alohida rivojlanishga erishdi. Shundan so‘ng, raqamlarni katlama jarayonini tushuntirish ancha osonlashdi. Bundan tashqari, endi o‘qituvchi ishtirokisiz modellarni qanday katlashni o‘rganish mumkin bo‘ldi. shbu turdagi san’at uchun majburiy material, albatta, qog‘ozdir. Va birinchi qog‘oz mashinasi Xitoyda ixtiro qilingan bo‘lsa-da, origami tarixi Yaponiyadan boshlanadi. 8-asrning boshlarida turli xil raqamlarni katlay boshlagan yaponiyaliklar edi. Aytgancha, yapon tilida "origami" so‘zi "katlanmış qog‘oz" degan ma’noni anglatadi. Shunisi e’tiborga loyiqki, o‘sha kunlarda qog‘oz juda qimmat material edi, shuning uchun u faqat ibodatxonalar va monastirlarda mavjud edi. Rohiblar "sanbo" deb nomlangan maxsus qog‘oz qutilar yasadilar, ular ichida xudolarga qurbonliklar keltirdilar. Ushbu birinchi origami hunarmandchiligi hech qanday asboblardan foydalanmasdan qilingan va material faqat qog‘oz edi. Biroz vaqt o‘tgach, har bir yapon aristokrati aziz odamga sovg‘a yoki Xudoga hurmat ko‘rsatish uchun bunday qutilarni qanday yasashni bilardi. Va 600 yildan keyin qog‘oz bunday qimmatli manba bo‘lishni to‘xtatdi, bu esa ushbu san’atning

tez sur’atlarda rivojlanishiga imkon berdi. Origami tarixi, ehtimol, yaponlar tomonidan uzoq vaqtdan beri unutilgan, ammo birinchi samolyotlarni, hayvonlarning haykalchalarini va ular tomonidan taqdim etilgan ajoyib gullarni yig‘ish texnikasi bugungi kunda butun dunyoni quvontiradi. Eng qadimgi origami hunarmandchiligi Yuqorida aytib o‘tilganidek, origami texnikasi yordamida tayyorlangan birinchi mahsulotlar qutilar edi. Ammo ular dekorativ emas, balki amaliy maqsadlarda yaratilganligi sababli ularni haqiqiy san’at asarlari deb atash mumkin emas. Turna — aynan shu haykalcha bilan origami tarixi san’at turi sifatida boshlangan. Birinchi yaponcha origami nashrida “Semba — tsuru orikata”, ya’ni “Qanday qilib ming kranni yig‘ish kerak” deb nomlangan kranlarning 49 ta modelini qog‘oz buklash xususiyatlari tasvirlangan. Bu minimal miqdordagi grafik tasvirlarga ega bo‘lsa-da, juda batafsil origami ko‘rsatmasi edi. Ushbu kitob 1797 yilda Rokan ibodatxonasi rektori tomonidan nashr etilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, kitobda nafaqat alohida kranlarni, balki ularning bir-biri bilan turli xil kombinatsiyalarini katlama bo‘yicha ko‘rsatmalar mavjud. Misol uchun, haykalchalarga gulchambar shakli berilishi mumkin, bu bir nechta kranlarni qanotlari yoki tumshug‘lari uchlari bilan bog‘lash orqali olingan. Yaponiyada eng faol origami san’ati Ikkinchi Jahon urushidan keyin rivojlana boshladi. Origami tarixi yapon ustasi Akiro Yoshizavaga qarzdor. Aynan u qurbaqalar, baliqlar, turnalar, iris gullari va boshqalar bo‘lgan birinchi, shu paytgacha noma’lum qog‘oz shakllarini yig‘ishni boshlagan

Origami— turli shakldagi qog‘ozlarni buklash bilan bog‘liq hunarmandchilikni tasvirlash uchun ishlatiladigan umumiy atama. Oddiy so‘zlar bilan aytganda: Origami — qog‘ozni yig‘ish san’ati. Origami so‘zining kelib chiqishi. Qog‘ozni katlama san’atini faqat yaponcha deb atash mumkin bo‘lmasa-da, "ORIGAMI" so‘zining o‘zi bizga quyosh chiqayotgan mamlakatdan kelgan. To‘liq ma’noda u ikki qismdan iborat, bu "ORI", ya’ni "katlama" va "KAMI" — qog‘oz. Tadqiqotchilar bu so‘z qachon paydo bo‘lganligini aniq ayta olmaydilar, lekin bu, ehtimol, Xitoydan Yaponiyaga eramizning 600-yillarida qog‘oz etkazib berilgan paytda sodir bo‘lgan. Ushbu san’atning qisqacha tarixiga o‘tishdan oldin, keling, uning paydo bo‘lgan joyi kabi muhim haqiqatni darhol aniqlab olaylik. Gap shundaki, "origami" atamasi tilga olinganda ham ko‘pchilik Yaponiyani darhol tasavvur qiladi, qog‘ozdan figura yasash san’ati, ehtimol, qadimgi va yaponiyalik bo‘lmagan. Shu munosabat bilan, bir ovozdan fikr yo‘q, chunki bunday ijod turlari turli mintaqalarda va turli davrlarda namoyon bo‘lgan. Masalan, qadimgi Misrda haykalchalar o‘zining tashqi ko‘rinishi bilan qog‘ozdan ancha oldinda bo‘lgan haykalchalardan yaratilgan. Biroq, "origami" atamasi qog‘oz mavjudligini nazarda tutganligi sababli, biz uning ixtiro qilingan davriga, ya’ni Xitoyga eramizning 105-yiliga etkazilishi kerak. Ma’lumot uchun, uni Xan sulolasining xitoylik ulug‘

kishisi Qay Lun ixtiro qilgan. Shunday qilib, qog‘oz Xitoyda nisbatan keng tarqalgan bo‘lsa-da, lekin uni ishlab chiqarish siri mamlakat chegaralarini tark etmaganida, uni katlama va kesishning turli usullari tug‘ildi. Asosan, bu hunarmandchilik turli diniy maqsadlarda ishlatilgan. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, "origami" qog‘ozni shakllantirishning dekorativ san’ati shakli sifatida aniq Xitoy ildizlariga ega. « Xo‘sh, nega origami yapon san’ati hisoblanadi?"- deb so‘raysiz. Javob juda oddiy bo‘ladi. Gap shundaki, qog‘oz Yaponiyaga keltirilgach, aynan o‘sha yerda qog‘oz buklash texnikasi keng tarqalib, rivojlangan. Yaponlar uchun origami san’ati ko‘plab afsonalar va xurofotlarni o‘z ichiga olgan haqiqiy falsafaga aylandi.

2. Oy mavzulari bo‘yicha origamida hayvonlar tasvirini yasashga o‘rgatish

1. Origami turlari va texnikasi . Origami (yaponcha "buklangan qog‘oz") — qog‘oz shakllarini yig‘ishning qadimiy san’ati. Origami san’ati 1-bo‘lib qadimgi Xitoyda ixtiro qilingan. Qog‘ozni buklab maketlar yasash-origami san’ati turiga kiradi. Tasvir varag‘ini chiroyli tarzda katlash qobiliyati uzoqda antik davrda paydo bo‘ldi. An’anaga ko‘ra, qadimgi Xitoy ushbu dekorativ va amaliy san’atning vatani hisoblanadi. Ushbu san’at IX-asr boshlarida yapon madaniyatining asosiy qismlaridan biriga aylandi. Qog‘oz origami — bu qiziqarli va hayajonli faoliyat. Uni kattalar ham, bolalar ham sevadilar. Origami ayniqsa 3 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun foydalidir. Ushbu san’at turi qo‘lda epchillikni, fazoviy tasavvurni va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.Origami turlari va texnikasi xilma xil. Origami — bu britaniyalik origami rassomi Jon Smit tomonidan ixtiro qilingan origami uslubi bo‘lib, u faqat tog‘ va vodiy burmalaridan foydalanish bilan cheklangan. Oddiy origami ingliz ustasi Jon Smit tufayli paydo bo‘ldi. Texnikaning o‘ziga xosligi shundaki, ish jarayonida faqat qatlamali "tog‘" va "vodiy" uslub ishlatiladi. Ushbu uslub boshlang‘ich origamistlar yoki vosita muammolari bo‘lganlar uchun yaratilgan. Bunday cheklash ushbu san’atning standart xilma-xilligiga juda yaxshi tanish bo‘lgan murakkab usullardan foydalanishga imkon bermaydi. Natijada, oddiy origami haqiqatan ham o‘rganishni boshlash uchun murakkab bo‘lmagan texnikadir. Qog‘ozni buklab maketlar yasash maqsadi tajribasiz origami san’atkorlari, shuningdek, cheklangan vosita qobiliyatlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun ishni oson qilishdir. Yuqorida keltirilgan cheklov shuni anglatadiki,murakkab texnikalarning ko‘pini (hammasini emas) amalga oshirish mumkin emas, bu esa o‘xshash effektlarni beradigan yangi usullarni ishlab chiqishga majbur qiladi. Qog‘ozni murakkab usullarda buklab maketlar yasash bolalar uchun juda foydali. Bolalar tezda nafaqat ramzlarni va asosiy raqamlar, balki butun sxemalar bilan ishlashni o‘rganadi. Origami go‘zallikni rivojlantiradi, nozik vosita qobiliyatlari barmoqlar, xotira, diqqat,

aniqlikni, bolaning fazoviy fikrlashini o‘stiraditiradi. O‘yinchoqni iloji boricha yaxshiroq qilish istagi bolalarni sxemalar bo‘yicha harakatlarni bajarishda ehtiyotkorlik, aniqlik va ravshanlikka o‘rgatadi. Vaqti-vaqti bilan siz bolalar asarlari ko‘rgazmalarini tashkil qilishingiz mumkin — ular chiroyli kompozitsiyalarni yaratadilar. Bundan tashqari, bola bu o‘yinchoqni o‘zi yasaganini tushunishdan mamnun, ular ota-onalariga o‘zlari yaratgan buyumlari bilan maqtanishdan xursand bo‘lishadi. Origamining mashhur navlaridan biri modulli origami bo‘lib, unda butun shakl ko‘plab bir xil qismlardan (modullardan) yig‘iladi. Har bir modul klassik origami qoidalariga muvofiq bir qog‘oz varag‘idan yig‘iladi, so‘ngra modullar ularni bir-biriga joylashtirish orqali ulanadi, bir vaqtning o‘zida paydo bo‘ladigan ishqalanish kuchi strukturaning parchalanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Modulli origami eng keng tarqalgan ob’ektlaridan biri kusudama, uch o‘lchamli sharsimon jismdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining “Qurish, konstruksiyalash va matematika ” rivojlanish markazlarida turli rivojlantiruvchi o‘yinlarning olib borilishi maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqatini, fazoviy, mantiqiy va mavhum fikrlashini rivojlantiradi.




Easy Peasy and Fun



Nazorat savollari

1.Origamiǁ so‘zi qanday ma’noni bildiradi?

2. 1-bo‘lib origami san’atini kim kashf etgan ?

3.Origamining qanday turlarini bilasiz ?

4. Origami uslubini izohlab bering.

5.Qog‘ozdan buklash yo‘li bilan qanday o‘yinchoqlar yasash mumkin?

8–Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni tangramm, pazl va lego rivojlantiruvchi o‘yinlar vositasida elementar matematik tasavvurlarni shakillantirish. (amaliy 2 soat)

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirishda tangrammning o‘rni
2. Pazl va lego rivojlantiruvchi o‘yinlar vositasida elementar matematik tasavvurlarni shakillantirish

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirishda tangrammning o‘rni

Tangramm va legolardan ta’limiy o‘yinlar-Tangram – bu bizga Qadimgi Xitoydan kirib kelgan boshqotirma. Bu sharqona o‘yinning vazifasi – yettita oddiy geometrik shakllar yordamida tekis yuzada kontur bilan ko‘rsatilgan yangi shaklni yasash. Ular turli xil hayvonlar, transport, o‘simliklar va odamlar siluetlari bo‘lishi mumkin. Tangram rivojlantiruvchi o‘yinining asosiy maqsadi – shakllarni ustma-ust qo‘ymagan holda barchasidan foydalanish. Tangramning paydo bo‘lishi haqida turli afsonalar mavjud.

Tarixga nazar tashlasak, “Tangram” – qadim zamonlarning kashfiyoti hisoblanadi. U haqidagi birinchi bosma eslatma 1813 yilda nashr etilgan imperator Tsyasin hukmronligi davrida yozilgan xitoy kitobida uchraydi. “Tangram”ning g‘arbda paydo bo‘lishi XIX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu boshqotirmalar Amerikaga Xitoy va Amerika kemalarida kelgan. Qadimgi namunalaridan biri , 1802 yilda amerikalik kema egasining o‘g‘liga sovg‘a qilingan, u fil suyagidan yasalgan.

Tangram so‘zi Xitoy tilidan tarjima qilinganida, “Yetti mahorat taxtasi” ma’nosini bildiradi. Bu boshqotirma, yettita yassi shakldan iborat bo‘lib, ular ma’lum tarzda joylashtirilganda, boshqa murakkab predmetlar hosil qiladi. (ular odam, hayvonlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, harflar yoki sonlar bo‘lishi mumkin.) Bu holda olinishi kerak bo‘lgan predmet odatda siluet yoki tashqi konturi chizilgan holatda beriladi. Deyarli ikki yarim ming yil avval, yosh bo‘lmagan Xitoy imperatorining uzoq kutilgan o‘g‘li va vorisi tug‘ildi. Yillar o‘tdi. Bola sog‘lom va aqlli bo‘lib o‘sdi. Keksa imperatorni bir narsa tashvishga solar edi: uning o‘g‘li, ulkan mamlakatning keljakdagi hukmdori o‘qishni hohlamas edi. Imperatorning o‘g‘liga esa kun bo‘yi o‘yinchoqlar bilan o‘ynash ko‘proq zavq bag‘ishlar edi. Imperator yoniga uchta donishmandni chaqirdi. Donishmandlarning biri matematik, ikkinchisi rassom, uchinchisi esa mashhur faylasuf edi. U uch donishmandga, shunday o‘yin topingki, o‘g‘lim zavq bilan o‘ynab matematikaning boshlanishini, atrof olamga rassomday teran nazar solishni va sabr-toqatli haqiqiy

faylasuf bo‘lishini, xattoki ko‘pincha murakkab narsalar oddiy narsalardan iborat ekanligini anglashini hohladi.

Uchta donishmand “Shi-Chao-Tyu” – 7 qismga bo‘linadigan kvadratni o‘ylab topishdi

Tangram qismlaridan turli xil shakllar hosil qilish mumkin.

Rivojlantiruvchi Tangram o‘yini bolalarda :

- diqqatni;
- ranglarni, kattalikni va shakllarni anglashni;
- mavhum, fazoviy va mantiqiy fikrlashni;
- lug‘at boyligini oshiradi;
- kombinasion qobilyatni rivojlantiradi.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarga “Tangram” o‘yinlari oddiydan murakkabga qadar berib boriladi. Bunda bolalarning Yoshi va individual xususiyatlari inobatga olinadi.

Yozuvchi va matematik Lyuis Keroll “Tangram”ning ixlosmandi hisoblanadi. Unda 323 ta masalasi bor xitoycha kitobi bor edi.

Hattoki Napolenni surgun qilishgan vaqtida, uning yonida “Tangram” o‘yini to‘plami , masala va yechimlar kitobi bo‘lgan.

“Tangram” haqida ertak

Yetti tog‘ning ortida Matematika qirolligida juda aqlli odamlar qayg‘u bilmay hayot kechirishar edi. Ular judayam quvnoq va mehribon, hamda afsonaviy qushlar va hayvonlar bilan do‘stona munosabatda edilar.

Qirollikda buyuk bayram Matematika malikasining tug‘ilgan kuni yaqinlashib kelar edi. Qirollik rangli geometrik shakllar va raqamlar bilan bezatilgan edi. Bu bayramga matematika qirolligining barcha ahli va atrofdagi o‘rmondan afsonaviy hayvonlar va qushlar ham taklif etildi. Shunday qilib, mehmonlar bayram qilishni boshlashdi. Shu vaqtda yovuz sehrgar saroy ustidan uchib o‘tayotgan edi. Yovuz sehrgar saroy ahli uni bu bayramga taklif qilmaganligi uchun judayam g‘azablandi. Va shu onda u sehrli tayoqchasini bir silkitib barcha saroy ahlini va mehmonlarni kvadrat shakllarga aylantirib qo‘ydi. Hattoki saroy va archalar ham kvadrat shaklga aylandi.

Ularni bu sehru jodudan faqat aqlli va uddaburon bolalar halos eta oladilar.

Keling bolajonlar Matematika qirolligini bu sehrdan qutqaramiz.

Tangram yasash

Tangram qilish uchun qalin kartonni oling, ustiga kvadrat chizing. Keyin quyidagi shakllarni olish uchun uni chiziqqa qo‘ying: 5 ta uchburchak (2 ta katta, 1 ta o‘rta va 2 ta kichik), kvadrat va parallelogram — jami 7 ta shakl.









Ushbu o‘yin uchun mashqlar va topshiriqlar natijasida bola oddiy tasvirlarni tahlil qilishni, ulardagi geometrik shakllarni ajratib ko‘rsatishni, butun ob’ektni vizual ravishda qismlarga ajratishni va aksincha, elementlardan berilgan modelni yasashni o‘rganadi. Bundan tashqari, Tangram o‘yini ham bolalar uchun barmoq treneriga aylanadi.



Tangram maktabgacha yoshdagi bolalarda
- diqqat
-rang, hajm, shakl haqida tushuncha
- mavhum va fazoviy fikrlash
- mantiqiy fikrlash
- kombinatsion qobiliyatlar rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga murakkablikni asta-sekin oshirib, eng oddiy raqamlardan tangramlar taklif etiladi. Bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish kerak





Tangram — O‘yin qoidalari:

• Har bir yig‘ilgan qism barcha yetti elementni o‘z ichiga olishi kerak.

• Shakllarni chizishda elementlar bir-birining to‘ldirishi kerak.

• Shakllarning elementlari bir-biriga birlashtirishi kerak

• Siz eng katta uchburchakning o‘rnini topishdan boshlashingiz kerak.





2.Pazl va lego rivojlantiruvchi o‘yinlar vositasida elementar matematik tasavvurlarni shakillantirish

Pazl (inglizcha *puzzle* – topishmoq, boshqotirma) – rasmni uning bo‘laklari yordamida tiklashdan iborat bolalar o‘yinining nomi. Shunigng uchun bu metod nomini o‘zbek tilida **“Bo‘laklardan butunni tuz”** deb ham atash mumkin. O‘tilgan mavzuga oid asosiy jumla, chizma va boshqa ko‘rinishidagi asosiy ma’lumotlar qog‘ozga yozilib, so‘ng bir nechta bo‘laklarga bo‘linib aralashtirib yuboriladi. Bolalar bu bo‘laklar ichidan faqat bitta ma’lumotga moslarini topib, uni tiklaydilar.

Bu metod bolalarda ziyraklik, topqirlik, diqqatni to‘plash, tahlil va sintez qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Uni yakka tartibda ham, guruhlarga bo‘lib ham o‘tkazish mumkin.

LEGO —daniyaliklar tilidagi «leg godt» so‘zlarining qisqartmasi bo‘lib, «yaxshi o‘ynang» degan ma’noni bildiradi. Bu nom kompaniya falsafasini ifodalaydi: «yaxshi o‘yin» bolalarga katta bo‘lganida kerak bo‘ladigan ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi».LEGO o‘zining deyarli butun tarixi davomida sotuv hajmi o‘sishidan bahra olib kelgan. Kompaniya bir joyda to‘xtab qolmagan, muntazam ravishda rivojlanib, takomillashib borgan va yangi o‘yinchoqlar chiqargan. Ammo XX asr oxirida LEGO jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi.

Eng jiddiy inqirozlardan biri 90-yillarda, LEGO kompaniyasining g‘ishtchalari uchun olingan patentning amal qilish muddati tugab qolganida yuz berdi. Ularning o‘yinchoqlaridan deyarli barcha nusxa ko‘chira boshladi. Buning ustiga, ular o‘zlari ishlab chiqargan g‘ishtchalarni kompaniyanikidan ancha arzon sotishdi. Inqirozning yana bir muhim sababi — yangi texnologik o‘yinchoqlar va komyuter o‘yinlarining yaratilishi hamda keng tarqalishi.. Har bir insonning sevimli qurilish bloklari 1958 yilda tug‘ilgan.

Ko‘plab qurilish imkoniyatlari bilan bolaning tasavvuriga rag‘batlantiruvchi kichik, rangli g‘ishtlar ikkita film va Legoland mavzusiga bag‘ishlandi. Lekin, bundan tashqari, bu oddiy qurilish bloklari bolalarni qal’alar, shaharlar va kosmik stantsiyalarni yaratish bilan shug‘ullanadigan yoshlar va ularning ijodiy onglarini o‘ylashi mumkin bo‘lgan narsalarni saqlaydi. Bu qiziqarli o‘yinchoq o‘yinchining epitomisidir. LEGO to‘plamlari

1969 yilda DUPLO seriyasi, kichikroq qo‘llar uchun katta bloklar 5-va-kichik guruh uchun taqdim etildi. LEGO keyinroq LEGO tematik yo‘nalishlarini taqdim etdi. Ular orasida shahar (1978), qal’a (1978), kosmik (1979), garovgirlar (1989), G‘arb (1996), Star Wars (1999) va Garri Potter (2001) kiradi. 1978 yilda harakatlanuvchi qo‘l va oyoqli raqamlar kiritildi. 2015 yilga kelib, LEGO o‘yinchoqlari 140 dan ortiq mamlakatda sotilgan.XX asrning o‘rtalaridan boshlab, bu kichik plastmassa g‘ishtlari butun dunyo bo‘ylab bolalarning tasavvurini kuchaytirdi va LEGO to‘plamlari dunyodagi eng mashhur o‘yinchoqlar ro‘yxatining yuqori qismida o‘zlarining o‘rnini egallashdi.






- 6 dona
- 1 dona




- 4 dona
- 1 dona
- 2 dona


– 6 dona
– 1 dona
– 1 dona
– 2 dona


– 4 dona
– 1 dona
– 2 dona


– 9 dona
– 1 dona


– 4 dona
– 1 dona
– 2 dona


– 6 dona
– 1 dona
– 2 dona


– 6 dona
– 1 dona


– 8 dona
– 3 dona

“Rasmni yig‘” pazl o‘yini

Rivojlantiruvchi maqsad: Fasllar tasvirlangan suratdagi ifodalar ma’nosini tushunishga yordam berish. Mayda qo‘l matorikasini rivojlantirish.

Ta’limiy maqsad: Bahor, yoz, kuz fasllari ifodasini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarga har bir faslning o‘z xususiyati borligi, bir faslning o‘z zavqi borligi haqida tushuncha berish.

Jihozlar: Bahor faslining ifodasi tushirilgan tasvirli surat, pazl o‘yinlari.

O‘yinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga bahor fasllarida bajariladigan ishlar ifodasi tasvirlangan suratlarni ko‘rsatadi va navbati bilan fasllarning ifodasini tushuntiradi.

1.Bahorda kunlar isib, qorlar eriy boshlaydi. Daraxtlar barg yoza boshlaydi, yerdan har xil o‘t va gullar yam-yashil bo‘lib o‘sib chiqa boshlaydi. Chumchuqlar chug‘urlashadi.

2.Bolalar varrak uchiradilar. Bahor uchib keluvchi qushlar uchib keladilar

3.Daraxtlarga donxo‘raklar o‘rnatiladi. Donxo‘ragimizga chumchuqlar uchib kelishadi. Bolalar har bir tasvirni yaxshilab ko‘rib olib so‘ngra pazl bo‘laklaridan o‘zlariga topshirilgan tasvirni yig‘adilar.

Tarbiyachi: bolalar, fasllarning pazl bo‘laklaridan bittadan olasiz. Fasllarning bo‘laklarini bitta qilib birlashtirasizlar va Bahor, yoz, kuz fasllari tasvirini hosil qilasizlar. Birlashtirishda qiynalsangiz namuna tasvirga qarang.





“Gerb” pazl o‘yini

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘zbekiston timsollaridagi ifodalar ma’nosini tushunishga yordam berish. Mayda qo‘l matorikasini rivojlantirish.

Ta’limiy maqsad: O‘zbekiston gerbi ifodasini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda o‘z yurtining ramzlaridan faxrlanish tuyg‘usini tarbiyalash.

Jihozlar: Gerb rasmi, pazl o‘yini.

O‘yinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga O‘zbekiston gerbi tasvirlangan suratni ko‘rsatadi va gerbning ifodasini tushuntiradi. Gerbning yuqori qismida Respublika jipsliganing ramzi sifatida 8 qirrali yulduz ichida joylashgani, yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug‘ ramzi ekani, gerbda himmat, oliyjanoblik va fidoiylik ramzi bo‘lgan Xumo qushi tasvirlanganligi, ushbu ramz va timsollar xalqimizga tinchlik, yaxshilik, baxt saodat tilashi, gerbda ifodalangan gullagan vodiy, quyosh, bug‘doy boshoqlari, ochilgan paxta chanoqlari yurtimizning boyliklari ramzi ekanini tushuntiradi.

Tarbiyachi: bolalar, gerbning pazl bo‘laklaridan bittadan olasiz. Gerbning bo‘laklarni bitta qilib birlashtirasizlar va gerbi tasvirini hosil qilasizlar. Birlashtirishda qiynalsangiz namuna tasvirga qarang.

“Bayroq” pazl o‘yini

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘zbekiston timsollaridagi ifodalar ma’nosini tushunishga yordam berish. Mayda qo‘l matorikasini rivojlantirish.

Ta’limiy maqsad: O‘zbekiston bayrog‘i ifodasini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda o‘z yurtining baurog‘idan faxrlanish tuyg‘usini tarbiyalash.

Jihozlar: Bayroq rasmi, pazl o‘yini.

O‘yinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga O‘zbekiston bayrog‘i tasvirlangan suratni ko‘rsatadi va bayroq ning ifodasini tushuntiradi.

Bayroq bir-biridan rangi, naqshidan farq qiladi. Men sizga yurtimiz bayrog‘i haqida so‘zlab beraman.

1. Moviy rang — yurtimiz osmonining bir parchasi. Olamda doimo tinchlik bo‘lsin deganidir.
2. Oq rang — tinchlik, poklik degani. Elga oq yo‘l.
3. Qizil chiziqlar — tomirlarda oqayotgan qon, hammani Vatanning bayrog‘i ostida yashashga, mehnat qilishga, qurashishga chaqiradi.
4. Yashil rang — tabiatning yangilanish ramzidir, yosharish, yashnatish, ertangi kunga ishonch degani.
5. Navqiron yarim oy — ayni paytda qo‘lga kiritilgan mustaqilligimizdir. Yangi chiqqan oymomo niyatlari: odamlarga yaxshilik tilaydi. Tinch tunlarni tinch kunlarga ulaydi. 12 yulduz madaniyatimiz qadimiyligini, xalqimizning tuprog‘ida saodatiga intilishi ramzidir.

Tarbiyachi: bolalar, bayroqning pazl bo‘laklaridan bittadan olasiz. Bayroqning bo‘laklarni bitta qilib birlashtirasizlar va bayroq tasvirini hosil qilasizlar. Birlashtirishda qiynalsangiz namuna tasvirga qarang.



Nazorat savollari

1.Pazl so‘zi qanday ma’noni bildiradi?
2. Lego kompaniyasini kim kashf etgan ?
3.Lego tarixini bilasizmi ?
4. Tangram uslubini izohlab bering.
5.Qog‘ozdan buklash yo‘li bilan qanday o‘yinchoqlar yasash mumkin?

9–Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni sanoq cho‘plar vositasida elementar matematik tasavvurlarni shakillantirish. (amaliy 2 soat)

Reja:

1. Sanoq cho‘plar vositasida gometrik shakllarni xosil qilish
2. Bolalarni son-sanoqqa o‘rgatishda sanoq cho‘plardan foydalanish

1. Sanoq cho‘plar vositasida gometrik shakllarni xosil qilish

10 ichida barmoq, sanoq cho‘pi va buyumlar yordamida qo‘shish va ayirishni o‘rgatish. Bolalarga uyining nomerini aytishni o‘rgatish. Katta guruhda bolalarni sanoqqa o‘rgatish davom ettiriladi. 10 ichida miqdor sonlarni ham, tartib sonlarni ham ishlatish malakasi mustahkamlanadi. Bolani “Qanday?” (buyumning sifati, alomati haqida — yashil, katta, dumaloq); “Qancha?” (buyumning miqdori haqida); “Nechanchi?” (buyumning boshqa buyumlar orasidagi o‘rni tartib son bilan aniqlanadi, masalan, beshinchi) kabi savollarni farq qilgan (differensial) holda tushunishga o‘rgatish muhimdir. Bolalarda sonlar orasidagi bog‘lanishlarni shakllantirish davom ettiriladi: har bir keyingi son oldingisidan katta, oldingisi keyingisidan kichik. Shu asosda yonma-yon turgan sonlar orasidagi munosabatlar haqidagi tasavvurlar o‘zlashtiriladi: har bir keyingi son oldingisidan bitta ortiq, har bir oldingi son esa keyingisidan 1 ta kichik. (5 6 dan 1 ta kichik, 6 5 dan 1 ta katta, 6 7 dan 1 ta kichik). Bolalar bir son ikkinchisidan 1 ta kichik (yo katta) ekanini o‘zlashtirganlaridan keyin, ularga agar kichik songa 1 ni qo‘shilsa, keyingi katta son hosil bo‘lishini, agar katta sonni 1 ta kamaytirilsa, kichik, ya’ni oldingi son hosil bo‘lishi tushuntirib beriladi. Sonlar orasidagi bog‘lanish va munosabatlarning hammasi buyumlar guruhlarini taqqoslash asosida tushuntiriladi. Bunday mashqlar jarayonida tarbiyachi “qancha edi?”, “qancha qo‘shishdi (ayirishdi)?”, “qancha bo‘ldi (qancha)?” kabi savollardan foydalanadi.
Katta guruhda bolalarga har bir son o‘z ichiga ma’lum sondagi birliklarni olishi haqida bilim berish zarur. 5 ichidagi sonlarning birliklardan iborat tarkibi haqidagi tasavvurlar ham konkret misollarda shakllantiriladi.
Tayyorlov guruhda son- sanoq bo‘yicha tasavvurlarini shakllantirish va ularni hisoblash amallari bilan tanishtirish Son va sanoq. Bolalarda 10 gacha bo‘lgan

predmetlarni to‘g‘ri va teskari sanash ko‘nikmasini mustahkamlash, ko‘rsatilgan songa binoan predmetlarni sanab chiqishni mashq qildirish.

2. Bolalarni son-sanoqqa o‘rgatishda sanoq cho‘plardan foydalanish

Sanoq cho‘plari yordamida rasmlar yaratish

Maqsad: bolalar xotira va tasavvuri kengayadi, sanash malakalari rivojlanadi.

Kerakli jihoz va materiallar: sanoq cho‘plari, turli xil rasmlar namunasi.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni tomosha qilish. Shakllar haqida suhbat.
2. Amaliy topshiriqlarni bajarish.
3. Mavzuga oid savol-javoblar.
4. Topshiriqning bajarilishini rasmlar bilan solishtirish.

Qo‘shimcha: sanoq cho‘plari yordamida geometrik shakllar hosil qilish taklifini berish.

E’tiborga molik jihati: tasavvurini kengaytirish va uni namoyon qilish.







Nazorat savollari

1. Sanoq cho‘plar vositasida gometrik shakllarni qanday tushuntirasiz
2. Sanoq cho‘plar tarixini aytib bering ?
3.Kruiziner cho‘plaridan shakl yarating ?
4. Pazl uslubini izohlab bering.
5.Sanoq cho‘plari bilan 1-10 raqamlarni yasash mumkin?

IV. O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLAR

1	Asosiy ranglar qanday turlarga bo‘linadi?	Iliq va sovuq	Xromatik va axromatik	Och va to‘q	Yorqin va xira	1
2	Applikatsiyada ishlatiladigan asosiy resurslarni belgilang?	Rangli qog‘ozlar, qaychi, kley, tabiiy materiallar (barg, urug‘lar, novda v.b.)	Oq qog‘oz, pichoq, kley, xolst, gips	Moy bo‘yoq, qaychi, stek, tabiiy materiallar	Qog‘ozlar, qaychi, stek, tabiiy materiallar (tarvuz urug‘i)	1
3	Asosiy rang nomlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	Qizil, sariq, ko‘k	Qizil, sariq, yashil,	Oq, qora, qizil	Siyoxrang, oq, sariq	1
4	Origami so‘zining ma’nosi nima?	Bu qog‘ozni buklash (qatlash) yo‘li bilan narsa yasash ma’nosini bildiradi.	Rangtasvirda ishlayman degan ma’noni bildiradi	Nam qog‘oz degan ma’noni bildiradi	Qalin qog‘oz degan ma’noni bildiradi	1
5	Qaysi javobda kamalak ranglar ketma-ketlikda joylashtirilgan?	Qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, zangori, ko‘k, siyoxrang.	Oq, zarg‘aldoq, sariq, yashil, zangori, pushti, siyoxrang.	Zarg‘aldoq, qora, yashil, qizil, zangori, ko‘k, siyoxrang.	Moviy, zarg‘aldoq , oq, yashil, qora, ko‘k, siyoxrang.	1
6	Loy ishlari MTTlarida birinchi qaysi guruhdan boshlanadi?	Kichik guruhdan	Tayyorlov guruh	O‘rta guruhdan	Katta guruhdan	1
7	Tasviriy faoliyat turlari qaysi javobda ko‘rsatilgan?	Rasm, applikatsiya, plastilin (loy) bilan ishlash	Qurilish va konstruksiyalash, musiqa, rasm	Musiqa, loy ishi, grafika	Qurilish va konstruksiyalash, musiqa,applikatsiya	1

8	Tasviriy faoliyatda rasm chizishning qanday turlari bor?	Syujetli, mazmunli, predmetli	Syujetli-rolli, kompozitsiya, naturadan tasvirlash	Nusxa ko‘chirish, kompozitsiya, naturadan tasvirlash	Rangtasvir, grafika, mozaika	1
9	Predmetli rasm deganda nimani tushinasiz?	Bitta buyumni tasvirlash	Tabiat manzaralarini tasvirlash	Natyurmortni tasvirlash	Plastilinda n buyum yasash	1
10	"5-6 yoshli bola xotira va tasavvurga ko‘ra syujet yaratadi" ushbu natija qaysi kichik rivojlanish sohasiga tegishli	Badiiy – ijodiy qobiliyatlar	Nutq va til	Dunyoni badiiy tasavvur etish	Xissiyotlar va ularni boshqarish	1
11	Qaysi yoshda bolalarda "Choynak,gilam, ro‘mol,lagan predmetlarini chizadi va dekorativ naqshlar bilan bezatadi"malakasi shakllantiriladi	5-6 yosh	4-5yosh	6-7 yosh	3-4 yosh	1
12	5-6 yoshli bola "Amaliy san’ati turlari haqida birlamchi tushunchaga ega" ushbu natija qaysi kichik rivojlanish sohasiga tegishli	Dunyoni badiiy tasavvur etish	Badiiy – ijodiy qobiliyatlar	Nutq va til	Xissiyotlar va ularni boshqarish	1
13	"Tasviriy san’at	Dunyoni	Badiiy – ijodiy	Xissiyotlar va	Nutq va til	1

	turlarini farqlaydi" ushbu natija qaysi kichik rivojlanish sohasiga tegishli	badiiy tasavvur etish	qobiliyatlar	ularni boshqarish		
14	"Plastilindan sodda shakllarni yasaydi" ushbu natija necha yoshli bolaga tegishli	3-4 yoshli bola	4-5 yoshli bola	5-6 yoshli bola	6-7 yoshli bola	1
15	Tuzli xamrda ishlangan buyumlar asosan qanday bo‘yoqda bo‘yaladi	Guash	Akvarel	Moybo‘yoq	rangli qalam	1
16	"Ilk qadam" maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturidagi yillik mavzuviy rejaning aprel oyi mavzusi nima	Yer sayyorasi — umumiy uyimiz	Go‘zal bahor	G‘aroyib dunyo	Asbob va anjomlar	1
17	"Xotira va tasavvurga ko‘ra syujet yaratadi" ushbu natija qaysi kichik rivojlanish sohasiga tegishli	Badiiy – ijodiy qobiliyatlar	Xissiyotlar va ularni boshqarish	Dunyoni badiiy tasavvur etish	Nutq va til	1
18	Ijodiy rivojlanish sohasi nechta kichik sohalarga	1. Dunyoni badiiy tasavvur etish 2. Badiiy –	1. Dunyoni bilish 2. Badiiy – ijodiy qobiliyatlar 3.	1. Dunyoni badiiy tasavvur etish 2. Borliqni	1. Borliqni ijodiy o‘zgartiris h 2.	1

	bo‘linadi va ular qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?	ijodiy qobiliyatlar	Borliqni ijodiy o‘zgartirish 4. San’atni anglash	ijodiy o‘zgartirish 3. San’atni anglash	San’atni anglash	
19	Origami so‘zining ma’nosi nima?	Bu qog‘ozni buklash (qatlash) yo‘li bilan narsa yasash ma’nosini bildiradi.	Rangtasvirda ishlayman degan ma’noni bildiradi	Nam qog‘oz degan ma’noni bildiradi	Qalin qog‘oz degan ma’noni bildiradi	1
20	Geometrik shakllardan doira, kvadrat, uchburchak shakllari bilan tanishtiriladigan guruhni belgilang?	Kichik guruh	Tayyorlov guruh	O‘rta guruh	Katta guruh	1
21	Geometrik shakllar asosan qaysi rivojlantiruvchi markaz resursi hisoblanadi?	Qurilish va konstruksiyalash, matematika	Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish	Til va nutq	Fan va tabiat	1
22	"5-6 yoshli bola xotira va tasavvurga ko‘ra syujet yaratadi" ushbu natija qaysi kichik rivojlanish sohasiga tegishli	Badiiy – ijodiy qobiliyatlar	Nutq va til	Dunyoni badiiy tasavvur etish	Xissiyotlar va ularni boshqarish	1
23	"6-7 yoshli bola turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratadi" ushbu natija qaysi	Badiiy – ijodiy qobiliyatlar	Men konsepsiyasi	O‘qish malakalari	Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot	1

	kichik rivojlanish sohasiga tegishli					
24	"5-6 yoshli bola predmetlar guruhini taqqoslaydi" ushbu natija qaysi kichik rivojlanish sohasiga tegishli	Elementar matematik malakalar	Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot	Badiiy – ijodiy qobiliyatlar	Dunyoni badiiy tasavvur etish	1
25	"6-7 yoshli bola gometrik figuralar va shakillarni biladi" ushbu natija qaysi kichik rivojlanish sohasiga tegishli	Elementar matematik malakalar	Mayda motorika	Intelektual-bilish malakalari	O‘qish malakalari	1
26	Qaysi yoshda bolalarda "Sonning miqdoriy tarkibini biladi"malakasi shakllantiriladi	4-5yosh	6-7 yosh	3-4 yosh	5-6 yosh	1
27	Qaysi yoshda bolalarda "1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarni to‘g‘ri va teskari sanaydi"malakasi shakllantiriladi	5-6 yosh	4-5yosh	6-7 yosh	3-4 yosh	1
28	Qaysi yoshda bolalarda "Shartli belgi asosida suyuq, sochiluvchan va	6-7 yosh	4-5yosh	5-6 yosh	3-4 yosh	1

	qattiq materialni o‘lchaydi"malakasi shakllantiriladi					
29	Qaysi yoshda bolalarda "Predmetlarni 1-2 ta belgisi bo‘yicha guruhlaydi"malakasi shakllantiriladi	3-4 yosh	4-5yosh	6-7 yosh	5-6 yosh	1
30	"Geometrik shakllarni (doira, kvadrat, uchburchak, kub, shar)farqlaydi" ushbu natija qaysi kichik rivojlanish sohasiga tegishli	Elementar matematik malakalar	Intelektual-bilish malakalari	Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat	Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot	1
31	"Hajmi, balandligi va qalinligiga qarabpredmetlarni ketma-ket joylashtiradi"ushbu natija qaysi kichik rivojlanish sohasiga tegishli	Elementar matematik malakalar	Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat	Intelektual-bilish malakalari	Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot	1
32	Rivojlanish markazlarida qanday ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatlar tashkil etiladi?	Badiiy adabiyot, atrof-olam, tasviriy faoliyat(rasm, applikatsiya, qurish-	Badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy faoliyat(rasm, applikatsiya, qurish-yasash)	Badiiy adabiyot, jismoniy tarbiya, atrof-olam, ta’limiy-tarbiyaviy	Badiiy adabiyot, musiqa, 2-tilga o‘rgatish, tasviriy faoliyat	1

		yasash)ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatlari rivojlanish markazlarda tashkil-lashtiriladi	ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatlari rivojlanish markazlarda tashkillashtiriladi	faoliyatlari rivojlanish markazlarda tashkillashtiriladi	ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatlari rivojlanish markazlarda tashkillashtiriladi	
33	Tabiat bilan tanishti-rish dasturini tuzilishi	jonli-jonsiz tabiat, kishilarning tabiatdagi mehnati	jonli-jonsiz tabiat, o‘simlik dunyosi	hayvonot olami, kishilarning tabiatdagi mehnati	hayvonot olami, kishilarning tabiatdagi mehnati	1
34	"Fan va tabiat" rivojlanish markazida qanday o‘quv faoliyatlar tashkillash-tiriladi?	Ilk tadqiqotchilik.	Musiqa, jismoniy tarbiya	Tasviriy san’at, musiqa	Qurish,konstruksiyalash va matematika.	1
35	Tabiat bilan tanishtirishda kanday usullardan foydalani-ladi?	Ko‘rgazmali, amaliy, og‘zaki	Ekskursiya	Laboratoriya ishi	Monitoring tahlili	1
36	Maktabga tayyorlov guru-hida "Toshning xususiyat-lari" qaysi markaz mavzusi hisoblanadi?	“Fan va tabiat”	Syujetli -rolli o‘yinlar va saxnalashtirish	Til va nutq	Qurish,konstruksiyalash va matematika	1
37	"Ilk qadam" Davlat o‘quv dasturi asosida tajribalar nima asosida rejalashtirilgan?	Mavzuviy rejalashtirish asosida	Mavsumiy o‘zgarishlar asosida	Bolaning istaklari asosida	Ota-onalar talabi asosida	1
38	"Magnit " bilan olib boriladigan	Ilk tadqiqotchilik.	San’atga qiziqish	Ijodkorlik	Jismoniy rivojlanish	1

	tajribalar bolalarda qanday bilimlarni faollashtiradi?					
39	Katta guruhining "Yer osti qazilmalari" mavzui qaysi markaz mavzusi hisoblanadi?	“Fan va tabiat”	Syujetli -rolli o‘yinlar va saxnalashtirish	Til va nutq	Qurish,konstruksiyalash va matematika	1
40	Turli xil magnitlar, lupalar, o‘lchov idishlari, qumli konteynerlar, tovushli audio tasmalar qaysi markaz uchun resurs hisoblanadi?	“Fan va tabiat”	Syujetli -rolli o‘yinlar va saxnalashtirish	Til va nutq	Qurish,konstruksiyalash va matematika	1
41	"Rangi va shaklini aniq-lash, hajmini aniqlash ,ustini aniqlash, lupa orqali kuzatish, og‘irligi-ni aniqlash, haroratni aniqlash, sezuvchanlik" kabi tadqiqotlar qaysi jism ustida olib boriladi?	Toshning xususiyatlari	Magnitning xususiyatlari	Suvning xususiyatlari	Havoning xususiyatlari	1
42	Maktabga tayyorlov gu-ruhining "Tabiiy bo‘yoq-lar" mavzui qaysi markaz mavzusi hisoblanadi?	“Fan va tabiat”	Syujetli -rolli o‘yinlar va saxnalashtirish	Til va nutq	Qurish,konstruksiyalash va matematika	1
43	Soya teatrining sahnasi nima deb ataladi?	Ekran	O‘yin burchagi	“Chodir jamol”	Interfaol ekran	1
44	Qaysi ertak turida tasvir	Stol teatri	Paxmoq teatri	Soya teatri	Qo‘g‘irchoq qo‘lqop	1

	engsiz taglik ko‘rinishida bo‘ladi?				teatri	
45	Qo‘g‘irchoq qo‘lqop qaysi teatr uchun kerakli anjom hisoblanadi?	Qo‘g‘irchoq teatri	Paxmoq teatri	Soya teatri	Stol teatri	1
46	Qo‘g‘irchoq qo‘lqop teatrining bosh qismi nimadan tayorlanadi?	Pap’e-mashedan	Paxtadan	Qattiq jism	Loydan	1
47	Yunshoq o‘yinchoqni ichiga nima solinadi?	Mato,paralon va paxta	Qog‘oz	Qattiq jism	Loy	1
48	"Qo‘lqopcha” ertagi qaysi guruxda saxhalashtiriladi ?	Kichik guruh	O‘rta guruh	Maktabga tayyorlov guruh	Katta guruh	1
49	"Echki bolalari “ ertagi qaysi guruxda saxhalashtiriladi ?	Kichik guruh	O‘rta guruh	Maktabga tayyorlov guruh	Katta guruh	1
50	"Bo‘girsoq” ertagi qaysi guruxda saxhalashtiriladi ?	Maktabga tayyorlov guruh	O‘rta guruh	Kichik guruh	Katta guruh	1
51	Stol teatri qaerda namoyish qilinadi?	Stol ustida	Interfaol ekran	“Chodir jamol”	Ekran	1
52	Qaysi yoshda bolalarda "O‘yinlar o‘ylab	6 yoshu 9 oylik	6 yoshu 6oylik	5 yoshu 9 oylik	6 yoshu 3oylik	1

	topadi, syujet-rolli o‘yinlarda ishtirok etadi, turli ertaklarni sahnalashtirishda qatnashadi" malakasi shakllantiriladi					
53	Hafta davomida 5 yoshli bola nechta miqdordagi so‘zlarni o‘zlashtirishlari mumkin?	10 ta so‘z	20 ta so‘z	30 ta so‘z	5 ta so‘z	1
54	Hafta davomida 3 yoshli bola nechta miqdordagi so‘zlarni o‘zlashtirishlari mumkin?	5 ta so‘z	20 ta so‘z	30 ta so‘z	10 ta so‘z	1
55	Maktabgacha ta’limda axborot kommunikatsion vositali ta’limiy va rivojlantiruvchi o‘yinlarning davomiyligi?	15daqiqa	20 daqiqa	35-daqiqa	25 daqiqa	1
56	Nutq,muloqot, o‘qish va yozish malakalari nechanchi kompitensiyaviy soha?	3	2	1	4	1
57	Kuzatilayotgan voqea va hodisalarni	Nutq, muloqot, o‘qish va	Bilish jarayonining rivojlanish	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom	1

	tushuntiradi-rivojlanish xaritasida qaysi kompitensiyaviy soha nazorat savoli hisoblanadi ?	yozish malakalari sohasi	sohasi	sohasi	turmush tarzini shakllantirish.	
58	Bolaning og‘zaki nutqini mustahkamlash qaysi kompitensiyada o‘rgatiladi	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi	Bilish jarayonining rivojlanish sohasi	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.	1
59	Savodxonlikka o‘rgatish qaysi sohani rivojlantiradi?	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi	Bilish jarayonining rivojlanish sohasi	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.	1
60	" Til va nutq " markazida qanday o‘quv faoliyatlar tashkillashtiriladi?	Atrof-olam bilan tanishtirish, badiiy adabiyot	Musiqa, jismoniy tarbiya	Tasviriy san’at, musiqa	Qurish-yasash va matematika.	1
61	Maktabga tayyorlov guruhining "Kim ekanligimni o‘ylayman? mavzusi qaysi markaz mavzusi hisoblanadi?	Til va nutq	San’at	Ilm-fan va tabiat	Qurish - yasash va matematika	1
62	Bolalar adabiyoti, Jahon xalqlari ertaklari,Xalq	Til va nutq	Zamonaviy adabiyotdan	Xalq og‘zaki ijodidan	Jahon adabiyotidan	1

	og‘zaki ijodi, audio ertaklar qaysi markaz uchun resurs hisoblanadi?					
63	Bolalarda o‘qish malakalari qanday shakllantiriladi?	Harflarni tanish ,qo‘shib o‘qish ,bosma harflar bilan tanishtirish	Bosma harflarni yozish orqali	Tovushni to‘g‘ri talaffuzi	Harflarni tanish va qo‘shib o‘qish orqali	1
64	Bolalarda yozish malakalari qanday shakllantiriladi?	Rasmlarni va bosma harflarni shtrixlash orqali	Bosma harflarni topish orqali	Tovushni to‘g‘ri talaffuzi	Harflarni tanish va qo‘shib o‘qish orqali	1
65	Badiiy asarlarga qiziqish qaysi kompetensiyaga tegishli?	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi	Ijodiy rivojlanish sohasi	Bilish jarayonining rivojlanishi sohasi	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish sohasi	1
66	Bolaning og‘zaki nutqini mustahkamlash qaysi kompetensiyada o‘rgatiladi	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi	Bilish jarayonining rivojlanish sohasi	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.	1

V. ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. PQ-4312-sonli qaror. 2019 yil 8 may.

2.O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi Qonuni 2019 yil 16 dekabr, O‘RQ-595-son.

3.O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi– T.:2022

4.Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (maktabga tayyorlov guruh). T.:2018

5.“Ilm yo‘li” variativ dastur 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash. T.: 2019

6. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A “O‘yin orqali ta’lim berish” Uslubiy qo‘llanmasi, T — 2020

7. Shin A.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Nazarova V.A., Mikaylova U.T., Abdunazarova N. F., Zakirov A. A., Isxakova M. R., Umirzakova N. R. “Oila va mahalla bilan hamkorlik” Uslubiy qo‘llanmasi, T — 2020

8.F.R.Qodirova, M.Fayzullaeva Maktabga tayyorlov guruhida nutqni rivojlantirish ta’limiy faoliyatini tashkil etish. – T.:2021y.

9. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. M.Sh.NURMATOVA Sh.T.XASANOVA D.E.AZIMOVA T.: 2020

10. Oren R. Sekretы plastilina. Maxaon.:2021y.

11.M.Isxoqova, M.Fayzullaeva va boshqalar “Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlikka o‘rgatish. Tarbiyachi kitobi”. T.:2018.

12. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (kichik guruh). Metodik qo‘llanma. – T.: 2018.

13. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (o‘rta guruh).Metodik qo‘llanma. – T.: 2018.

14. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh). Metodik qo‘llanma. – T.: 2018.

VI.TARQATMA MATERIALLAR















Rasm uchun resurslar

Qalin qog'oz

Qora qalam

Rangli qalamlar

Pastel (Qalam)

O'chirgich

Jazvar, (chiza'ich)

Barglar yordamida rasm chizish

Sanchqi yordamida rasm chizish

Karton yordamida rasm chizish

Quloqcho’p yordamida rasm chizish

SABZI



BAQLAJON

Rediska

Olcha



Plastilin (loy) uchun resurslar

Kulolchilik loyi

Plastilin

Stek

Plastilin uchun taglik

Tuzli xamir

1
2


1
2
telegram:@bolajonustaxonasi
3
4

“Chinni xamir” tayyorlash

- 3 qoshiq PVA kley № 801
- 2 osh qoshiq pista yog‘i
- 1 osh qoshiq glitserin
- 4 osh qoshiq jo‘xori kraxmali
- 3/1 qoshik limon kislotasi

Tayyorlnishi: Barcha maxsulotlar aralashtiriladi, ishlov beriladi, yog‘langan stol ustida qayta ishlov beriladi. Xamir necha xil rang kerak bo‘lsa shuncha bo‘lakka bo‘linadi, guash orqali rang beriladi.(ushbu xamirga faqat guash orqali rang beriladi. Xaimrlar yog‘lanib selofon paketga solinib 3 soat tindiriladi. Tayyor xamirdan loy ishi mashg‘ulotlarida foydalaniladi. “Chinni xamir” dan 4 xaftagacha foydalanish mumkin.








Leilit























ORIGAMI




1.
2.
3.
4.
5.
6.
7.
8.


1
2
3
4
5
6
7
8
9


1
2
3
4
5
6
7
8
9




1
2
3
4
5
6
7
8























www.avo-cado.ru



VI.ATAMALAR IZOHLI LUG’ATI

O‘yin – ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi pedagogik vosita.

O‘yinchoq – o‘ynash uchun mo‘ljallangan predmet

O‘yin harakatlari – operatsion-texnik jihatdan forig‘ bo‘lgan harakatlar, bu mohiyati bo‘lgan harakat, ular namoyon etish xarakteriga ega.

O‘yin faoliyati – syujetli-rolli o‘yin, qoidalari bo‘lgan o‘yin va o‘yinning boshqa turlari. Didaktik o‘yinlar – bu bolalarni o‘qitish va tarbiyalash maqsadida pedagogika maktabi tomonidan maxsus yaratilgan qoidalari bo‘lgan o‘yinlar turidir. Didaktik o‘yinlar bolalar tarbiyasida o‘ziga xos muammolarni hal etishga qaratilgan, lekin shu bilan birga ular o‘yin faoliyatining ta’limiy va rivojlantiruvchi ta’sirini hosil qiladi. Kommunikativ faoliyat – kattalar va tengdoshlar bilan muloqot va o‘zaro munosabat.

O‘qitish – ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish, faoliyatga doir tajribani orttirish, qobiliyatlarni rivojlantirish, kundalik hayotda bilimlarni qo‘llashda tajriba orttirish va hayotlari davomida ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini shakllantirishga oid faoliyatni tashkil etishga yo‘naltirilgan jarayon.

Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar – nogironligi bo‘lganidan yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e’tiboriga muhtoj bo‘lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar. Individual ta’lim xaritasi – bu tarbiyalanuvchining qiziqishlari va ta’lim talablari asosida tuzilgan, uning barcha qobiliyatlari va iste’dodlarini ochish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydigan o‘quv faoliyati dasturi.

Kvest – (ing. „Quest“ „muammo“, „izlanish“, „sarguzasht“ degan ma’noni anglatadi) hikoya mazmuniga ega sarguzashtli interfaol o‘yin (ing. „Adventure game“)), uning ishtirokchilari belgilar orqali harakatlanib, topshiriqlarni topadi va bajaradi.

Kvest o‘yini – bu bolalarning kognitiv qiziqishini va muammolarni ishtiyoq bilan hal qilish istagini faollashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan eng samarali va o‘ziga xos ta’lim texnologiyasi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya – bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviyaxloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi.

Rivojlanish (pedagogikada) – olg‘a intilish natijasida muntazam o‘zgarish jarayoni, bir holatdan mukammalroq boshqa holatga, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga o‘tish.

Tarbiya – bu jamoa va pedagoglarning tarbiyalanuvchiga shaxsni mazmunan maqsadli shakllantirishdan iborat bo‘lgan, maxsus tashkil etilgan, maqsadli va

boshqariladigan ta’siri. Shu bilan birga, ta’lim tashkilotida va oilada ta’lim va tarbiya o‘zaro uzviy bog‘liqdir.

Ta’lim va tarbiyaning muqobil shakli — maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimida innovatsion ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish modeli;

Fasilitatsiya (yengillashtirmoq) – (ingliz tilidan „facilitate“ – „osonlashtirish“, „rag‘batlantirish“, „qulay shart-sharoitlarni yaratish“) bu ongli o‘quv jarayonlaridir, bolalarning qiziqishini oshirish uchun ularga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, ularning o‘ziga ishonchini orttirish, mustaqil va samarali faoliyatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga yordam beradigan qulay muhit yaratish, rivojlanayotgan ta’lim usulidir;

Fasilitator – bu an’anaviy ta’lim konsepsiyasi doirasida ishlamaydigan, aksincha, bolalarni o‘zlarini o‘rganish uchun yo‘naltiruvchi va yordam beradigan pedagogdir (masalan, g‘oyalarni tanlash, ular haqida o‘z fikrlarini shakllantirish, tadqiqot va suhbat orqali materialni o‘zlashtirish).

Xulq-atvor – bu shaxsning biror kishi yoki narsaga (masalan, shaxsga, guruhga, tashkilotga, masalaga, hodisaga, belgiga) nisbatan umumiy psixologik munosabati. Xulq-atvor ko‘nikmalari odatda to‘rt komponentdan iborat: xatti-harakat ob’ekti haqidagi e’tiqod va fikrlar, ob’ektga nisbatan hissiyot yoki tuyg‘ular, ob’ektni baholash (ijobiy yoki salbiy) va ob’ektga nisbatan o‘zini qanday tutishga moyillik.

Ta’rifga ko‘ra, harakatli o‘yin – bu bolaning hayotga tayyorlaydigan mashqdir.

Rivojlantiruvchi ta’lim muhiti – bolalarning ijtimoiylashuvi va individuallashuvi shartlari tizimi. Rivojlantiruvchi o‘yinlar – diqqat, xotira, tafakkur va shu kabilarni rivojlantirish o‘yinlari.

Erkin syujetli o‘yin – oldindan belgilanmagan o‘yin qoidalarini ko‘zda tutgan o‘yin.

Sport o‘yinlari – jamoalar yoki alohida sportchilarning o‘yin bellashuvi bilan bog‘liq mustaqil sport turlari bo‘lib, ma’lum qoidalar asosida olib boriladi.

Tarbiya – yosh avlodni aniq maqsad asosida har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon va ijtimoiy-tarixiy tajriba, ongni, xulq-atvorni rivojlantirish va tarbiyalanuvchilar dunyoqarashlari;

Maktabgacha ta’lim – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalash va tarbiyalashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi, ularning aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlash;

Individual yondashuv – guruhdagi o‘quv yondashuvi faol harakatda ham, dam olishda ham har bir bolaning ehtiyojlarini hisobga olishini bildiradi. Bu shuni anglatadiki, guruhdagi barcha materiallar va jihozlar, umuman, ta’lim muhiti bolalarning har birining rivojlanishiga hissa qo‘shadi va taklif etilayotgan tadbirlar bolalarning rivojlanishidagi farqlarni hisobga oladi;

Individuallashtirish – shaxsni atrofdagi massivdan ajratib turadigan xususiyatlarning rivojlanishi. Har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quv faoliyatini qurish, unda bolaning o‘zi ta’lim mazmunini tanlashda faol bo‘ladi, turli faoliyatlarda bolalarning tashabbuskorligini qo‘llab, ta’lim predmetiga aylanadi.

Inklyuziv ta’lim – barcha bolalarning teng huquqli muomalasini ta’minlovchi umumiy ta’limni rivojlantirish jarayoni va bolalarga nisbatan kamsitishni istisno qiladi;

Ta’lim sifati – ta’lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasini davlat ta’lim standartlariga mosligi va davlat ta’lim talablari;

Malaka – kasbiy tayyorgarlikning ma’lum darajadagi talablarga muvofiqligi;

Bolaning kompetentligi – bu bolaning ma’lum bir hayot davriga xos vazifalarni maqsadga muvofiq bajarish uchun yetarli bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qadriyatlaridir;

Shaxsiy-yo‘naltirilgan yondashuv – pedagogning diqqatini bola shaxsining yaxlitligiga qaratib, nafaqat uning aql-idroki, fuqarolik mas’uliyat hissi, balki hissiy, estetik va ijodiy mayllarni (qobiliyatlar) rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilish;

Kuzatuv – bu bolani ishlash yoki o‘ynash vaqtida kuzatish jarayoni, ularning faoliyatiga aralashmaslik;

Ta’lim – bu yo‘naltirilgan tizimli jarayon talabalarga chuqur nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar berish, umumiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, shuningdek, qobiliyat va dunyoqarashlarni rivojlantirish;

O‘quv faoliyati – ta’lim tashkilotchilari, pedagoglar, ishlab chiqarish ustalari, ta’lim tashkilotlarini o‘qitish va qo‘llab-quvvatlash xodimlari tomonidan ta’lim dasturlarida ko‘zda tutilgan natijalarga erishish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar majmui;

O‘quv dasturi – ta’limning zaruriy darajasi, ko‘lami va mazmunini belgilovchi standartlar va talablar majmui, bitiruvchilarni umumiy tayyorlash, o‘qitish sifatini nazorat qilish hamda ularning reytinglari;

Pedagogik faoliyat – tarbiyalanuvchining ta’lim olishi, tarbiyasi va rivojlanishiga qaratilgan faoliyat turi hamda ta’lim jarayonida pedagog va tarbiyalanuvchining o‘zaro hamkorligi; Pedagogik texnologiya – muayyan loyiha asosida tashkil etilgan ta’limda aniq maqsadga erishish va natijalarni kafolatlashga qaratilgan pedagogik jarayon;

Yondashuv – pedagogning muayyan xarakterli o‘zaro bog‘liq g‘oyalar, tushunchalar va pedagogik faoliyat usullaridan foydalanishga da’vat etuvchi metodologik yo‘nalishidir;

Predmetli-rivojlantiruvchi ta’lim muhiti – bolaning rivojlanishini ta’minlovchi shart-sharoitlar munosabatlarini belgilovchi asosiy xususiyatlar (o‘yinlar,

predmetlar va o‘yin materiallari, o‘quv qo‘llanmalari, bolalar uchun turli xil tadbirlarni bajarish uchun jihozlar);

O‘quv yili – ta’lim tashkilotlarida bir o‘quv kursini tugallashga mo‘ljallangan o‘quv faoliyati davri;

Ta’lim bosqichi – bu bosqich ta’lim turlarining o‘ziga xos o‘quv dasturi yakunlanganligini ko‘rsatuvchi bosqichdir.

Hujjatlashtirish – boshqaruv jarayonini amalga oshirishning majburiy sharti bo‘lib, u o‘zida belgilangan shakllarga ko‘ra zaruriy axborotlarning yozuvlarini namoyon qiladi.

Maktabgacha yoshlik – bola rivojlanishining moslashuvchanligi, egiluvchanligi, uning rivojlanishi uchun variantlar turli-tumanligi, bevositaligi va beixtiyorligi.

Bola faolligining harakatli shakli – asosiy harakatlarni o‘zlashtirish.

Bola faolligining tasviriy shakli – chizish, yasash, applikatsiya.

Ta’limni individuallashtirish – bolani qo‘llab-quvvatlash, uning ta’lim traektoriyasini qurish yoki uning rivojlanish xususiyatlarini professional tuzatish.

Maktabgacha ta’limni individuallashtirish – har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quv faoliyatini qurish, unda bolaning o‘zi ta’lim mazmunini tanlashda faol bo‘ladi, ta’lim predmetiga aylanadi.

Interpretatsiya – talqin qilish, tushuntirish, mohiyatni ochish, sub’ektiv qarash. Masalan, test interpretatsiyasi, tadqiqot natijalari interpretatsiyasi ular mohiyatini tushuntirish, anglashni bildiradi. Talqin qilish – qayta anglash, mazmunmohiyatini ochish degani.

Ta’lim sifati – jamiyatdagi ta’lim jarayonining holati va samaradorligi, jamiyatning ehtiyojlari va kutganlariga mosligi, shaxsning hayotiy, professional, fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish va shakllantirishda alohida olingan ijtimoiy guruhlarning holatini aniqlaydigan ijtimoiy kategoriya.

Bola kompetensiyasi – bu bolaning shu hayot davriga xos vazifalarni maqsadga muvofiq bajarish uchun yetarli bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari.

Kuzatish – bola ishlayotgan yoki o‘ynayotgan paytda uning faoliyatiga aralashmagan holda kuzatish jarayoni. Bolani kuzatish vaqtida pedagog uning xulq-atvori turini, qiziqishlar doirasini, ko‘nikmalar darajasi va rivojlanishda o‘sishini aniqlashi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bola uchun ta’lim sohasi – predmet-makonli rivojlantiruvchi ta’lim muhiti; kattalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish xarakteri; boshqa bolalar bilan o‘zaro munosabatga kirishish xarakteri; bolaning dunyoga, boshqa insonlarga, o‘ziga bo‘lgan munosabatlari tizimi. MTT predmet-rivojlantiruvchi muhitining mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlarga mos kelishi lozim: milliy va hududiy an’analar; tabiat va iqlimga xos xususiyatlar; hududning ishlab chiqarish hayotining o‘ziga xosligi; muhitning mazmuni birlamchi

dunyoqarashning asoslarini solishi, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga zamin yaratishi kerak.

Ta’lim olish – ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish, tajriba orttirish, qobiliyatlarni rivojlantirish, bilimlarni kundalik hayotda qo‘llash bo‘yicha tajriba orttirish va ta’lim oluvchilarda hayotlari davomida ta’lim olish motivlarini shakllantirish faoliyatini tashkil etishning maqsadga yo‘naltirilgan jarayoni.

Kutilayotgan natija – bolalarda bilim, ko‘nikma va malakalarning taxmin qilinayotgan ko‘rsatkichi.

Kognitiv rivojlanish – bolalarning qiziqishlarini, qiziquvchanligini va bilish motivatsiyasini rivojlantirish; bilish harakatlarini shakllantirish, ongni shakllantirish; tasavvur va ijodiy faoliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi; o‘zi, boshqa odamlar, atrof-muhit ob’ektlari, atrofdagi olam ob’ektlari xususiyatlari va munosabatlari (shakl, rang, o‘lcham, material, ritm, sur’at, miqdor, son, qism va yaxlit jism, makon va vaqt, harakat va tinim, sabab va oqibatlar va h.k.), xalqimizning ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, milliy an’ana va bayramlar, Yer kurrasini umumiy uyimiz deb bilish, uning tabiatining xususiyatlari, mamlakatlar va dunyo xalqlarining xilma-xilligi haqida birlamchi tasavvurlarni shakllantirishni ko‘zda tutadi.